

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida  
*UDK:336.2 (575.1)*

**MAXMADUSTOV JALOL MAXMADUSTOVICH**

**JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI UNDIRISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish  
uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.d., (DSc) prof. Eshov Mansur Po‘latovich**

**Toshkent -2022-yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>12</b>
1.1-§ O‘zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining huquqiy va nazariy asoslari.....	12
1.2-§ Soliqqa tortish tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining bosqichlari.....	30
1.3-§ Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari.....	47
<b>Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....</b>	<b>57</b>
<b>II BOB. SOLIQ MA‘MURCHILIGIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI UNDIRISHNI AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....</b>	<b>59</b>
2.1-§ O‘zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili.....	59
2.2-§ Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlarning amaldagi holati tahlili.....	79
2.3-§ Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqlarni hisoblash va undirishning amaldagi holati tahlili.....	93
<b>Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....</b>	<b>105</b>
<b>III JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQLARINI UNDIRISHDA BOB. MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>107</b>
3.1-§ O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning soliqlarini undirishda mavjud muammolar.....	107
3.2-§ Soliq ma‘murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari.....	124
<b>Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....</b>	<b>133</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>135</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>139</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida byudjet-soliq siyosatini samarali amalga oshirish hamda iqtisodiy subyektlarni soliq dastaklari orqali rag‘batlantirishda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning turli shakllari, jumladan, (savdo solig‘i), daromad solig‘i, meros va mulk solig‘i, aksiz solig‘i va boshqalardan keng foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, soliq stavkalari va qoidalari mamlakatlar o‘rtasida, hattoki ayrim holatlarda bir mamlakatning turli qismlarida katta farq qiladi. Masalan, “AQSHning aksariyat shtatlarida daromad solig‘ining ba’zi shakllari undiriladi, ammo har bir shtatning daromad solig‘i stavkasi 1 foizdan 13,3 foizgacha tebranishi mumkin. Bundan tashqari, 7 ta shtat (Alyaska, Florida, Nevada, Janubiy Dakota, Texas, Vashington va Vayoming)da umuman davlat daromad solig‘i undirilmaydi va yana 2 ta shtat (Nyu-Xempshir va Tennessi)da foizlar va dividend daromadlari soliqqa tortilmaydi”<sup>1</sup>. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish byudjet-soliq siyosatining asosiy masalalaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Jahonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma‘murchiligini takomillashtirish borasida qator ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish manbalarini aniqlash, soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, soliqqa tortishning xalqaro standartlarini qo‘llash, mazkur jarayonlar monitoringini yuritish, avtomatlashtirish, dasturlash va raqamlashtirish orqali hisob va nazorat samaradorligini oshirish, soliqqa tortishning zamonaviy usullarini joriy etish, daromadlar deklaratsiyasini tashkil etish, soliq orqali tartibga solish vosita va usullari, jismoniy shaxslarning pul daromadlari ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va baholash uslubiyotini takomillashtirish bu boradagi muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida davlatning iqtisodiy faoliyatini faollashtirish hamda barqaror soliq tizimini tarkib toptirishda

---

<sup>1</sup> <https://www.irs.gov/government-entities/federal-state-local-governments>

uning ajralmas elementi sifatida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. "... Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan soliq ma'murchiligini soddalashtirish, soliq idoralarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish yuzasidan jiddiy choralarni amalga oshirish"<sup>2</sup> vazifalari belgilab berildi. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi jismoniy shaxslardan olinadigan soliq solishni tartibga soluvchi mexanizm, usul va vositalarining tizimli xususiyatlarini o'rganish, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning turli jihatlarini batafsil baholash, vujudga kelayotgan munosabatlarni rivojlantirish tendentsiyalarini nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 13-iyuldagi PF-168-son "Kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslardan davlat bojini undirish hamda ularni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2020-yil 9-sentyabrdagi PF-218-son "Ta'sirchan soliq mexanizmini qo'llash natijasida hosil bo'lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июндаги "Давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-3802-сон қарор

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalasining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, A.Laffer, shuningdek C.Allan, J.Armstrong, M.Asher, A.Auerbach, J.Davis, J.Keynes, L.Klein, S.McNees, A.Prest, K.Ruth, H.Theil, shuningdek, rossiyalik olimlardan I.M.Aleksandrov, A.V.Bro'zgalin, V.G.Knyazev, V.G.Panskov, A.B.Paskachev, I.M.Mayburov, N.V.Milyakov, D.G.Chernik<sup>3</sup>ning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Vahobov, A.Jo'raev, N.Kuzieva, N.Haydarov, E.Gadoev, M.Almardanov, B.Toshmurodova, S.Xudoyqulov, B.Sanakulova, N.Ashurova, J.O'rmonov, I.Niyazmetov, U.Normurzaev, F.Shakirova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish yuzasidan Sh.Toshmatov, Q.Bazarov, M.Eshonov, Sh.Sobirovning ilmiy ishlarida alohida tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Toshmatov, N.Jumaev, T.Malikov, N.Haydarov, M.Alimardanov, B.Toshmurodova, E.Gadoev, Q.Xoshimov, S.Xudoyqulov, N.Quzieva, O.Iminov, O.Olimjonov, A.Jo'raev, I.Niyazmetov va I.Turaboevning ilmiy ishlarida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, xususan, jismoniy shaxslarni soliq ma'murchiligi munosabatlarining ayrim nazariy va amaliy jihatlari o'z aksini topgan<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Allan C. (1965). Fiscal Marksmanship, 1951-63. Oxford Economic Papers, 17(2), 317-327.; Armstrong, J. & Fildes, R. (1995). On the selection of Error Measures for Comparisons Among Forecasting Methods. Journal of Forecasting, 14, 67-71.; Asher, M. (1977). Fiscal Marksmanship in Singapore, 1966 to 1974-75. SuaraEkono'd, 14, 11-22.; Auerbach, A., 1999, «On the Performance and Use of Government Revenue Forecasts» National Tax Journal, Vol. 52 (December), pp. 767-82; Davis, J. (1980). Fiscal Marksmanship in the United Kingdom, 1951-78. Manchester School of Economics & Social Studies, 48(2), 187-202.; Klein, L. (1974). A textbook of econometrics (pp. 341-42). (NJ): Prentice-Hall.; McNees, S. (1975), «An Evaluation of Economic Forecasts», The New England Economic Review.; Nithin K and Rathin Roy. 2014. Finance Commission of India's Assessments: A Political Economy Contention between Expectations and Outcomes. Sep; NIPFP Working Paper No. 141; Prest, A. (1961). Errors in Budgeting in the UK. British Tax Review, 30-43.; Ruth, K. (2008). Macroeconomic forecasting in the EMU: Does disaggregate modeling improve forecast accuracy? Journal of Policy Modeling, 30 (3), pp. 417-429.; Theil, H. (1966). Applied Economic Forecasting. Amsterdam: North Holland Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. – М., 1962. - 408 с

<sup>4</sup> Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқларнинг роли. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2008.-204 б.; Шернаев А.А. Давлат бюджети солиқли даромадларининг ўрта муддатли истиқболлини белгилаш масалалари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2009. -20 б.; Мусағалиев А.Ж. Юридик шахсларни солиққа тортишни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2009. -23 б.; Эргашев И.О. Миллий бозорни ҳимоялашда акциз солиғини ҳисоблаш услубиетини такомиллаштириш.

Soliqqa tortish tizimining ajralmas qismi sifatida jismoniy shaxslarni soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bu borada mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ayrim tadqiqotlar mazkur muammoning soliqqa tortish jarayonlari va uning huquqiy jihatlari bilan cheklangan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalasi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmaganligi ushbu sohadagi muammolarni hal etish bo'yicha fundamental tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini taqozo etmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan soliqqa tortish tizimida soliq bazasi va uni aniqlash usullariga oid ilmiy-

---

и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2011. -22 б.; Собиров Ш.М. Фойда солиғи ва унинг тадбиркорлик субъектлари иқтисодий фаолиятига таъсири. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2008. -20 б.; Урмонов Ж.Ж. Кичик бизнесни ривожлантиришда солиқларнинг рағбатлантириш функциясидан самарали фойдаланиш истиқболлари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2010. -23 б.; Жўраев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. – Т.: Фан, 2004. – 224 б.; Тошмуродова Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 128 б. Элмирзаев С. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносабатларини самарали ташкил этиш масалалари. Монография. – Т., 2017. 153 б. Пардаев У.Ў. Давлат бюджетини прогнозлаштириш услубиётини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2018 й. Мирзаев М. Солиқ йиғилувчанлигини ҳисоблашнинг услубиёти ва амалиёти. [www. Biznes-daily.uz/ru/birjaexpert.15687/](http://www.Biznes-daily.uz/ru/birjaexpert.15687/). Турабоев И. Ўзбекистон Республикаси норезидент юридик шахсларига солиқ солишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, 2019. -45 б.

nazariy mulohazalar va uning o'ziga xos jihatlariga oid ilmiy yondashuv shakllantirish;

jismoniy shaxslarni soliqqa tortish ma'murchiligi mohiyatining yangicha talqinini berish va ushbu jarayonning soliq tizimidagi ahamiyatini asoslash;

O'zbekiston soliq tizimida zamonaviy ma'lumotlarni elektron hujjat aylanishni joriy etish jarayonida jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni soliq ma'murchiligida muammolarining yuzaga kelish sabablarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

soliq ma'murchiligida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirishda belgilangan tartibda soliq bazasini aniqlash tartibiga zamonaviy mexanizmini joriy etish yuzasidan tahlil qilish orqali yangi ilmiy-nazariy takliflar ishlab chikish;

O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy takliflarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti.** O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilar faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqot predmetini** jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar ma'murchiligi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik va matematik modellashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

soliq to'lovchi (yakka tartibdagi tadbirkor) soliq to'lashni kechiktirish huquqi to'g'risidagi xabarnomani mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch oy ichida soliq organlariga yuborgan holatda soliqlarni to'lash kechiktirilgan kundan e'tiboran qarz summasiga nisbatan Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar hisoblash taklifi asoslangan;

jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasi asosida aniqlanuvchi daromad solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchiga

uning soliq organiga taqdim etgan arizasi asosida qaytarilishiga oid me'yorlar takomillashtirilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlardan yuzaga kelgan qarzdorlikni hamda soliq va yig'imlar bo'yicha jarimalar hamda penyalarni soliq organlarini xabardor qilgan holda teng ulushlarda kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqini berish taklifi asoslangan;

jismoniy shaxslarning foydalanilmayotgan obyektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo'lgan soliq qarzining hisobdan chiqarilishi hamda soliq qarzini undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlarini tugatish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'murchiligi munosabatlari iqtisodiy mohiyatining yangicha talqini berilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'murchiligi munosabatlaridagi jarayonning soliq tizimidagi ahamiyati asoslangan, uni amalga oshirishning xorij tajribasi asosida takliflar ishlab chiqilgan;

Soliq kodeksining 100-moddasida soliq to'lovchi (yakka tartibdagi tadbirkor) soliq to'lashni kechiktirish huquqi yuzasidan hisob-kitob tartibini takomillashtirish bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davrida amalda bo'lgan Markaziy bankining asosiy stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda, 50 foizi miqdorida foizlar hisoblanishi yuzasidan taklifi asoslangan;

Soliq kodeksining 105-moddasida jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida aniqlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ortiqcha to'langan (ushlab qolingan) summasi soliq to'lovchi bo'lgan jismoniy shaxsga, uning soliq hisobida turgan joyidan qat'i nazar, soliq organiga taqdim etgan arizasi asosida qaytarilishi taklifi ishlab chiqilgan;

Soliq kodeksining 482-moddasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliq bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlik, shuningdek barcha soliq va yig'imlar bo'yicha jarimalar hamda penyalarni mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormay,



soliq organlarini xabardor qilgan holda foizlarni to'lamay, teng ulushlarda kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqi taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish va mahalliy soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni shakllantirish, soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish, soliq undiruvini soddalashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq qonunchiligi va byudjet-soliq siyosati konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqish, respublikada faoliyat yuritayotgan davlat soliq xizmati organlari xodimlariga metodik qo'llanma sifatida hamda jismoniy shaxslar tomonidan undiriladigan soliqlar bazasini kengaytirish va undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

soliq to'lovchi (yakka tartibdagi tadbirkor) soliq to'lashni kechiktirish huquqi to'g'risidagi xabarnomani mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch oy ichida soliq organlariga yuborgan holatda soliqlarni to'lash kechiktirilgan kundan e'tiboran qarz summasiga nisbatan Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar hisoblash taklifi Soliq kodeksining 100-moddasida kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq

qo‘mitasining 2022-yil 14-sentyabrdagi 15-123038-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma’urchiligini takomillashtirish orqali soliq to‘lovchilarga yanada qulaylik yaratishga xizmat qiluvchi mexanizm shakllantirilgan;

jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi asosida aniqlanuvchi daromad solig‘ining ortiqcha to‘langan summasi soliq to‘lovchiga uning soliq organiga taqdim etgan arizasi asosida qaytarilishiga oid takomillashtirilgan me‘yorlardan foydalanish taklifi Soliq kodeksining 105-moddasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentyabrdagi 15-123038-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq bazasini kengaytirish, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan soliq bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘g‘ri hisoblash, jismoniy shaxslarning ixtiyorida pul mablag‘lariga ega bo‘lish imkoniyati yaratilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlardan yuzaga kelgan qarzdorlikni hamda soliq va yig‘imlar bo‘yicha jarimalar hamda penyalarni soliq organlarini xabardor qilgan holda teng ulushlarda kechiktirib (bo‘lib-bo‘lib) to‘lash huquqini berish taklifi Soliq kodeksining 482-moddasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentyabrdagi 15-123038-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yuridik shaxslarning to‘lanishi zarur bo‘lgan soliqlarini undirishning qulay mexanizmi yaratilib, soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasi oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan;

jismoniy shaxslarning foydalanilmayotgan obyektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo‘llanilgan ta’sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzining hisobdan chiqarilishi hamda soliq qarzini undirish bilan bog‘liq sud va ijro ishlarini tugatish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-218-son “Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to‘g‘risida”gi farmonida e’tiborga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 14-sentyabrdagi 15-123038-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy

etilishi natijasida soliq to'lovchilarga o'z faoliyatini tizimli shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratilib, soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi oshishi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

# **I BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1-§. O‘zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining nazariy va huquqiy asoslari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimi iqtisodiy munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solishning moliya-kredit mexanizmining asosi bo‘lgan muhim tartibga keltiruvchilardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda byudjet-soliq siyosatining samarali faoliyat ko‘rsatishi soliq tizimida islohatlarni qanchalik yaxshi amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan bugungi kunda soliq siyosatining muhim yo‘nalishlari aholi daromadlarini oshirish, soliq ma‘murchiligini rivojlantirish, byudjet daromadlari tarkibida yuridik va jismoniy shaxslarning soliq bazasini yanada kengaytirish, soliqlarni birlashtirishga qaratilgan. Shuningdek, soliqlarga oid qonunchilikning iqtisodiy samaradorligini baholash, shuningdek, soliqlarni undirish mexanizmlari masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilmoqda. Bu masala bo‘yicha ko‘plab taniqli huquqshunoslar, iqtisodchilar va tadbirkorlar mutlaqo qarama-qarshi fikrlarga ega ya‘ni ayrim tadbirkorlarga soliq yukini kamaytirish zarur, deb hisoblaydi, boshqalar esa, aksincha shaxsiy daromadlarni soliqqa tortish tizimiga e‘tibor bermasdan, yangi soliqlarni joriy etish yoki soliq stavkalarini oshirishni taklif qilmoqdalar.

Bu borada xorijiy olimlarning qarashlarini o‘rganganimizda bir qator ilmiy asoslangan fikrlarni tahlil qilganmiz. Asosan, fiziokratlar ta‘limotining asoschisi Frantsua Kene “Davlat xarajatlarini qoplashda jismoniy shaxslardan soliq undirish yo‘nalishida er egalaridan undiriladigan soliq va uy yoki ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarni soliqqa tortish orqali davlat xarajatlarini qoplash yo‘llaridan biri sifatida e‘tirof etgan. Bunday daromad olish usuli soliq to‘lovchi uchun ortiqcha harajat va og‘ir mehnatga asoslanmagan foydani tashkil qilishini ta‘kidlab o‘tdi”<sup>5</sup>. Bu olimning fikriga ko‘ra faqat daromadlarni bir yo‘nalishi sifatida qarab o‘tilgan. Ammo hozirgi kunda axborot texnologiyalarni rivojlanish davrida

---

<sup>5</sup> Кене, Ф. Физиократы. Избранные экономические произведения/ Ф. Кене, А.Р.Ж. Тюрго, П.С. Дюпон де Немур. [тарж. франс., англ., нем.] – М.: Ексмо, 2008. – 1200 б.

turli xil daromadlarni paydo bo'lishi soliq ma'murchiligini yanada rivojlantirishga talab kuchaymoqda. Bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan amerikalik siyosiy iqtisodiy soha bo'yicha olim Gerbert Saymon "Ijaraga berilgan obyektlar uchun ularning yer va ko'chmas mulk uchun soliq summasini undirish ularning haqiqiy ijara qiymatidan olinishi ko'chmas mulkka bo'lgan talabni va ijara haqi to'lovlarini pasayishiga xizmat qiladi" deb ta'kidlab o'tdi<sup>6</sup>. Bu olimning qarashlarida asosan o'sha davrdagi soliqqa tortish tizimiga mos talablar asosida fikrlarni ilgari surgan. Lekin bugungi kunda ijara shartnomalarini hisobga qo'yish orqali soliqqa tortish usullari ham amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Jismoniy shaxslarni hisob-kitoblarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi qarashlarni keltirib A.Abramovning fikriga ko'ra "Jismoniy shaxslardan soliqlarni hisoblash va undirish usullari: manbadan ushlab qolish, deklaratsiya bo'yicha o'z-o'zini hisoblash, kadastr usulida undirishda hisob-kitoblarni aniq belgilashdan iborat va ularni takomillashtirish yo'nalishlari, soliq ma'muriyati jarayonini birlashtirish, soliq to'lovchini ro'yxatdan o'tkazish joyida shaxsiy daromad solig'ini olish, mulkni sotishdan olinadigan daromad solig'i ma'muriyatini takomillashtirishdan iborat"<sup>7</sup> deb o'z yondashuvini bildirgan. Bu olimning bildirilgan fikrlari hozirgi kunda amaliyotda ayrim mexanizmlari ishlamoqda ammo, ayrimlari zamon rivojlanishi bilan yangicha yondoshuvlarni va shunga mos ravishda qonunchilikning takomillashishini talab qilmoqda. M.Delyagin "Jamiyatning o'zboshimchalik va talon-taroj qilganlarga bo'linib ketishini bartaraf etish, bozor munosabatlarini madaniyatli tarzda mustahkamlash uchun jismoniy shaxslardan kompensatsion soliqlarni undirishni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi<sup>8</sup>. Bu borada olim, davlat mulkining birinchi xaridorlari sotib olish va bozor qiymati o'rtasidagi farqni byudjetga to'lashni taklif qiladi. Bu bir tomondan, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish orqali

---

<sup>6</sup> Саймон Г. А. Теория принятия решений в экономической теории и в науке о поведении // Вехи экономической мысли Т.2. Теория фирмы / Под ред. В. М. Гальперина-СПб.: Экономическая школа, 2000-С. 54-72.- 534 с. -ISBN 5-900428-49 (англ. Theories of decision-making in economics and behavioral science, 1959)

<sup>7</sup> Абрамов А.П., Совершенствование методов исчисления и взимания налогов с физических лиц. М.: Вестник томского государственного университета, 2009. № 320, 146 с.

<sup>8</sup> Делягин М. Г. Как самому победить кризис. Наука экономить, наука рисковать: простые советы!-М.: АСТ: Астрель, 2009. - 477 с. (Красная обложка) ISBN 978-5-17-058456-7.

byudjet taqchilligini kamaytish, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga olib kelishini ta'kidlagan, chunki iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga ko'ra, aholining turli ijtimoiy qatlamlari orasidagi daromadlar farqi aholining o'nlik guruhlarida taqsimlash (desil koeffitsienti<sup>9</sup> - boy fuqarolarning 10% va kambag'allarning 10% daromadlarining nisbati sifatida) juda katta farq (16:1) nisbatida ko'rinmoqda. Bundan tashqari, bu xususiy mulkni qonuniylashtirish imkonini beradi. Olimning fikr- mulohazalari o'rinli, ammo bir qator savollar tug'iladi. Bu holatda soliq davri qanday va yigirma yil ichida insofli soliq to'lovchilarni qaerdan topish mumkin? Agar ijtimoiy adolatga asoslanib aholining turli guruhlari daromadlaridagi farqni kamaytirish haqida gapiradigan bo'lsak, muammoni hal etishning ikki yo'lini belgilab bergan iqtisodchi olim M.S.Vinokurovning<sup>10</sup> fikriga qo'shilishimiz mumkin. Bu boylarning daromadlarini cheklash va kambag'allarga maqsadli yordam berishdan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish nuqtai nazaridan olim A.Aronov "Agar soliq undirishning haddan tashqari og'ir usullari tanlansa, soliq hisobi va hisobotining ko'p shakllari keraksiz ravishda belgilangan bo'lsa, unda asossiz qat'iy soliq nazorati vositalaridan foydalanish kerak bo'lishi mumkin"<sup>11</sup> deb ta'kidlagan. Bunda soliq nazoratiga e'tiborni kuchaytirish kerakligini va soliq undirishni ma'muriy usullari qo'llanilishi to'g'risida fikr bildirilgan. Bu borada Rossiyalik olimlardan I.Drojgina o'zining qarashlarida jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i va yer solig'ini<sup>12</sup> birlashtirib ko'chmas mulk solig'ini undirishni joriy etishni taklif qilgan. Bunda soliqlarni obyekt nuqtai nazaridan qaralmasdan umumiy mulk sifatida soliqqa tortish mexanizmini yaratishga va soliqqa tortish usullarini yanada oson undirish tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirish belgilangan bo'lsa, E.Mixina esa o'zining qarashlarida ko'chmas mulk solig'ini joriy qilishning mahalliy byudjet

---

<sup>9</sup> Делягин М. Г. Как самому победить кризис. Наука экономить, наука рисковать: простые советы!-М.: АСТ: Астрель, 2009. - 477 с. (Красная обложка) ISBN 978-5-17-058456-7

<sup>10</sup> Винокуров М.С., Динамика изменения МРОТ в России с 2000 по 2009 год // Моя зарплата в России. URL: <http://www.mojazarplata.ru/main/minimumwages/mrot-2000-2010>.

<sup>11</sup> Аронов А.В., Кашин В.А. Налоги и налогообложение. М.: Экономистъ, 2004. 560 с.

<sup>12</sup> Дрожжина И.А. Формирование систем налогообложения объектов недвижимости на основе дифференцированного подхода. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати. -О.: 2005. -6.12.

daromadlari bazasiga ta'sirini tahlil qilib tegishli tavsiyalarni bergan<sup>13</sup>. Bunda asosan soliq siyosatini ishlab chiqish mahalliy hokimiyatning zimmasiga yuklagan holda o'z daromadlari to'g'risida hududlarning o'zlari bosh qotirishlari kerakligini taklif qilib, bunda tumanlardagi qoloq hududlarga kapitalni yo'naltirish lozimligini ilmiy qarashlarida asoslab bergan. Xuddi shu fikrlarni yanada takomillashgan usullardan foydalangan holda T.Loginova o'zining ilmiy qarashlarida ko'chmas mulkni joriy qilish va uni amaliyotga joriy qilishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd etib o'tgan<sup>14</sup>. Bu hozirgi soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda va O'zbekiston hududidagi iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qo'l keladi.

A.Kuznetsov "Jismoniy shaxslarni shaxsiy daromadlarni soliqqa tortish tizimini isloh qilishda ko'pincha adolat tamoyili buziladi, soliq imtiyozlarining iqtisodiy asoslangan miqdorlarini aniqlash vositalaridan to'liq foydalanilmaydi, soliqlarning ijtimoiy yo'naltirilgan roli kam baholanadi, bu rivojlangan xorijiy mamlakatlar byudjetlarida etakchi o'rinni egallaydi. Jamiyatda amaldagi soliqqa tortish tartibi nafaqat soliq to'lovchilarning turli guruhlarini o'rtasidagi ijtimoiy tafovutni yumshatadi, balki aksincha, ijtimoiy va mulkiy cheklanish va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytiradi. Natijada soliq to'lovchilar va davlat manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik, soliq undirishning past darajasi mavjud bo'lib, bu amaldagi qonunchilikning buzilishi bilan bog'liq"<sup>15</sup> - deb hisoblaydi. Bu olimning fikrlarida soliq imtiyozlari va soliq stavkalarini to'g'ri adolatli tarzda tahlil qilgan holda, soliqqa tortish ma'muriyatchiligiga ahamiyat berilishini ta'kidlagan. Ammo hozirgi sharoitda bu soliq to'lovchi jismoniy shaxslar bilan davlat o'rtasida ziddiyatlarni bartaraf etishda davlat interaktiv xizmatlari orqali imtiyoz va soliq stavkalarini belgilashda ularga daromadlari va sharoitlaridan kelib chiqib tanlash huquqlari berilgan va bu muammolarni imkon qadar hal etish choralari ko'rilmoqda.

---

<sup>13</sup> Михина Е.В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диис. автореферати. - М.: 2005 й. б.-б.

<sup>14</sup> Логинова Т.А. Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диис. автореферати. -М.: 2018 й. -б. 7

<sup>15</sup> Кузнецов А.В. Перспективы изменения системы уплаты налога на доходы физических лиц // Налоговая политика и практика. 2008. № 8.

A.Seleznev, N.Dotsenkolarning fikriga ko‘ra<sup>16</sup> “Mahalliy byudjetlarning real moliyalashtirish taqchilligi muammosi bilan bog‘liq holda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish tizimida jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish - muhim makroiqtisodiy vazifa”, deb hisoblaydilar. I. Suxarev esa “Barcha darajadagi byudjet daromadlari manbalarini tubdan o‘zgartirish, byudjet mexanizmini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarni joriy etish tizimida jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish mexanizmini ilgari suradi”<sup>17</sup>. Bu olimlarni fikrlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, shuningdek, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning asosiy qismini jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, ya’ni mahalliy soliqlar orqali to‘playdi degan ilmiy qarashlarni muhokama qilgan. Shu bilan birga, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlarining moliyaviy bazasini yaratadi, soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyatini tartibga soladi, ularning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va investitsiya faoliyatiga bo‘lgan intilishini rag‘batlantiradi, narxlarga ta’sir ko‘rsatadi, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.V.Vaxobov va A.S.Jo‘raevlarning fikrlariga ko‘ra, jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo‘llanadi, ya’ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarni bir qismi qayta taqsimlanishi e’tirof etilgan<sup>18</sup>. Bu olimlarning fikriga ko‘ra tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini qo‘llash muhimligini ilgari surganlar, lekin bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq stavkasini bir pag‘onali stavkada qo‘llash samarali natijalarga erishishga xizmat qilmoqda, chunki aholini oson va bir xilda hisoblash usulidan foydalanish qulay mexanizmlarni amaliyotga tadbiiq etishga va bir xilda soliq solish tizimini

---

<sup>16</sup> Селезнев А., Доценко Н. Доходный потенциал регионов и его общегосударственное значение / Экономист. - 2006. - N 9. - С. . 12-22.

<sup>17</sup> Сухарев И.Р., Сухарева О.А. Учет налога на прибыль. М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2020 г.

<sup>18</sup> Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. “Soliqlar va soliqqa tortish” «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2009. 448 b.



yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratiladi. Yana bir iqtisodchi olimlaridan A.X.Toshqulov fikricha<sup>19</sup> jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda qishloq xo'jaligi sohasiga alohida e'tibor qaratib, soliqqa tortish doimiy ravishda isloh qilinmoqda, lekin bu uning mukammalligini kafolatlamaydi. Soliq qonunchiligining beqarorligi, murakkabligi va noaniqligi, investitsiya, innovatsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun soliqlarni undirish mexanizmlaridan kam foydalanish va ishlab chiqarishni kengaytirish soliq tizimining qishloq xo'jaligida o'z vazifalarini to'liq bajarishga imkon bermaydi.

M.Almardanov, N.Qo'zieva, Sh.Rajapovlarning ilmiy tadqiqotlarida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni xalqaro munosabatlari, shuningdek, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishdagi muammolar va ularni echimlari to'g'risida o'z fikrlarini bayon etganlar<sup>20</sup>. Bu olimlarni fikri bo'yicha jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda xalqaro andozalar yordamida aniq belgilangan mexanizmlarni ishlab chiqish kerakligini ilgari surganlar, bu asosan mamlakatlarni o'z ichki urf odatlari va tarixiy kelib chiqishiga zid fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun mamlakat ichida o'zining urf odatlaridan, tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan holda takliflar muhokama qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Olimlarimizdan D.Daminov ta'kidlashicha, yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish maqsadida yagona soliq to'lovini joriy etilishi faqat kichik tadbirkorlik subyektlari (asosan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar inobatga olingan) uchungina bu soliqni amal qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, muallif savdo faoliyati (ulgurji va chakana) uchun yagona soliq to'lovini emas balki, qat'iy belgilangan soliqni tatbiq qilinishi lozim, degan xulosaga keladi. Bu bilan kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirilishi va faoliyat turi bo'yicha soliqqa tortishdagi adolatlilik tamoyilini mustahkamlashga erishilishini ta'kidlagan<sup>21</sup>. Bu qarashlarda

---

<sup>19</sup> Тошқулов, А. (2020). Налоговые льготы для сельского хозяйства Узбекистана в период пандемии коронавируса. Экономика И Образование, 1(3), 122–126. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economu\\_education/article/view/4408](https://inlibrary.uz/index.php/economu_education/article/view/4408)

<sup>20</sup> Альмарданов М.И., Қўзиева Н.Р., Ражапов Ш.З. Солиққа тортишнинг халқаро андозалари. Ўқув қўлланма. – Т.: Fan va texnologiya, 2019. – 216 б.

<sup>21</sup> Даминов Д. Ўзбекистон солиқ тизимида тўғри солиқлар ва уларни ҳисоблаш механизмини такомиллаштириш: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. – Тошкент, 2010.

jismoniy shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan tartibda to'lanadigan soliqlar bo'yicha tanlash huquqi inobatga olinmagan. Chunki har bir o'z tadbirkorlik faoliyatini yangidan yuritayotgan jismoniy shaxslarda soliq rejimlarini tanlash huquqini yaratilishi ularga qulayliklarni olib keladi va o'z faoliyatlarini o'zi tanlagan yo'nalishda burilish qilishga imkoniyati mavjud bo'ladi. A.Musagalievning taqiqotlarida esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlar miqdori to'lig'icha mahalliy byudjetga o'tkazilishi alohida ta'kidlanib o'tilgan. Bu o'z navbatida mahalliy byudjetning daromadlar qismi oshishi va hududlarni rivojlanishiga alohida e'tiborini qaratgan<sup>22</sup>. Bu tadqiqotchining fikricha faqat mahalliy soliqlarni takomillashtirishga ahamiyat berilgan. Bu holatda hududlarni bir maromda rivojlantirishga imkoniyat bo'lib, soliq stavkalarini belgilashda adolatlilik tamoyillarni tabaqalashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bog'liq holda qarorlar qabul qilish va maqsadli soliq imtiyozlarni qo'llash bilan soliq tushumlari muntazam amalga oshirilib boriladi.

M.Usmanova, I.Yuldashev, A.Bozorovlar ilmiy izlanishlarida esa jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishning afzallik jihatlari, soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini mamlakatimiz bo'yicha joriy etish bilan bog'liq muammoli jarayonlarni o'rganishga qaratilgan<sup>23</sup>. Bu takliflaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini pasaytirish, yagona stavkani joriy etish, soliqqa tortilmaydigan minimumni belgilash, ijtimoiy xarajatlarni chegirish kabi yengilliklar qo'llanilishi ta'kidlangan. Faqat jismoniy shaxslarni deklaratsiyalash asosida soliqqa tortish tizimi bilan emas balki to'lov manbaida ushlab qolish, shuningdek, soliq agentlarini faoliyatini ham inobatga olish zarur. S.Xudoyqulov o'z tadqiqotlarida "Ekonometrik usullar orqali davlat byudjeti

---

<sup>22</sup> Масағалиев А. Минтақа бюджет даромадларини шакллантиришда юридик шахсларни солиққа тортиш механизмларининг самарадорлигини ошириш йўллари. Фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТМИ, 2019. – 31 б.

<sup>23</sup> Усманова М. Жисмоний шахсларнинг даромадларини декларация усулида солиққа тортишни такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2011. – 23 б., Юлдашев И. Жисмоний шахслар даромадини солиққа тортишда умумдеklarациялаш тизимини жорий этиш масалалари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2002. – 22 б., Бозоров А. Декларация асосида солиқ солинадиган даромадлар ва уларни солиққа тортишни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т., 2019.

jami daromadlarining 2018-2023-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan"<sup>24</sup> bo'lsa, A.Agzamov (2019) "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini 2019-2023-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan". Shu bilan birgalikda Sh.B.Bobayev "Byudjetga soliq tushumlarini ehtimolli kamayishiga olib keluvchi soliq riskini indentifikatsiyalash, baholash tartibi ehtimolli va bilvosita (sifat) yondashuvlari asosida takomillashtirish"<sup>25</sup> yuzasidan o'z takliflarini asoslagan. Ushbu olimlarning fikriga ko'ra, soliqlarni yig'ish mexanizmlarini yaratish va soliqlarni prognoz qilish orqali soliq xatarlarini tahlil qilish bo'yicha belgilangan normalarni ishlab chiqish zarur. Lekin jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq qarzdorligini paydo bo'lishini oldini olish va ularni undirish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, soliq xizmati organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni yanada soddalashtirish va shuni hisobiga soliq tushumlarini ko'paytirish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflar batafsil fikrlar to'liq tahlili ko'rsatib berilmagan. Bundan tashqari A.Adizov, O.Abduraxmanov, Sh.Qiyosov, M.Sabirovlarning ilmiy qarashlarida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyoti va soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirishga oid masalalarni ko'rib chiqqanlar<sup>26</sup>. Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida soliq to'lovchi jismoniy shaxslar to'lovlarni amalga oshirishda to'lov qobiliyati va uni undirishda duch keladigan muammolardan kelib chiqib soliq to'lovchiga bo'lib-bo'lib to'lash va ushbu to'lovlarni keyinchalik foizlar asosida bedjetga moliyaviy qaytarishlar orqali amalga oshirish mexanizmlari to'liq keltirib o'tilmagan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etmasada biroq davlat byudjetini

---

<sup>24</sup> Худойкулов С. К., Прогноз бу – башоратми? "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2018 йил

<sup>25</sup> Бабаев Ш.Б., Жисмоний шахсларнинг даромадларини солиққа тортишнинг хорижий тажрибаси ва унинг афзалликлари, "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2016 йил

<sup>26</sup> Адизов А. Жисмоний шахслардан олинадиган солиқлар тизимини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2004. – 21 б. 15., Абдурахмонов О. Жисмоний шахслардан олинадиган солиқлар тизими ва уни такомиллаштириш масалалари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ДЖҚА, 2005. – 42 б., 17., Қиёсов Ш. Жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортишни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Т.: ТМИ, 2019. – 30, Сабилов М. Даромадларни солиққа тортиш механизминини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Т.: ТМИ, 2019. – 66 б.

shakllantirishda o‘zining o‘rniga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘z takliflarini amaliyotga tadbiq etishda hissalarini qo‘shganlar. Asosan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi azaldan mavjud bo‘lib iqtisodiy soha olimlari uni soliqqa tortish bo‘yicha turli xil qarashlarini ifoda etib kelganlar.

Umumiy tartibda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlarning qarashlarida aholining ijtimoiy kam daromad oladigan qatlami yetarlicha inobatga olinmagan deb hisoblaymiz va bizning fikrimizcha biz soliqlarni undirishda alohida “undiruv” va “soliqlarni undirish” tushunchalariga alohida ta’rif keltirib, shu asosida o‘z fikrlarimizni berib o‘tganmiz. Bunda **undiruv** – soliq qarzi, hisoblab yozilgan penya va qonunlarni buzganlik uchun qo‘llangan jarima sanksiyalarining butun summasi bo‘yicha majburiyatni bajarish hisoblansa, **jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish bu**<sup>27</sup> - iqtisodiy nuqtayi nazardan, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmi sifatida soliq imtiyozlari hisobini yuritish, qarzdorliklarni normativ-huquqiy hujjatlar asosida qisqartirish choralarini ko‘rish va soliqdan tashqari tushumlarning o‘sishi uchun qo‘shimcha zahiralarni topish hamda mahallalarda hokim yordamchilarini keng jalb qilish orqali nafaqat mahalliy byudjetlarni to‘ldirish, balki zamonaviy huquqiy makonni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar, turli ijtimoiy yo‘naltirilgan shahar dasturlari va ularni amalga oshirish masalasi hisoblanadi. Bu tushunchalarni aniq qilib keltirib o‘tishimizdan maqsad, ilmiy tadqiqot ishimizdagi xulosalardan kelib chiqib hozirgi kunda olib borilayotgan soliq-byudjet siyosatiga mos ravishda tahliliy natijalarga erishishga va asosiy soliqqa tortish kategoriyalari sifatida ilmiy yangiliklarni ochib berishga xizmat qiladi.


Barchamizga ma’lumki, soliq iqtisodiy va huquqiy kategoriyadir. Har qanday kategoriya singari, soliq ham o‘zaro bog‘langan majburiy elementlar to‘plami bilan belgilanadigan o‘z yaratilish mantig‘iga ega. Bu elementlar, mustaqil soliq elementlarini ajratish soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilari uchun juda zarurdir, chunki aynan ular (elementlar) har qanday soliq majburiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi va ularning qonun hujjatlarida rasmiylashtirilishi to‘lash

---

<sup>27</sup> Muallif tomonidan ta’rif ishlab chiqilgan.

talabi qonuniylikning ajralmas shartidir. Davlat tomonidan soliq va soliq to'lovchining adekvat majburiyati mavjudligi hisoblanadi.

Har bir mamlakat ushbu elementlar guruhlarini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, turli elementlar guruhlarining shakllanishining manbai jahon soliq nazariyasi va amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan universal elementlar majmui ekanligini ta'kidlash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Aynan ularning umumiylikida ushbu uch guruh elementlarining barchasi soliqning ichki tuzilishini va soliq majburiyatining tuzilishini to'liq ochib beradi (1.1-rasm).




**1.1-rasm. Soliqning turli elementlari munosabati<sup>28</sup>**

E'tibor bering, turli elementlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ushbu uch guruhning har bir elementi o'ziga xos huquqiy yukni ko'tarishi va soliq jarayonini soddalashtirishda ma'lum rol o'ynashi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi tomonidan biron bir elementni e'tiborsiz qoldirish soliq majburiyatini aniqlash tartibini rasmiylashtirishni sezilarli darajada ta'sir qilishi va soliq ma'muriyati jarayonini murakkablashtirishi mumkin, shuning uchun ideal holda har qanday soliq qonunchiligi soliqqa tortishning universal elementlarining butun majmuasini o'z ichiga olishi kerak. Soliqning turli elementlari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq idrok etish uchun biz ularni

<sup>28</sup> Muallif ishlanmasi

1.2-rasmda “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni tuzilishi” shaklida taqdim etamiz («1.2-rasmga qarang»)



**1.2-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni tuzilishi<sup>29</sup>**

Bunda soliq majburiyati – bu soliq huquqiy munosabatlari bo‘lib, unga ko‘ra soliq to‘lovchi ish haqini to‘g‘ri hisoblash, soliq hisobini yuritish, soliqlarni to‘liq va o‘z vaqtida to‘lash uchun barcha zarur talablarni bajarishi shart, davlat esa

<sup>29</sup> Muallif ishlanmasi


vakolatli organlar tomonidan bu majburiyatni bajarishni talab qilishga haqlidir. Soliq to'lovchi (soliq subyekti) soliqning majburiy elementi bo'lib, qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lash majburiyatini olgan shaxsni tavsiflaydi. Soliqqa tortish predmetida esa soliq to'lashning usul va uslubiylariga ahamiyat qartilib unda qanday tartibda soliq undirilishi to'g'risida normativlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, shu soliqqa tortish usullari yordamida soliq obyektleri aniqlanadi va ularni hisobga olish tizimi shakllantiriladi.

Hisobga olingan soliq obyektini soliq hisobi yuritilib unda soliq stavkasi shkalasi yordamida soliq birligi aniqlanib, soliq bazasini aniqlash uchun soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Shu asnoda, soliq stavkasi qo'llanilgan holda soliq to'lov summasi hisob-kitob qilinadi. Soliq to'lovchilarga soliq to'lash tartibi, hisoblangan soliq, muddatlari ko'rsatilgan holda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yoki to'lov xabarnomalari orqali etkaziladi. Soliq xizmati organlari esa mazkur to'lov manbai va soliqqa tortish shakllari orqali (deklaratsiya, to'lov manbai orqali va kadastrli usullar) tahliliy ma'lumotlarni tayyorlab byudjetga undirish choralari ko'riladi.

Bizga ma'lumki, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai sifatida soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladi. O'z navbatida fuqarolar jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliqlarni, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar esa yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliqlarni to'laydilar. Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan soliqlarni o'z vaqtida to'lashlari shart. Soliq to'lovchilarning byudjet oldidagi qarzini to'lamasligi iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq va yig'implarni to'lamaslik birinchi navbatda davlat byudjeti daromadlarining pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda, davlat tomonidan sarflanadigan xarajatlarni qoplanishi uchun yig'iladigan mablag' boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Avvalambor soliqlarni undirishda ularni undirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratsak. 1.3-rasmda soliqlarni undirish mexanizmi tarkibi keltirilgan. Ushbu

1.3-rasmda soliqlarni undirish ikkita asosiy kategoriyaga bo‘linadi, yuridik va jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish mexanizmi. Ushbu ikkita shaxs o‘rtasida soliqlarni undirishda uzviy bog‘liqlik va farqlar mavjud. Yuridik shaxslardan soliq undirish mexanizmidagi faqat hisobvaraqlar fakturalar asosida va bank hisobraqamlari orqali amalga oshirilsa, jismoniy shaxslarda esa naqd pul shaklida kassalar orqali yoki plastik karta hamda mobil ilovalar orqali to‘lov imkoniyatlari mavjud.




### 1.3-rasm. Soliqlarni undirish mexanizmi tarkibining guruhlanishi<sup>30</sup>

Bu jarayonda e‘tiborni ko‘proq jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarga qaratish lozim bo‘ladi. Chunki hozirgi kunda soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga qanchalik imkoniyatlarni ya‘ni soliq ma‘muriyatchiligini takomilashtirish orqali soliq to‘lovchilarni bevosita to‘lov mexanizmlariga e‘tibor bermas ekanmiz ulardan undirish imkoniyati bo‘la turib, to‘lovlarni vaqtida bajarishga sharoit yaratilmas

<sup>30</sup> Muallif ishlanmasi



ekan, soliq to'lovchilarda boqimandalik kayfiyatini oshishiga olib keladi. Shuning uchun soliqlarni undirish mexanizmi tarkibidagi soliq to'lovchilarni guruhlarga ajratish muhimligi va u orqali soliq xizmati organlarining munosabatlari turli yo'nalishlarda olib boriladi. Bu asosan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga xizmat qiladi.



**1.4-rasm. Jismoniy shaxslarni soliq majburiyatining bajarilishini ta'minlash usullari<sup>31</sup>**

Soliqlarni undirish mexanizmidagi jismoniy shaxslar undirish mexanizmidan yuridik shaxslar undirish mexanizmgacha o'tish tanlovi majud bo'lib unga ko'ra hisobot yil tugaganda yana tanlovni o'zgartirish imkoniyatlari mavjud. Bu tizimda ishlashda soliq to'lovchilarga qulaylik yaratilgan bo'lib, bunda soliq rejmlarini o'zgartirishga ya'ni bunda moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlarini ko'paytirishga yoki investitsiya kiritishga imkoniyat yaratilgan bo'ladi.

Soliqlarni undirish mexanizmi tarkibini aniqlashtirganimizdan keyin asosan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishda soliq majburiyatini bajarishni

<sup>31</sup> Muallif ishlanmasi.

obyekt va subyektlar bo'yicha ta'minlash usullari aniqlanadi («1.4-rasmga qarang»).

Yuqorida keltirilgan rasmda soliq majburiyatining bajarilishini obyektlar bo'yicha tahlil qilganimizda mol-mulk garovi, kafillik, bank kafolati, penyalar, bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarning to'xtatilishi va soliq to'lovchining mol-mulkini xatlash bilan ta'minlanishi mumkinligi ko'rsatilgan<sup>32</sup>.

Soliq to'lovchining soliq majburiyatini bajarish bo'yicha ta'minlash chorasi sifatida mol-mulkni xatlash, soliq to'lovchining arizasiga ko'ra<sup>33</sup> qimmatli qog'ozlar uyushgan bozorida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlarning garovi yoki soliq Kodeksida<sup>34</sup> nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan boshqa mol-mulk garovi bilan soliq Kodeksida<sup>35</sup> nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan uchinchi shaxsning kafilligi bilan almashtirilishi va soliq Kodeksida<sup>36</sup> nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirilgan bank kafolati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq majburiyatlarini bajarilishi jarayonlarida soliq va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorligi yuzaga kelishi mumkin. Bunda soliq va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorligining paydo bo'lishiga asosiy sabab, soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyati pasayishidir. Shu sabablar bartaraf etilsa iqtisodiyotda muvozanatni saqlab turish mumkin. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyot jamiyatning barcha sohalariga zanjiriy bog'langanligi sababli butun jamiyatga ijobiy ta'sir etadi.

Soliqlarni undirilmaslikka olib keluvchi asosiy sabablar va ularni echimini tahlil qilganimiz yuqorida keltirilgan 1.5-rasmdagi sabablardan yana boshqa bir necha sabablar mavjud. Masalan, jismoniy shaxslarni ya'ni soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatini pasayishini aytib o'tishimiz mumkin.

---


<sup>32</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/Солиқ Кодекс/106-модда

<sup>33</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/Солиқ Кодекс/107-модда

<sup>34</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/Солиқ Кодекс/107-модда

<sup>35</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/Солиқ Кодекс/108-модда

<sup>36</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/Солиқ Кодекс/109-модда




**1.5-rasm. Soliqlarni undirishda soliq qarzdorligi paydo bo'lishini asosiy sabablarining guruhlanishi**<sup>37</sup>

Har qanday salbiy holatlar korxonaga to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotga har tomonlama katta ta'sir etar ekan, avvalo, korxonaning doimiy, uzluksiz ishlashi uchun qulay shart-sharoit yaratib berilishi lozim. Har qanday harakatning ta'siri, shu harakatga nisbatan aks ta'sir ko'rsatmay

<sup>37</sup> Muallif ishlanmasi.

qolmaydi. Yuridik va jismoniy shaxslarni qarzdorlikka olib keluvchi sabablar bor ekan, xuddi shuningdek, jismoniy shaxslarning byudjetdan soliqlarni undirish majburiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud.

Yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lamasa, yuqorida keltirilgan omillardan boshqa omillarga ham ta'sirini 1.6-rasmda qisqacha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Soliq va yig'implarni undirilishiga ta'sir qiluvchi omillar asosan yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq va yig'implar bo'yicha yig'iluvchanlik darajasi pasayib, davlat byudjeti daromadlari kamayadi, oqibatda davlat o'zining majburiyatini o'z vaqtida bajara olmasligiga, davlatning ichki va tashqi himoyasi zaiflashishiga, aholining davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinadigan qismi ma'lum miqdorda ijtimoiy himoyasiz qolishiga, davlat o'z siyosatini to'liq yurgiza olmasligiga, aholining davlatga bo'lgan ishonchi kamayishiga, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlari ortishi sababli chet el investitsiyalarini jalb qilish kamayadi, mavjud investitsiyalar ham sekin asta chiqib keta boshlashiga, iqtisodiyotning rivojlanishi boshqa davrlarga nisbatan orqada qolishiga, buning natijasida aholining real daromadi kamayadi, hamda turmush darajasi pasayishiga esa, jinoyatlarning ko'payishiga olib keladi.



### 1.6-rasm. Soliqlarni undirish majburiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar<sup>38</sup>

Umuman olganda, soliq to'lovchilar tomonidan to'lanmagan har qanday mablag' davlatning iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hozirgi kunda asosiy e'tibor soliqlarni undirishda zamonaviy axborot bazalaridan foydalangan holda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Soliq tizimida soliq yig'ishning joriy etilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish mexanizmi paydo bo'ldi, unda asosiy e'tibor soliq qarzlarni undirish, bank hisobvaraqlaridagi mablag'lardan soliq yig'ishning umumiy qoidalariga qaratiladi. Shuningdek, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining iqtisodiy jarayonini muntazam ravishda davom ettirishi uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lari bo'lishini taqozo etadi va bu alohida yakka tartibdagi tadbirkorlarni bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobidan undirilishiga qaratilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarini moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun soliq qarzdorligini paydo bo'lishi xo'jalik

<sup>38</sup> Muallif ishlanmasi.

subyektiga salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Soliqlarni undirish belgilangan muddatda to‘lanmagan yoki to‘liq to‘lanmagan taqdirda bu qarzni undirish ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Soliq undirish majburiyatiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchidan va boshqa shaxslardan undiriladi.

Soliq to‘lovchining soliqlar bo‘yicha soliqlarni undirishga doir majburiyati bank kafolati, uchinchi shaxsning kafilligi yoxud mol-mulk garovi bilan ta‘minlangan bo‘lsa, soliq to‘lovchi soliqlar bo‘yicha soliqlarni undirish yoki to‘liq to‘lamagan taqdirda, soliq organi soliqni to‘lanmagan summasini tegishlicha bank kafolatini bergan bankdan, kafildan yoxud garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatidan undirilishi shart<sup>39</sup>.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni huquqiy asoslari sifatida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq 1991-yil 1-apreldan joriy etilgan.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra jismoniy shaxslarga yuridik shaxs maqomini olmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar kiritilishi belgilandi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i davlat byudjeti daromadining eng asosiy manbalaridan biri bo‘lib, u umumdavlat soliqlar tarkibiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga ko‘ra, 2019-yil 1-yanvardan mamlakatimiz soliq tizimiga qator muhim o‘zgarishlar kiritilib, ular takomillashtirilmoqda. Xususan, soliq yuki va soliq turlari kamaytirildi, ayrimlari bekor qilindi, soliq tizimi soddalashtirilmoqda. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha ham 2019-yil soliq qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritildi.

**Umumiy xulosa sifatida,** soliqlarni undirish jarayonida soliq elementlarini guruhlash orqali, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tarkibini

---

<sup>39</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон

shakllantirish, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq yig'ish mexanizmining tuzilishi o'rtasidagi farqni aniqlash soliq to'lovchilarning hisob siyosatini to'g'ri yo'naltirish uchun asos bo'lishi mumkin. Unda asosan jismoniy shaxslar soliq xizmati organlarida tashkil qilingan undirish mexanizmini qulayliklari mavjudligi, unda bir vaqtning o'zida hisoblangan soliq majburiyatlarini bajarishi, yuzaga kelgan soliq qarzlarini kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, shuningdek, undirishda vaqt me'yorlarini tahlil qilishni taqozo etadi.

### **1.2-§. Soliqqa tortish tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining bosqichlari**

Soliqlar davlatning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq, ya'ni davlat o'z vazifalarini bajarish uchun soliqlardan moliyaviy manba sifatida foydalanadi. Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - davlat byudjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umumdavlat soliqlar tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Bugungi kunda jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar va yig'implar byudjet daromadlarining qariyb 15 foizini tashkil etmoqda.

Soliq kodeksiga ko'ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi. Soliq maqsadlarida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi. Soliq to'lovchilar soliq va yig'implarni to'lashi shart bo'lgan jismoniy shaxslardir.

Aholining soliq to'lovlari bo'yicha ilk soliq yig'imi paydo bo'lishi tarixi miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda qadimgi Misr davriga to'g'ri kelmoqda. Qadimgi misr olimlarining fikricha Misr Fir'avnlari aholini etishtirgan hosilning beshdan bir qismini soliq sifatida to'lashga majbur qilgan<sup>40</sup>. Tarixda soliq amaliyoti yunon tsivilizatsiyasida ham rivojlangan. Bunda 1799-yilda tarixiy Aleksandriya

---

<sup>40</sup> Мунавваров З., Узбекистан и арабский мир: перспективы сотрудничества, Т., 1997; Махмудбеков Ш., Борба Египта за независимость, Т., 1992; Гиясов Б. Т., Мохаммад Хосни Муборак — политик и дипломат, Т., 1999; Гиясов Б., Хаса-нов Э., Дипломатия Египта, Т., 2001; Салохудинов Х. А., Фиръавнлар мамлакати, Т., 1992; Борисов Б. Т., Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта, М., 1991..

shahrining sharqiy hududidan topilgan «Rozetta yodgorligi» buning isboti hisoblanadi<sup>41</sup>. Shuningdek, miloddan avvalgi 196-yillarda Ptolomeylar sulolasida soliq munosabatlari amalda bo‘lgan holatlar tasvirlangan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar boy tarixga ega bo‘lgan bir nechta soliqlardan biridir. Ko‘pgina Evropa mamlakatlarida ushbu soliq turi 18-19-asr oxirlarida paydo bo‘lgan. Bu birinchi bo‘lib Angliyada -1842-yilda, Prussiyada - 1891-yilda va Frantsiyada - 1914-yilda shakllanishning ilk davrlari boshlangan<sup>42</sup>. Bu soliq tizimini rivojlanish bosqichlarini eng muhim dastlabki tarixi hisoblanib, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tamoyillarining ilk ko‘rinishlari shakllangan.

Evropa mamlakatlari ham soliq yig‘ishning noyob tarixiga ega va jun eksport solig‘i 1203-yilda Angliya qiroli Jon tomonidan kiritilgan. Bu paytlarda, ya’ni 1275-yilda Qirol Edvard sharobga soliq joriy qildi. Aslida, 1572-yilda Angliyada kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlash uchun kambag‘allarga soliq joriy qilingan. 1707-yilning 1 mayida Buyuk Britaniya tashkil etilgandan so‘ng, Angliya va Uelsda 1696-yilda paydo bo‘lgan pul taqchilligi muammosini bartaraf etish uchun yangi soliqlar ko‘rib chiqildi va tez orada daromad solig‘i g‘oyasi paydo bo‘la boshladi. Odamlar dastlab daromad solig‘ini to‘lashdan bosh tortadilar va ular ishlab topgan daromadlarining ma’lum bir qismini davlatga o‘tkazish individual erkinlikka tahdid deb hisoblashgan. Shu sababli, faqat 1842-yilda Buyuk Britaniyada doimiy ravishda daromad solig‘i joriy etildi. Qo‘shma Shtatlarda daromad solig‘ining joriy etilishi fuqarolar urushi tarixi (1861) bilan bog‘liq. Avraam Linkoln qo‘shma Shtatlar tarixida birinchi bo‘lib 1861-yil 5-avgustda shaxslarni davlatga daromad solig‘ini to‘lashga majbur qilgan qonunni imzoladi. Ushbu soliqlardan tushgan mablag‘ harbiy ehtiyojlar uchun sarflanadi deb taxmin qilingan. Xitoy birinchilardan bo‘lib soliq tartib-qoidalarini joriy etgan mamlakatlardan biridir. Davomida Tang sulolasi (618-907) va Song sulolasi (1127-1279), aholi bunga asoslanib ro‘yxatga olindi va soliqqa tortildi. Yig‘ilgan

---

<sup>41</sup> Мунавваров З., Узбекистан и арабский мир: перспективы сотрудничества, Т., 1997; Махмудбеков Ш.

<sup>42</sup> Налоговые системы зарубежных стран: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению «Экономика»: Учебник / Под ред. Алиев Б.Х., Мусаева Х.М. М.: Юнити-Дана , 2013.С.47.



mablag‘lar sug‘orish va transport uchun zarur bo‘lgan kanallarni qurish yoki shunga o‘xshash ijtimoiy loyihalardan tashqari armiyaga sarflandi<sup>43</sup>.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida O‘rta Osiyoning ko‘chmanchi sharoitida ko‘plab urug‘ va qabilalar qulay joy qidirib, er, suv, o‘tloqlar uchun kurashdilar. Ammo fors hukmdori Doro davrida birinchi marta doimiy soliqlar joriy etildi. Doro nafaqat o‘z mamlakatida, balki o‘zi bosib olgan mamlakatlarda ham soliq tizimini joriy qildi. Eronning qadimiy Persapoli shahridan topilgan uzoq ajdodlarimiz - baqtriyaliklar, xorazmliliklar, so‘g‘dlar va saklar tasvirlangan rasmlarda saklarning kiyimlari, Baqtriyaliklarning tuya va idish-tovoqlari, xorazmliliklarning xanjar, jangovar bolta, bilakuzuklar va podshohga olib boruvchi oti bo‘lgan. Bu ular to‘laydigan soliq turlari sifatida baholanadi<sup>44</sup>.

Keyinchalik Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni bosib olgach esa erlik aholi soliqlarni yunonlar tamoyili bo‘yicha to‘lay boshlagan, bunda soliqlar daromad solig‘i va ehsonlardan iborat bo‘lgan. Daromad solig‘i daromadning o‘ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan, sabab sifatida esa jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadi ko‘rsatilgan. 651-yildan boshlab, Markaziy Osiyo hududida arablar hukmronligi o‘rnatiladi. Bu davrda soliqqa tortish tizimi murakkablashgan va turli xildagi soliqlar paydo bo‘lgan. Masalan, zakot mol-mulkning 2,5 foizi miqdorida olinadigan soliq bo‘lib, kambag‘allar, etimlar va yo‘lovchilarga xayr-ehson berish maqsadida undirilgan, bunda er uchun xiroj solig‘i olingan. Juzyani musulmon bo‘lmagan fuqarolar (ozod erkaklar) to‘laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag‘allar va qullar bu soliqni to‘lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o‘ziga to‘qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Bundan tashqari, chorvadorlardan, hunarmandlardan va savdogarlardan soliqlar olingan<sup>45</sup>.

Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari “Temur tuzuklari”da ifodalangan: “Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solib

---

<sup>43</sup> Налоговые системы зарубежных стран: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению «Экономика»: Учебник / Под ред. Алиев Б.Х., Мусаева Х.М. М.: Юнити-Дана, 2013.С.32.

<sup>44</sup> Гиясов Б., Хаса-нов Э., Дипломатия Египта, Т., 2001

<sup>45</sup> Шахермайр Ф. Александр Македонский. — Ростов-на-Дону: Феникс, 1997. - 576 с. - ISBN 5-85880-313-X.

qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi"<sup>46</sup>. Bunda ham jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni stavkalarini oshirib yubormaslikka qaror qilgan.

Amir Temurgacha bo'lgan davrda soliq yig'uvchilarning ish haqi soliq to'lovchilar hisobidan bo'lgan. Shuning uchun ular qonunda ko'zda tutilmagan soliqlarni undirishga ham harakat qilar edilar. Amir Temur soliq undiruvchilarga xalqning ustiga yuk bo'lmasligi uchun ularga maosh tayinladi. Amir Temur davrida asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan xiroj va ushr soliqlari amal qilgan. Savdogarlar va hunarmandlar tamg'a yoki zakot to'lashgan, chegaradan o'tgan mollar hisobidan boj olingan. Bu soliqlar davlat xazinasining asosiy manbai hisoblangan<sup>47</sup>. O'zbek xonliklari soliq siyosatida shariat talablariga to'la rioya etgan deb bo'lmaydi. Zakot, ushr, fitr sadaqasi kabi to'lovlar, ba'zi mutaxassislar ta'kidlaganidek, soliq bo'lmay, balki bandaning moliy ibodatlari sanaladi. Konlardan, xazinadan, harbiy o'ljalardan davlat xazinasiga xums (beshdan biri) berilgan.

Xiroj esa o'rta asrlardan buyon yer solig'i sifatida olib kelingan. Bu soliqni undirishda yagona qat'iy tartib bo'lmagan. Xiroj solig'ining miqdorini davlat boshlig'i belgilab bergan. U tayyor mahsulot yoki uning qiymatiga teng pul shaklida undirilgan. Jizya solig'i musulmon bo'lmagan fuqarolar, ya'ni, zimmiylardan undirilgan. Jizya solig'ini voyaga etgan erkak zimmiylar to'lashgan. Buxoro xonligida shayboniylardan keyin davlat tepasiga kelgan ashtarxoniylar davrida ham mamlakatni, davlat xazinasini boyitish uchun soliqlarning turi va miqdori oshirilgan. Jumladan, xiroj, ixrojot, boj kabi soliqlar qatorida har xil kichik va katta soliqlar ham bo'lgan. Ayniqsa, Subhoniqulixon taxtga kelganida soliqlarning turi ko'paydi. Uning davrida etti yillik soliqlarni oldindan, bir yilda yig'ish bo'yicha maxsus

---

<sup>46</sup> Алихонтўра Соғуний Ҳабибулло Караматов. Нашр йили: 2020. Тили: Ўзбек (қир). Бетлар: 144. Нашриёт: Илм-зиё-заковат. ISBN рақами: 978-9943-6324-9-3.

<sup>47</sup> <http://temurtuzuklari.uz/uz>

farmon e'lon qilindi. Xonning bunday qarori aholini qiyin ahvolga solib qo'ydi va yanada qashshoqlashuviga sabab bo'ldi. Chunki mamlakatda asosiy soliq to'lovchilar dehqonlar, hunarmandlar, savdogaru chorvadorlar bo'lishgan. Aholi soliq to'lashdan tashqari mamlakatda uyushtiriladigan turli tadbirlarga, majburiy ishlarga jalb qilingan, qo'shimcha jarimalar ham solingan. Buxoro xonligida ham, boshqa joylarda bo'lgani kabi, xon marhamat ko'rsatgan va etakchi din peshvolari hamda xon imtiyoz bergan shaxslar barcha soliqlardan ozod qilingan<sup>48</sup>. Bunda soliq imtiyozlarini to'g'ri qo'llanilishini tartibga solish me'yorlari keltirib o'tilgan.

Xiva xonligida esa boj, jizya kabi soliqlar qatorida salg'ut, ag'ut, miltiq puli, tarozi puli, darvozabon puli, mushrifona kabi yigirmadan ortiq soliq va yig'imlar ham to'langan. Bundan tashqari aholi turli majburiyatlarni bajarishi lozim bo'lgan. Masalan, mulkdorlar ma'muriyatini boqish, harbiylarning vaqtincha to'xtashida ularning oziq-ovqati va boshqa harajatlari uchun yig'iladigan yig'imlar, suv ta'minoti bilan bog'liq majburiyatlar shular jumlasidandir. O'zbekiston 1998-yildan yangi soliq tizimi shakliga o'tgan bo'lib, unda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli soliq va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi joriy qilingan. Bu shunday soliqqa tortish tizimi bo'lib, unda kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish maqsadi qo'yilgan. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni rivojlanish va shakllanish xronologiyasi 1.1-jadvalda keltirilgan.

### 1.1-jadval

#### O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni huquqiy jihatdan rivojlanishining asosiy bosqichlari<sup>49</sup>

Yillar	Normativ-huquqiy hujjatlar	Asosiy elementlari	Qisqa tavsifnomasi
29.08.1996-yil	O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi	1-modda. Fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari.	Fuqarolar ( <b>jismoniy shaxslar</b> ) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega

<sup>48</sup> Холиқулов А. “Чироқчи беклигининг Бухоро амирлиги сиёсий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни” (XIII-XX аср бошлари). Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. (Республика илмий-назарий анжумани материаллари), Т., 2001, 198-бет.

<sup>49</sup> Muallif ishlanmasi.

		<p>3-Bob. Fuqarolar (Jismoniy shaxslar).  16-modda. Fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi  Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, Fuqarolik Kodeksining qoidalari barcha fuqarolarga nisbatan qo'llaniladi.</p>	<p>bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar.</p>
29.08.1997-yil	<p>Davlat soliq xizmati to'g'risidagi Qonun</p>	<p>3-modda. Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tarkibida hududiy bo'linmalarga ega bo'lgan: soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va <b>jismoniy shaxslarning</b> nazorat hamda hujjat asosidagi tekshiruvini va moliya-xo'jalik faoliyati taftishini amalga oshiruvchi maxsus nazorat-taftish bo'linmasi, shuningdek davlat soliq xizmati organlarida rejim va xodimlar bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linma tuziladi.</p>
07.01.1999-yil	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llash sohasini kengaytirish to'g'risida"gi qarori</p>	<p>Qarorning 5-bandi bo'yicha jismoniy shaxslarga identifikatsiya raqam berilishi to'g'risida.</p>	<p>Identifikatsiya raqami soliq to'lovchilarga — yuridik (jismoniy) shaxslarga ular o'zlari joylashgan (yashaydigan) joydagi davlat soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazish shakllarini to'ldirgandan keyin beriladi. Ro'yxatdan o'tkazish shakllari ma'lumotlari davlat soliq inspeksiyasida kompyuterga yoziladi, elektron pochta orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga beriladi. Davlat soliq qo'mitasida</p>

			identifikatsiya raqamini berishda takrorga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida har bir soliq to‘lovchining ma’lumotlari tekshiriladi.
05.09.2002-yil	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-3127-sonli	Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida	Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimini joriy etish belgilangan.
20.04.2018-yil	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5421-sonli	Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aktsiyasini o‘tkazish to‘g‘risida	Fuqarolarning qonunchilikda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida ajratilgan yer uchastkalarida yakka tartibda uy-joy qurish huquqi belgilash tartibi.
31.12.2019-yil	O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi	30-modda. Jismoniy shaxslar to‘g‘risida me’yor keltirilgan.	O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxslardir deb belgilangan.
07.06.2019-yil	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5739-sonli	Tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	Tadbirkorlik subyektlari - jismoniy shaxslar faoliyatini to‘xtatishda ariza beruvchi tomonidan davlat soliq xizmati organining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzi yo‘qligi to‘g‘risidagi xulosasini olish talab etilmasligi tartibi belgilangan.
30.12.2021-yil	O‘zbekiston Respublikasi Qonuni	2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida	Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida va byudjetga yo‘naltirilishi bo‘yicha me’yor keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan<sup>50</sup>. Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10 oktyabrdagi Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risidagi PF-2086-sonli farmoni qabul qilingan va 1998-

<sup>50</sup> 1998 йил 15 апрелдаги “Кичик корхоналар учун ихчамлаштирилган солиққа тортиш тизимига ўтишни қўллаш тўғрисида”ги 159-сонли қарори

yildan 2005-yil 1-iyulgacha kichik korxonalar va mikrofirmalar yagona soliq va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni to‘lar edi. 2005-yil 1-iyuldan boshlab amaldagi yagona soliq va byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va maktab ta‘limini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy ajratmalar o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy qilingan.

Kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimini qo‘llashning huquqiy asoslari bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi “Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida”gi 159-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-2086-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3620-sonli Farmoni hisoblanadi. Soliqlar iqtisodiyotning nisbati, sur‘ati va faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlarga ta‘sir etgan holda davlat byudjeti daromadlarini jalb qilishning oddiy vositasidan allaqachon butun reproduktiv jarayonning asosiy tartibga soluvchi vositasiga aylandi.

Samarali soliq tizimi va davlat soliq xizmatining yaxshi muvofiqlashtirilgan faoliyati keng ko‘lamli islohotlar nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining keng ko‘lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlar dasturi bilan belgilangan. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi, bu erda soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantirish choralarini kengaytirish borasidagi ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi<sup>51</sup>. Bu ham jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan huquqiy asoslardan biri hisoblanadi.

---

<sup>51</sup> <https://lex.uz/acts/3107036>

Ushbu ustuvorliklarni amalga oshirishda muhim dasturiy amal bo'lib, soliq tizimini tubdan isloh qilishni, shu jumladan soliqlar va yig'implarni kamaytirishni, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilishni nazarda tutadigan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini qabul qilishdir. Kontsepsiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida ish haqi fondiga soliq yukini kamaytirish, umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliq to'lovchilarga soliq solishni takomillashtirish, soliq siyosatini takomillashtirishning soddalashtirilgan soliq tizimi to'lovchilariga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirishni ko'rishimiz mumkin.

2019-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati tez fursatlarda o'zining samarasini ko'rsatdi. Jumladan, ish haqi fondiga soliq yuki barcha fuqarolar uchun shaxsiy daromadlarga 12% yagona soliq stavkasini joriy etish va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini bekor qilish orqali kamaytirildi. Aylanmadan olinadigan soliqlar davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bekor qilinishi hisobiga optimallashtiriladi. Soliqqa tortish rejimini aniqlash mezonlari o'zgartirildi va o'tgan yilgi yalpi aylanmasi (daromadi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraga etgan korxonalar soddalashtirilgan rejimdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishlari lozimligi belgilab berildi. Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash tartibi joriy etildi. Bunda yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi 5 foizdan 2 foizgacha pasaytirildi.

Soliqlarni undirishda asosan soliq organlari xodimlarining ham vaziflari va majburiyatlari mavjud. Davlat soliq xizmati organlari zimmasiga soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish, soliqlarni to'g'ri hisoblab chiqish, soliqlarni to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish, soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish, soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish, soliqqa tortiladigan obyekt va subyektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash va soliq bo'yicha

huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish majburiyatlari yuklatilgan<sup>52</sup>. Bunda soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari va majburiyatlari alohida ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, soliq yig'ishni amalga oshirishda soliq organlari va soliq siyosatining roli juda muhimdir. Amaliyotda soliq organlari davlatning soliq siyosatini ro'yobga chiqarishda asosiy organ sifatida faoliyat ko'rsatadi. Avvalambor, soliq to'lovchilarga soliqlarning ijtimoiy ahamiyati va mohiyati to'g'risida to'liq, keng hamda doimiy ravishda tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Shu bilan birga, soliqlarni hisoblash va to'lash mexanizmini tushuntirish lozim. Soliqlar esa uni to'lovchilariga tushunish, soliqlarni hisoblash sodda bo'lishi va to'lov muddati soliq to'lovchiga qulay bo'lishi lozim. Ana shunda soliq va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorligi vujudga kelishi oldi olinadi. To'lov qobiliyatining pasayib borishi korxonani iqtisodiy jihatdan og'ir holatga, ya'ni korxonani debitor qarzdorligi kreditor qarzdorligidan kam bo'lib oxir oqibatda korxonani bankrotlikka olib borishi mumkin. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorligini paydo bo'lishiga bog'liq sabablarni ikkiga bo'lishimiz mumkin:

- soliq to'lovchiga bog'liq bo'lgan sabablar
- soliq to'lovchiga bog'liq bo'lmagan sabablar.

Bunda soliq to'lovchiga bog'liq bo'lgan sabablar korxonalarni boshqarishdagi xato va kamchiliklar, biznes rejaga asosan ishlamaslik, ishlab chiqarishning rentabelligini pasayishi, bozorda korxonani ishlab chiqargan tovarlarga talabning pasayishi, korxonalarining debitor qarzdorligini ortishi, to'lov qobiliyatining pasayishi hisoblanadi.

Soliq to'lovchiga bog'liq bo'lmagan sabablar esa, nosog'lom iqtisodiyot, soliq yukining ko'payishi, soliq yukining notekis taqsimlanishi, aholining daromadlik darajasi pasayishi, ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi resurslarning qimmatlashuvini keltirishimiz mumkin. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha boqimanda qarzdorlikning paydo bo'lishiga bog'liq sabablarni kengroq ko'rib chiqamiz.

---

<sup>52</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ хизмати тўғрисидаги Қонун./Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 12.03.2022 й., 03/22/758/0207-сон



Soliq to'lovchiga bog'liq bo'lgan sabablar bu – soliq to'lovchilarni boshqarishdagi xato va kamchiliklaridir. Bunda soliq to'lovchilarga qancha qulayliklar yaratilmasin, boshqaruvdagi xatolar soliq to'lovchilarni soliq to'lovi qobiliyatsizligiga olib keladi. Soliq to'lovchi, avvalambor, o'zi boshqarayotgan korxonada haqida to'liq ma'lumotga, ya'ni korxonada qanday mahsulot ishlab chiqarishi, qancha vaqtda va qancha miqdorda ishlab chiqarishi, mahsulotning sifati hamda bu mahsulotning boshqa mahsulotlar bilan raqobatbardoshligi, ishlab chiqarilgan tovarga bozordagi talab, ishlab chiqarish harajatlari va albatta, xomakini bo'lsa ham qancha foyda olishi mumkinligini bilishi shart. Shu va shunga o'xshash favquloddagi holatlarni inobatga olgan holda, boshqaruvchi korxonani iqtisodiy beqaror holatga, ya'ni daromadlari harajatlarini qoplay olmaydigan bankrot holatiga kelib qolishini oldini olish zarur.

Biznes rejaga asosan ishlamaslik, soliq to'lovchining faoliyatida davomiylikni ta'minlash uchun o'zining hammadan sir tutilgan biznes rejasini mavjud bo'lishi kerak. Biznes reja to'g'ri tuzilib, korxonada o'z biznes rejasiga muvofiq ishlay olmasa boshqaruv noto'g'ri bo'layotganligidan dalolat beradi. Jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni inobatga olib, shunga monan biznes rejani ham o'zgartirib, zamon bilan hamohang ish olib borish lozim. Ayniqsa, ishlab chiqarishning rentabelligini pasayishi soliq to'lovchida doimiy va ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan harajatlarning ortishi oqibatida kelib chiqadi. Ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi va bu texnologiyalarning ishlab chiqarish quvvati yangi texnologiyalarga nisbatan pastligi ham rentabellikning pasayishiga olib keladi. Soliq to'lovchida yangi texnika bilan ta'minlash choralari ko'rmaslik tadbirkorning bozordagi o'z o'rnini raqobatchi tadbirkorga bo'shatib berishi demakdir. Bu borada bozorda ishlab chiqargan tovarlarga talabning pasayishi esa, tadbirkor ishlab chiqayotgan mahsulotning boshqa mahsulotlarga nisbatan sifati pastligi, narxi yuqoriligi, naflilik darajasi pastligidan dalolat beradi. Muhimi, soliq to'lovchilar o'rtasida qarzdorlikni ortishini oldini olish va qarzdorlikning ortishi ishlab chiqarishda aylanma mablag'larning kamayishi, aylanma mablag'ning bo'lmasligi ishlab chiqarishni to'xtatishga olib keladi. Soliq to'lovchining ishlab

chiqarish miqdori zararsiz ishlash nuqtasidan pastga tushishi doimiy harajatlar hisobiga o'z faoliyatini tugashiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, iqtisod zanjirli reaksiyaga asosan iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham ta'sir etadi. Masalan, ishsizlik ortadi, jamiyatda ishsizlikning ortishi ta'sir qilmaydigan sohaning o'zi yo'q, shunday ekan, har qanday tadbirkorni ishlamasligi jamiyat uchun katta muammoni keltirib chiqaradi.

Debitor qarzdorlik iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorda turlicha bo'lishi tabiiy. Amaliyotda, qarzdorlik yildan yilga ortib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Albatta bu ko'rinishga bir tomondan yaxshi, ya'ni tadbirkorning ish hajmi yildan yilga ortishi, mahsulotlarning miqdori ortishi, shunga monan ishchilarning ish bilan ta'minlanishi va shunga o'xshash ko'rinishlarni sanab o'tishimiz mumkin. Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham mavjud, tadbirkor jismoniy shaxsning ish hajmi ortsa, mahsulotlarning miqdori ham ortadi va o'z-o'zidan tushum ham ortishi kerak. Tushum miqdorining ortishi tadbirkorning kreditor qarzdorliklari, shu jumladan, byudjetdan bo'lgan kreditor qarzdorlikni ham kamaytirish imkonini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, zanjirli bog'lanish hosil qilib tadbirkorning butun faoliyatiga ta'sir o'tkazadi.

Soliqlarni to'lamasdan qandaydir yo'llar bilan faoliyat ko'rsatish mumkin, yoki shunga imkoniyatlar bor, degan xulosa bersa bo'ladi. Qonunchilikka asosan, tadbirkorlarning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, etkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun iste'molchilarning o'z vaqtida hisob-kitob qilishlarini ta'minlash, xalq xo'jaligida to'lov intizomining ahvoli uchun rahbarlarning ma'suliyatini oshirish maqsadida barcha mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iste'molchilar va buyurtmachilarga, agar ular etkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 15 foizini oldindan to'lamasalar, mahsulot jo'natish, ishlarini bajarishi va xizmatlar ko'rsatishi ta'qiqlangan. Shu qonunchilikka asosan, mahsulot yuboruvchi tadbirkorlar jo'natilgan mahsulotning qiymatidan, qolgan 85 fizini mahsulot oluvchi tadbirkorlardan ololmaslik oqibatida debitor qarzdorlik ortib bormoqda. Shuning uchun 15 foizli oldindan to'lovni kamida 50% yoki umuman 100% qilib belgilansa,

tadbirkorlarda debitor qarzdorlik bo‘lmas edi. Shunda sog‘lom moliyaviy muhit yaratiladi va soliq qarzdorliklari vujudga kelmaydi. Mamlakat hududida barter operatsiyalari ta’qiqlangan bo‘lsada amalda ko‘p uchramoqda. Buning oldini olish uchun javobgarlik masalasini oshirish kerak.

To‘lov qobiliyatining pasayishi tadbirkor jismoniy shaxsning to‘lov qobiliyatini pasayishi uning aylanma mablag‘larining yo‘qligi, debitor qarzdorliklari ko‘payib jo‘natilgan mahsulotlar uchun mablag‘ning o‘z vaqtida kelib tushmasligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozorda raqobatbardosh emasligi, buning oqibatida mahsulotlar sotilmasligi, natijada tadbirkorni iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolishiga olib keladi. Bu haqda yuqorida aytib o‘tilganligi sababli kamroq to‘xtalib o‘tdik.


Soliq to‘lovchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablardan biri bo‘lgan nosog‘lom iqtisodiyot bu jahon amaliyotida ko‘pincha tadbirkorlar kutilmaganda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelish hollari juda ko‘p uchraydi. Masalan, bunga misol qilib “Dun & Bradstreet” firmasining 2021-yil yakuni bo‘yicha 87266 ta tadbirkorning qarzini 108,8 mlrd. dollar deb e’lon qilganligini ko‘rishimiz mumkin, bu YAIMning 2% ga yaqin. Tadbirkorlarni bankrotlikka olib kelgan asosiy sabab, AQSh iqtisodining pasayishi ko‘rsatilgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, tadbirkor o‘z faoliyati uchun biznes reja tuzayotganda, albatta, iqtisodiy jarayonlarni inobatga olib tadbirkorni qanday himoya qilishi yoki bo‘lmasa iloji boricha, kam talofat ko‘rish yo‘llarini oldindan belgilab borishi shart. Ayniqsa, o‘tish davrida tadbirkorlarning o‘z faoliyatini davom ettirishi uchun bozorda kuchli raqobatni engishiga to‘g‘ri keladi.

Soliq yukining ko‘payishi bugungi kunda dunyoning industrial rivojlangan mamlakatlari va er osti ma’danlariga boy bo‘lgan Yaqin Sharq mamlakatlarida soliq yuki 20,0 – 25,0 foizga teng bo‘lsa, rivojlanayotgan dunyo mamlakatlarida 35,0 – 40,0 foiz atrofida ekanligi va O‘zbekistonda 32,5 foizlik (soliq va yig‘imlar bilan birga) daraja atrofida farqlanishi, ularda amalda bo‘lgan soliq yuki mazkur davlatlar iqtisodiyoti uchun etarli yoki og‘ir yoxud ular iqtisodiyotining hozirgi holati uchun optimal (maqbul) soliq yuki necha foizni tashkil etishi lozim. Hozirgi vaqtda

ba'zi chet el ekspertlari mamlakatimizda soliq yukining og'irligi to'g'risidagi fikrlariga to'xtalsak, bizda soliq yuki ko'rsatkichlari qancha bo'lishi kerak va bu miqdorning qanchaligini o'lchash yoki belgilash uchun qaysi ko'rsatkitlarga tayanish kerak, degan savolga tayinli javob topa olmaymiz.

Buning sababi, bugungi kunga qadar dunyo bo'yicha har bir mamlakat uchun optimal (maqbul) soliq yukini aniqlashning umume'tirof etilgan uslubiyatining yo'qligidir. Lekin umuman olganda, soliq yukini iloji boricha kamaytirish kerak. Hech bir davlat yo'qki, o'zining byudjet daromadlarini ko'paytirishni xohlamaydigan. Soliq yukini soliq stavkalaridan ko'rish mumkin. Soliq stavkalarini Artur Laffer egri chizig'ida ta'kidlaganidek davlat byudjetiga iloji boricha ko'p mablag' tushadigan miqdorda belgilash lozim. Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida keltirilgan tahliliy ma'lumotlarga muvofiq soliq stavkalarining 1 punktga ko'tarilishi to'g'ri chet el investitsiyasining 3,3 foizga kamaytirishga olib kelar ekan. Shuning uchun har bir joriy qilingan soliqlar ilmiy jihatdan asoslangan holda joriy qilinishi lozim. Biz shartli ravishda iqtisodiyotning ko'rsatkichlari o'zgarmas deb hisoblab, davlat daromadlarini ko'paytirishga soliq stavkalarini oshirish orqali erishmoqchi bo'lsak, biz kutgan natija teskari bo'lib chiqadi, ya'ni davlat daromadlari tushumi ko'payishi o'rniga kamayadi. Buni 6-rasmda ko'rishimiz mumkin.

Soliq yukining notekis taqsimlanishi, turli sohalardagi tadbirkorlarda soliq yukining notekis taqsimlanishiga asosiy sabablar tadbirkorlarning turlariga, ularning faoliyatiga qarab turli xil soliq stavkalarining joriy qilinishidadir.



A - doimiy ravishda davlat byudjetiga tushum;  
V - soliq stavkasini ko'paytirish natijasida davlat byudjetiga tushishi kutilayotgan tushum;  
S - soliq stavkasini ko'paytirish natijasida davlat byudjetiga haqiqatdagi tushum.

### 1.7-rasm. Davlat byudjeti daromadlari bilan soliq stavkalarining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlik<sup>53</sup>

Tadbirkorlar bir xil sharoitda daromadga nisbatan turli miqdorda soliq to'lamoqda. Bu soliqning adolatlilik printsplariga to'g'ri kelmasligi barchaga ma'lum. Shuning uchun bizning fikrimizcha, avvalo, soliq nuqtai nazaridan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi farqni yo'q qilish kerak. Shu bilan birga, soliqqa tortishda barcha tarmoqlarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) soliq to'lovchilarini birlashtirish zarur.

Yuqoridagilardan tashqari soliq yukining notekis taqsimlanishiga soliq va to'lovlardan turli imtiyozlar mavjudligi, bu imtiyozlar soliq to'lovchilarga nisbatan turlicha ta'sir ko'rsatishidir. Soliq to'lovchilarning ba'zilar qonuniy jihatdan soliq imtiyozlari va ozod etishlarga ega. Imtiyozlar ham ilmiy, ham nazariy shu bilan birga davlat mentalitetini inobatga olib joriy qilinmasa ba'zi soliq to'lovchilar imtiyozlardan soliq to'lashdan qochish vositasi sifatida foydalanadi. Oqibatda, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar ikki xil ko'rinishda soliq to'lashlariga sabab bo'ladi. Imtiyozlarning kamchiligi haqida xorij hamda mamlakatimiz etakchi olimlari ham o'zlarining ilmiy asarlarida to'xtalib o'tishgan. Masalan, Rossiya olimlaridan S.T.Shatalov soliq imtiyozlarining quyidagi oltita kamchiligini ko'rsatib o'tgan<sup>54</sup>. Unda **birinchidan** teng raqobat tamoyilini buzilishiga olib keladi. **Ikkinchidan** imtiyoz natijasida dastlabki samarani bermasligi, **uchinchidan**, rivojlanishga bo'lgan qiziqish yo'qolishi, **to'rtinchidan** imtiyozga ega bo'lmagan korxonalar imtiyozga intiladi va jinoiy yo'l bilan imtiyoz olishni ko'payishi, **beshinchidan** texnik taraqqiyot sekinlashishi va **oltinchidan** eng qiyini imtiyozlarni bekor qilish qiyinlashishga olib kelishini ta'kidlagan.

Soliqlar bo'yicha adolatsizlik natijasida barcha soliq talablariga rioya qiladigan intizomli soliq to'lovchilar raqobatga dosh bermay qoladilar va bozordan ketishga yoki soliqlardan qochish yo'llarini izlashga majbur bo'ladilar. Ozod etishlar imtiyozli korxonalar va tashkilotlarga berilib, mahalliy bozorda raqobatni buzadi.

---

<sup>53</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>54</sup> Сергей Шаталов: Общая нагрузка налогообложения жилья останется "примерно на том же уровне". <https://rg.ru/2007/03/19/nalog-nedvizhimist-anons.html>

Saralangan tadbirkorlar uchun soliqdan ozod etishlar va imtiyozlar soliq bazasini kamaytiradi va shu tariqa boshqa soliq yukini ko'paytiradi. Ozod etishlar va imtiyozlar shuningdek, ozod etilgan tadbirkorlarning rahbarlari uchun rag'bat omillarini buzadi, o'z kompaniyalarining samaradorligini oshirmay, ularning hukumat bilan munosabatini qo'llab-quvvatlashini rag'batlantiradi. Maxsus ozod etishlarga ega bo'lmaganlar ko'proq to'lashlari kerak, bunga soliq to'lovchilar soliqlardan bo'yin tovlashlar va korrupsiya orqali soliq to'lovlarini kamaytirishga intilish bilan javob beradilar. Umuman, soliq to'lovchilar daromadlilikka nisbatan ortiqroq soliqqa tortilganda, hukumat ularga soliq imtiyozlari va ozod etishlarni berish yo'li bilan strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi. Garchi har doim bunday taktika rasman milliy manfaatlarni himoya qilish sifatida oqlab ko'rsatilsa-da, amaliyotda bu hol iqtisodiy tartibni izdan chiqarishga ham sabab bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlarning soliqlarda imtiyoz berishdan tashqari byudjet va yig'implardan mavjud boqimanda qarzdorliklarning to'lov muddatlarini uzaytirish hollari ham mavjud. Bu holatlar soliq to'lovchilarga bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam yoki soliq to'lovchining to'lov qobiliyatsizlik holatiga kelib qolmasligi uchun davlatning qo'llab-quvvatlashi sifatida ko'rsatiladi, lekin bu holatlarning ko'p va doimiy takrorlanishi soliqlar bo'yicha soliq qarzdorliklarni cheksiz davom etishiga olib keladi. Aholi daromadlik darajasining pasayishi, uning iste'mol darajasini pasayishiga olib keladi. Iste'mol darajasi pasaygandan so'ng tadbirkorning ishlab chiqargan mahsulotga bo'lgan talabi ham kamayadi. Talabning bunday kamayishi, tadbirkorda saqlab qolish uchun boshqa mahsulot ishlab chiqarishiga yoki mavjud mahsulotlarning o'z daromadini kamaytirish orqali narxini pasaytirishiga majbur qiladi.


Ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi resurslarning qimmatlashuvi, bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor narxlarining belgilashi talab va taklifga asosan vujudga kelar ekan, tadbirkorlar mahsulot ishlab chiqarishi uchun resurs bozorlaridan mahsulotlarni bozor narxida sotib olishga majburdirlar. Tabiatan ma'lumki, barcha resurslarning chegarasi bor. Resurslarning narxi ortishi mahsulot tannarxiga

to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi, tadbirkorlarga faoliyat yuritish uchun qiyinchiliklar tug'diradi. To'lov qobiliyatining pasayib borishi, oxir oqibatda tadbirkorni to'lov qobiliyatsizlikka olib boradi. Avvalo, soliq qarzdorligini kamaytirish uchun shu holatlarga keltiruvchi sabablarni topib uni oldini olish va ana shu sohada kamchilikka yo'l qo'ymaslik muhim ekanligini unutmasligimiz lozim. Xufyona iqtisodiyot bilan shug'ullanib, noqonuniy daromad topayotgan tadbirkorlar, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmay noqonuniy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolar iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etish bosqichlari asosan soliq to'lovchilarni ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan himoya qilish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi hamda soliq to'lovchilarga nisbatan g'amxo'rliqi asosida byudjet-soliq siyosatini olib borishda normativ-huquqiy hujjatlarni tartibli tizimi orqali amalga oshirilishiga, shuningdek, bu soliq islohotlarini rivojlanish bosqichlarida soliq qarzlarni undirishdagi belgilangan chora-tadbirlar belgilanishi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tadbirlarni doimiy davom etishi olimlarning bu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga va soliq sohasidagi ilmiy yangiliklarni yaratishda o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

### **1.3-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillarshtirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari**

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha xorij tajribasini o'rganganimizda asosan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratganmiz. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimini ko'p o'xshashlik jihatlari bor, lekin shunga qaramasdan ular farq qiladi, ularni quyidagi modellarga bo'lishimiz mumkin (8-rasmda ko'rishimiz mumkin):



**1.8-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari<sup>55</sup>**

Turli sohlardagi tadbirkorlarda soliq yukining notekis taqsimlanishiga asosiy sabablar korxonalarining turlariga, ularning faoliyatiga qarab turli xil soliq stavkalarining joriy qilinishidadir. Barcha modellarning umumiy belgilari sifatida rivojlangan qonunchilik bazasi, vujudga keladigan munozara, vazifalar va vaziyatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizm va usullari hamda soliq idoralarining soliq to‘lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro‘ga ega ekanligi, yuqori ish haqi, axborot bazasining yuqoriligi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi, shuningdek, vazirliklar va idoralar vazifalari aniq chegaralab qo‘yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlash yo‘qligi hamda hukumatning vakili bo‘lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agenti (inspektor)ning katta ahamiyatga va obro‘ga egaligi, kadrlarni tahlil etish, o‘rganish, oldindan belgilash, o‘qitish, soliq to‘lovchilar bilan aloqalar bo‘yicha institutlarning mavjudligi, ayniqsa axborot bilan almashinishi sohasida moliya organlari soliq idoralari va bank tizimi bilan chambarchas bog‘langan. Shu bilan birga bu modellarning har birida ularning tafovutlarini belgilab beradigan o‘ziga xos belgilari mavjud, bular 1.9-rasmdagilardan iborat («1.9-rasmga qarang»):

<sup>55</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.





**1.9-rasm. Amerika Qo‘shma shtatlarida soliq tizimi modeli<sup>56</sup>**

Bunda, jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi bo‘yicha AQSh davlatida soliq qarzdorligi bo‘yicha xat ko‘rinishida xabarnoma beriladi va bunda soliq qarzi, hisoblangan penyalar, foizlar to‘liq ko‘rsatiladi. (10 kun muddatda to‘lanmasa mol-mulklari musodara qilinadi) Har oyda muddati o‘tkazib yuborilgani uchun jarima qo‘llaniladi. To‘lash imkoniyati bo‘lmasa har oyga bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun shartnoma tuzish mumkin (shartnomani, internet orqali yoki xatda ko‘rsatilgan nomerga telefon qilib rasmiylashtirish mumkin). Undiruvni to‘xtatib turish bo‘yicha murojaat qilish mumkin bundan penya hisoblanishi to‘xtatilmaydi. Soliq organi tomonidan to‘lab berish qobiliyati mavjud emas deb topilsa, barcha mol-mulklarini musodara qilib sotib yuborish, oylik maoshlariga, bankdagi hisobraqamlariga, pensiya jamg‘armasiga ham musodara quyadi.

Buyuk Britaniyada esa soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash uchun jarimalar yetarlicha ehtiyotkorlik choralarini ko‘radigan bo‘lsak, soliq organlariga xato haqida xabar bergan bo‘lsangiz jarima belgilanmaydi. Ehtiyotkorlik choralarini ko‘rmagan

<sup>56</sup> Muallif ishlanmasi.

bo'lsa yoki soliq summasini to'lamagan bo'lsangiz, 30 %-gacha, agar xato qasddan qilingan bo'lsa, 70 %gacha, agar xato qasddan qilinib uni yashirishga harakat qilgan bo'lsa, 100 %gacha belgilangan tartibda jarima solishga sabab bo'ladi. Eng og'ir jazo hukmi esa 3-yildan 17-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish tartibi belgilangan.

Litva davlatida soliq ssudasi shartnomasi tuziladi. Bunda soliq ssudasi shartnomasi - soliq qarzini to'lashni kechiktirishning turlari bo'linadi (grafik asosida, ma'lum muddatga kechiktirishi mumkin). Mazkur soliq ssudasi shartnomasining 86-moddasiga asosan soliq organini ruxsati bilan mavjud soliq qarzini boshqa aloqador soliq to'lovchiga yuklash mumkin. Shartnomaning 88-moddasiga asosan, soliq to'lovchi faoliyatiga moliyaviy qiyinchilik keltirib chiqarish holati ko'zatsilsa, shartnoma (soliq krediti) tuzgan holda soliq qarzini to'lash muddatini uzaytirish mumkin. Bunda, Fuqarolik kodeksiga muvofiq garov, kafillik bilan ta'minlanadi. Shartnomaning 107-moddasida soliq qarzini undirish davri 5-yil etib belgilangan.

Avstraliya davlatida soliq qarzini to'lash uchun ko'proq vaqt ajratish uchun soliq to'lovchilarning so'rovlariga javoblarni avtomatlashtiradigan real vaqtda qarzni boshqarish tizimini yaratish uchun sun'iy aql bilan birga bashoratli modellashtirishni qo'llaydi. Tizim soliq to'lovchilar tomonidan belgilanadigan to'lov shartlarini belgilaydi, ularning prognozlashtirilgan moyilligi va to'lov qobiliyati asosida belgilanadi.

Ma'lumki, davlat tuzilishi nuqtai-nazaridan AQSh federal<sup>57</sup> davlat hisoblanib, uning soliq tizimi ham uch pog'ona: federal soliqlar, shtat soliqlari va munitsipal mahalliy soliqlardan iborat. AQShda aholidan olinadigan daromad solig'i "personal income tax" yoki "individual income tax" solig'i deb ataladi va u to'rt turga bo'linadi:

1. Federal daromad solig'i (Federal income tax).
2. Shtatlar daromad solig'i (State income tax).
3. Sotsial himoyalash solig'i (Social Security tax yoki Social Insurance tax).
4. Tibbiy sug'urta uchun to'lovlar (Medicare tax).

---

<sup>57</sup> Шамситдинов Ф.Ш., Шамситдинова Ф.Ш. //Чет мамлакатлари солиқ тизими. Дарслик. –Т., 2011.

Federal daromad solig'i (Federal income tax) butun davlat miqyosida bir xil tartibda progressiv soliq stavkalarini qo'llagan holda undiriladi. Ammo bu soliq ayrim (masalan, Alyaska, Florida, Nevada, Yujnaya Dakota, Texas, Vashington, Yangi-Gempshir va Tennessi) shtatlarda undirilmaydi, ya'ni bu shtatlarda yashovchi aholi faqat federal daromad solig'ini to'laydilar. Biroq bu shtatlarda daromad solig'i o'rini bosadigan boshqa soliqlar, masalan Nevada shtatida qimor o'yinlari va shou biznesdan olinadigan maxsus soliqlar (gambling tax) undirilsa (ayniqa Las-Vegas shahrida), Yangi-Gempshir va Tennessi shtatlarida aholidan bankdagi depozitlaridan olgan foydasi hamda dividendlardan oladigan daromadlaridan 5-6 foizlik soliq undiriladi<sup>58</sup>.

Cingapurda biznes yurituvchi tadbirkorlar (rezident va norezidentlar)dan olingan daromadlari paydo bo'lganda va chet eldan olingan daromadlar Singapurga o'tkazilganda yoki o'tkazilgan deb hisoblanganda soliqqa tortiladi. Norezidentlar, agar ular Singapurda paydo bo'lgan deb hisoblansa, ayrim turdagi daromadlar (masalan, foizlar, royalti, texnik xizmat to'lovlari, ko'char mulk ijarasi) bo'yicha UQS (ushlab qo'yilgan soliqlar) to'lanadi. Jismoniy shaxs Cingapurda rezident bo'lishidan qat'iy nazar, daromad hisoblangan yoki undan olingan bo'lsa soliqqa tortiladi. Cingapurdan tashqaridagi manbalardan olingan daromad, agar u Cingapurda rezident jismoniy shaxs tomonidan Cingapurdagi hamkorlik orqali olingan bo'lsagina soliqqa tortiladi. Rezident jismoniy shaxslar ma'lum shaxsiy nafaqalar olish huquqiga ega va ularga 0 %dan 22 %gacha bo'lgan bosqichma-bosqich soliq stavkalari qo'llaniladi (2024-yilgi baholash yilidan 24%). Norezident jismoniy shaxslar hech qanday shaxsiy nafaqa olish huquqiga ega emaslar va 22% miqdoridagi yagona stavka bo'yicha soliqqa tortiladilar (2024-yil hisoblangan yildan boshlab 24%). Imtiyoz sifatida norezidentlarni ish bilan ta'minlanishidan olinadigan daromad 15% yuqori belgilangan stavkada yoki rezident stavkasida shaxsiy nafaqalarni hisobga olgan holda yaxlitlanadi.

## 1.2-jadval

---

<sup>58</sup> Худойкулов С.К., Бабаев Ш.Б., Ражапов Ш.З., Жисмоний шахсларнинг даромадларини солиққа тортишнинг хорижий тажрибаси ва унинг афзалликлари “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2016 йил

### Singapurda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i<sup>59</sup>

Soliq solinadigan daromad (SGD)		Soliqqa tortish yillar (2022-yil va 2023-yil)		2024-yilda soliqqa tortish	
Yuqori me'yorlari (1-ustun bo'yicha)	Yuqori me'yor bo'lmagan	1-ustunda soliq (SGD)	Oshirilgan foiz (%)	1-ustunda soliq (SGD)	Oshirilgan foiz (%)
0	20 000	-	-	-	-
20 000	30 000	-	2,0	-	2,0
30 000	40 000	200	3,5	200	3,5
40 000	80 000	550	7,0	550	7,0
80 000	120 000	3 350	11,5	3 350	11,5
120 000	160 000	7 950	15,0	7 950	15,0
160 000	200 000	13 950	18,0	13 950	18,0
200 000	240 000	21 150	19,0	21 150	19,0
240 000	280 000	28 750	19,5	28 750	19,5
280 000	320 000	36 550	20,0	36 550	20,0
320 000	500 000	44 550	22,0	44 550	22,0
500 000	1 000 000	84 150	22,0	84 150	23,0
1 000 000		194 150	22,0	199 150	24,0

Jismoniy rezidentning soliqqa tortiladigan daromadi (shaxsiy nafaqalar hisoblangandan keyin) progressiv stavkalar bo'yicha daromad solig'i hisoblanadi. 2022-yildan 2024-yilgacha (daromad yillari 2021-yildan 2023-yilgacha) baholash yillari uchun joriy stavkalar 2-jadvalda ko'rsatilgan. Norezident jismoniy shaxslarga esa 22% (baholash yilidan boshlab 24%) bir tekis stavka bo'yicha soliq solinadi, bundan mustasno, bandlik daromadiga 15% tekis stavka yoki shaxsiy imtiyozlar bilan rezident stavkalari bo'yicha soliq solinadi, qaysi biri yuqoriroq soliqni keltirsa. Norezident direktorning mukofoti pasaytirilgan stavkaga taalluqli emas va 22% (2024-yil hisoblangan yildan 24%) ushlab qolingani soliq (UQS) norezident agentiga to'langan mukofotdan ushlab qolinishi kerak.

1.2-jadvalda Singapur davlatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini shkalalarga ajratilgan holda 2022-yil va 2023-yillarda bo'lgan soliq stavkalari daromadlarni miqdoriga qarab belgilanadi. Shuningdek, Singapurda 3 yilga mo'ljallangan soliqqa tortish tizimi majud bo'lib, 2022-2024-yillarga mo'ljallangan soliq stavkalari oldindan belgilab, soliq to'lovchilarga ma'lumot sifatida axborot berib boriladi. Bundan tashqari Singapurda individual chegirmalar me'yorlari keltirilgan. Bunda asosan ish bilan bog'liq xarajatlar, agar ular to'liq va

<sup>59</sup> <https://taxsummaries.pwc.com/singapore/individual/taxes-on-personal-income>

faqat Singapur hududida olingan daromad ishlab chiqarishga sarflangan bo'lsa, ish bilan bog'liq daromaddan chegirib tashlash mumkin. Ushbu xarajatlar xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun qilingan bo'lishi kerak va ish beruvchi tomonidan qoplanishi mumkin emas, ya'ni kapital xususiyatga ega yoki jamoat transportida amalga oshiriladi.

Xuddi shuningdek, shaxsiy chegirmalardan odatda, tasdiqlangan xayriya tashkilotlari, jamg'armalar va grant beruvchilarga malakali xayriyalar uchun 250% chegirma talab qilinishi mumkin. Ipoteka chegirmasi sifatida foiz xarajatlari, agar u to'liq va faqat soliqqa tortiladigan daromadni ishlab chiqarishda amalga oshirilsa, chegirib tashlanishi mumkin. Shunday qilib, ipoteka foizlari faqat tegishli mulk daromadi bo'yicha chegirib tashlanadi. Abonent to'lovlari bo'yicha jismoniy shaxs ishga joylashishi sharti bilan a'zolik talab qilinadigan kasbiy institutlar yoki jamiyatlarga yillik obunalarni chegirib tashlashi mumkin. Kasbiy yangilanishlar, bilim va aloqalarni olish uchun yirik tashkilotlarga yoki jamiyatlarga obuna bo'lish odatda chegirma sifatida, shuningdek, bu shaxsning ish majburiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ruxsat etiladi. Har qanday undirilmagan savdo yo'qotishlari yoki kapital to'lovlari mavjud qoidalarga rioya qilgan holda soliq to'lovchining kelajakdagi daromadidan to'liq foydalanilgunga qadar kelgusi yillarga o'tkazilishi mumkin. Foydalanilmagan har qanday xayriyalar soliq to'lovchining kelajakdagi daromadidan kompensatsiya qilish uchun ko'pi bilan besh yilgacha bo'lgan yillarga o'tkazilishi mumkin.

Hindistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda asosan shaxsiy daromad solig'iga alohida ahamiyat beriladi. Bunda Hindistonda jismoniy shaxslarga soliq solish, birinchi navbatda, tegishli soliq yilida ularning yashash holatiga asoslanadi. Jismoniy shaxslarning yashash holati har bir soliq yili uchun mustaqil ravishda belgilanadi va tegishli soliq yili va o'tgan yillar davomida Hindistonda (turar joyida yashashi) jismoniy mavjudligi asosida aniqlanadi. Jismoniy shaxs uchun turar-joyning quyidagi turlari ko'zda tutilgan:

- Hindistonda yashovchi (bular ham ikki toifaga bo'lingan):

Rezident va oddiy rezident (ROR).

Rezident, lekin oddiy rezident emas (RORE).

- Hindistonda (NR) norezident.


Hindistonning soliq qonunlariga ko'ra, soliqqa tortish doirasi jismoniy shaxsning yashash joyiga qarab farqlanadi:

- RORlar Hindistonda qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, butun mamlakatlar bo'ylab daromadlaridan soliqqa tortiladi;

- RORElar faqat Hindistondan kelib chiqqan yoki Hindistonda joylashgan biznes yoki kasbdan Hindistonda olingan yoki olingan deb hisoblangan daromadga nisbatan soliqqa tortiladi.

Hindistonda NRLar faqat Hindistonda hisoblangan va yashaydigan yoki hisoblangan va yashaydigan yoki yashamaydigan yoki yashaydi deb hisoblangan daromadlarga nisbatan soliqqa tortiladi. RORE va NR jismoniy shaxslar Hindistondan tashqarida olgan va olgan daromadlariga nisbatan soliqqa tortilmaydi.

**Federal daromad solig'i 7 ta stavkadan iborat:**



**10-rasm. AQShda yillik daromad solig'i stavkalari<sup>60</sup>**

Amerikada federal byudjet daromadlarining asosiy qismini aholidan olinadigan daromad solig'i tashkil qiladi. Uning subyekti bo'lib jismoniy shaxslar, yuridik shaxs statusiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi korxonalar va sheriklikka asoslangan korxonalar hisoblanadilar. Eng kam ish haqi soatiga 8-10 dollarni tashkil etadi. AQSh Prezidenti B. Klinton rejasiga asosan kiritilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

AQShning 50 shtatidagi soliq daromadlari tuzilmasi federaldan jiddiy farq qiladi. To'lig'icha jismoniy shaxslardan soliq tushumlar umumiy daromadlarning taxminan 80 foizini tashkil qiladi, qolgan 20 foizi esa – federal subsidiyalardir. Umumiy hajmda yakka tartibdagi tadbirkorlar sotuvidan olinadigan soliq tushumlari ulushi 30-40 foizga yetadi. Uning soliqqa tortish obyekti bo'lib, tovar va xizmatlarning qiymati hisoblanadi. Soliq stavkalari shtatlar tomonidan belgilanadi va 4-8 foiz oralig'ida bo'ladi. Aholidan olinadigan daromad solig'i

<sup>60</sup> [www.irs.com](http://www.irs.com)

44 shtatda olinadi, qolganlarida u mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tadi. Soliq stavkasi 2-10 foizgacha oraliqda bo'ladi va ushbu soliqning soliqqa tortish obyektlari farqlanadi. Ammo foydalanishning bir xil va qulay bo'lishi uchun ko'pchilik shtatlar o'z stavkalarini manbasi sifatida, federal soliqning ma'lum foizini asos qilib oladilar. Bunda shtatlar soliq deklaratsiyasining o'z shakli bo'lib, ularda to'langan soliq summasi subyektlarning federal soliq bo'yicha soliqqa tortish majburiyatlari aniqlanganda chegirib tashlanadi. Qariyb barcha shtatlarda jismoniy shaxslar qatorida yuridik shaxslardan ham mol-mulk solig'i undiriladi.

Soliq stavkalari farqlanadi va 0,5 dan 5 foizgacha oraliqda bo'ladi. Bundan tashqari, shtatlar tomonidan meros solig'i, turli xil aksizlar, kapital solig'i va maxsus ruxsatnomalar olish uchun undiriladigan yig'imlar olinadi, ish beruvchilar esa ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlar uchun majburiy ajratmalarni amalga oshiradilar. Shtatlar qatorida AQSh ma'muriy tuzilmalar sifatida mahalliy hukumat qarmog'i ostida bo'lgan qariyb 85000 tumanni o'z ichiga oladi. Qariyb barcha shtatlar grafliklarga bo'lingan va ularda taxminan 20 ming munitsipalitetlar mavjud. Grafliklar, munitsipalitetlar, taunshiplar (xususiy hududiy tuzilmalar) o'z boshqaruv bo'linmalariga ega va o'z xizmatlarini tegishli hududlarda olib boradilar.

Har bir o'z-o'zini boshqarish bo'linmasi o'z byudjetini tuzishi, yangi soliqlar joriy qilishi va undagi tushumlarni ta'minlash uchun turli faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish bo'linmasi o'z ixtiyorida shtatlar soliqlari bilan ko'p tomondan o'xshash bo'lgan, uncha ko'p bo'lmagan soliq manbalariga ega. Mahalliy soliqlar ichida mol-mulkdan olinadigan soliq muhim ahamiyat kasb etadi. Bu soliq mulk egasi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardan yiliga bir marta olinadi. Ushbu soliqni aniqlash manbasi bo'lib, mulkning narx qiymati hisoblanadi. Shtatlarning qariyb yarmida sotuvdan olinadigan mahalliy soliq undiriladi. Bu nomdosh shtat solig'iga qo'shimcha bo'lib hisoblanadi.

Germaniyada jismoniy shaxslarning jami daromadlari soliqqa tortish bazasi hisoblanadi. Soliq deklaratsiyasi asosida yoki toifa asosida ya'ni daromadning qishloq va o'rmon xo'jaligida ishlashdan, hunarmandchilik faoliyatidan, mustaqil faoliyatidan, yollanma mehnatidan, mol-mulkni ijaraga berishdan va boshqalardan

daromad solig'i sifatida to'lanishi mumkin. Har bir toifaga nisbatan o'z chegirmalari qo'llanilishi mumkin. Uydan ishga qatnashdagi jamoat transporti harajatlari chegiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondlaridan beriladigan to'lovlar, davlat ijtimoiy yordami soliqqa tortilmaydi.

Italiyada daromad soliqlarini undirish usullari soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri byudjetga o'tkazish, summalar to'lash vaqtida soliqlarni ushlab qolish, ulpon ro'yxati - soliq reestri vositasida soliq undirish tarzida tasniflanadi. Italiyada soliqlarni undirish chog'ida soliq reestridan soliq to'lovchi soliqni to'g'ridan-to'g'ri to'lash yoki summani to'lash vaqtida ushlab qolish vositasida to'lanmagan hollarda foydalaniladi. Bunday hollarda soliq boshqarmalari to'lovni maxsus reestrda - undiruv ro'yxatida qayd etish yo'li bilan ta'minlaydilar. Reestr mahalliy soliq bo'lmasa, chet ellik yuridik shaxslar foydasiga o'tkaziladigan foizlar, dividendlar va boshqa to'lovlarni bank qabul qilmaydi. Bu tartib bekor qilinib, soliq ushlab qolmaganlik uchun 50,0 dan 300,0% gacha jarima solish joriy etilgan<sup>61</sup>.

Ispaniya byudjetining asosiy daromad qismi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i taminlaydi. 1995-yilda bu turdagi soliqlar Federal byudjet daromadining 38 foizini yoki 5399 mlrd. pesetni tashkil qildi. Ko'pchilik Evropa mamlakatlariga nisbatan Ispaniyada soliqqa tortish bazasi keng bo'lib, oylik ish haqidan olinadigan soliqdan tashqari, tadbirkorlik va kasbiy faoliyatidan olingan daromaddan, kapital sarmoyadan olinadigan dividend, hamda pensiya va ishsizlik uchun olinadigan nafaqalar ham kiradi. Lekin kasallik nafaqasi, davlat stipendiyalari, lotoreya yutuqlari, ishdan bushayotgandagi bir martalik nafaqalar daromad solig'iga tortilmaydi.

Soliqqa tortish bazasidan oiladagi har bir bola uchun va 65 yoshdan katta bo'lgan har bir qariya uchun 20 ming pesetgacha chegirib tashlanadi. Shuningdek bir yillik daromaddan ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasi uchun to'lov summalari 250 ming peset yoki 5 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda chegirib tashlanadi. Dori-darmon uchun hujjatlashtirilgan xarajatlarning bir qismi ham

---

<sup>61</sup> <http://worldtaxes.ru>



chegirib tashlanadi. Daromaddan soliq hisoblanayotganda ko'chmas mulk qiymatining 2 foizi qo'shib hisoblanadi.

Belorusiya soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari Belorusiyada va undan tashqaridagi manbalaridan olingan daromadlar bo'yicha soliq rezidentlari va Belorusiyadagi manbalardan olingan soliq rezidentlari bo'lmagan shaxslar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, jismoniy shaxslarning pul va natura shaklidagi jami daromadi hisoblanadi. Soliqqa tortilmaydigan daromadlar ro'yxati va soliq chegirmalari qonunchilikda ko'zda tutilgan. Soliq chegirmalari ish haqining eng kam miqdori, eng kam ish haqi 1 barobari miqdorida ishchining o'ziga, ish haqining eng kam miqdorining 2 barobarida har bir bola va boqimandaga, ish haqining eng kam miqdorini 10 barobarida jismoniy shaxslarning alohida toifalari uchun soliq miqdorlarida engilliklar ko'zda tutilgan. Soliq bo'yicha progressiv soliq stavkasi ko'zda tutilgan, u daromadlarning 5 ta aylanmasiga va ularga mos (9,15,20,25,30 %) stavkalariga ega. 15 foiz miqdordagi soliq stavkasi qo'yidagi daromad turlari uchun o'rnatilgan: aksiyalar bo'yicha dividendlar, yuridik shaxslarni tugatish va qayta tashkil qilish natijasidagi korxonalar faoliyatiga o'z hissasi bilan qatnashishidan olgan daromad. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar soliq imtiyozlari va soliq chegirmalarisiz, 20 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Ozarbayjon davlatida jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lovchilari rezident va nerezident jismoniy shaxslar hisoblanadi. Rezidentlarning daromadi bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt soliq yilidagi jami daromadlar bilan ushbu davrdagi soliq kodeksida belgilangan chegirmalar o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi. O'zining doimiy vakilligi orqali Ozarbayjon Respublikasida faoliyat yuritayotgan nerezident-soliq to'lovchi, doimiy vakilligi bilan bo'lgan soliqqa tortiladigan daromatlardan daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadilar. Soliqqa tortiladigan daromad, ma'lum bir ish davomida doimiy vakillik bilan bog'liq ravishda Ozarbayjon Respublikasi hududidagi manbalardan olingan jami daromad bilan ushbu davr ichidagi xarajatlar farqi tushuniladi. O'z faoliyati, mahsulot sotishi, mulkini ijaraga berish natijasida daromad oladigan nerezident jismoniy shaxs joriy

yil davomida Ozarbayjon Respublikasi hududidagi manbalardan olingan va soliq kodeksida koʻzda tutilgan chegirmalar summasiga kamaytirilgan daromad soligʻi toʻlovchisi hisoblanadi.

Xulosa tariqasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishda xorijiy tajribalardan AQSh, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Hindiston, Singapur, Belorussiya va Ozarbayjon davlatlarini tajribalari asosida soliqqa tortish tizimi yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishimizni boyitganmiz. Bunda asosan soliqqa tortishni deklaratsiya usulida AQSh, Germaniya, Italiya, Ispaniya tajribalaridan va jismoniy shaxslarni toʻlov manbaida soliqqa tortish Hindiston va Singapur tajribalaridan, shuningdek, Belorussiya va Ozarbayjon davlatlarining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi hisob-kitoblari boʻyicha tajribalaridan keng foydalanilgan.

### **Birinchi bob boʻyicha xulosa**

Mazkur bobda soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni nazariy va huquqiy asoslari yoritilib unda, Oʻzbekiston soliq tizimiga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etishning huquqiy va nazariy asoslari, soliq va soliq maʼmuriyati sohasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etish bosqichlari va tarixi, mexanizmini takomillashtirish boʻyicha xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalari jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish istiqbollari va mamlakatimizda ulardan foydalanishni alohida koʻrsatib beradi. Asosan soliq toʻlovlarini undirish tushunchasiga xorijiy va milliy olimlarni fikrlari, shuningdek, ularning fikrlaridan kelib chiqib, mualliflik tushunchasi berib oʻtilgan. Bundan tashqari hozirgi kunda soliq undirishini tarkibiy tuzilishi va unda obyektiv va subyektiv yondashuvlar sxema asosida tahlil qilingan.

Yuridik va jismoniy shaxslarni soliq undirilishidagi tafovutlarda soliq toʻlovchilarga soliq tizimidagi sharoitlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu bobda soliq tizimining rivojlanishida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni ahamiyati, shuningdek, xorijiy davlatlardagi amaliyoti keng tahlili yoritilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishda xorijiy tajribalardan AQSh,

Germaniya, Italiya, Ispaniya, Hindiston, Singapur, Belorussiya va Ozarbayjon davlatlari tajribalaridan ilmiy tadqiqot ishimizda foydalanilgan. Bunda asosan soliqqa tortiladigan daromad, mahsulot sotilishi, mulkni ijaraga berish natijasida daromad oladigan norezident- jismoniy shaxs uchun chegirmalarni qo'llanilishi, tadbirkorlik va kasbiy faoliyatidan olingan daromaddan, kapital sarmoyadan olinadigan dividend, hamda pensiya va ishsizlik uchun olinadigan nafaqalar ham jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

## **II BOB. SOLIQ MA'MURCHILIGIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI AMALDAGI HOLATI TAHLILI**

### **2.1-§. O'zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili**

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq davlat byudjetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Uning roli byudjetga barqaror pul tushumlarini ta'minlash, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga erishiladigan aholining turli qatlamlari o'rtasida milliy daromadni shunday taqsimlashda, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishdan iborat. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyatiga kelsak, ikkita asosiy (fiskal va ijtimoiy) funktsiyaga ajratish mumkin. Soliqlarni eng izchil amalga oshiriladigan funktsiyasi bu fiskal bo'lib, u davlatni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga mo'ljallangan. Ushbu funktsiya yordamida fuqarolar daromadlarining bir qismi mudofani, davlat apparatini saqlash uchun, shuningdek, o'z daromad manbalariga (arxivlar, kutubxonalar) ega bo'lmagan noishlab chiqarish sohasining bir qismi uchun begonalashtiriladi yoki ular teatrlar, muzeylar, fundamental ta'lim, ba'zi ta'lim muassasalari normal rivojlanish darajasini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Aynan shu funktsiya milliy daromadning bir qismini jamiyatning eng kam badavlat qatlamlari foydasiga qayta taqsimlash imkonini beradi. Fiskal funktsiyaning ahamiyati jamiyat rivojlanishining iqtisodiy darajasi oshishi bilan ortadi. O'zbekiston davlat byudjeti daromad bazasini shakllantirish, Respublika byudjeti, shuningdek, mahalliy byudjetlar soliq va nodavlat soliq daromadlar hisobidan amalga oshiriladi<sup>62</sup>. Shu bilan birga, daromadni belgilovchi va asosiy manba aynan soliq tushumlari bo'lib, ular mamlakatning mudofa qobiliyatini ta'minlash, davlat sektori xodimlariga ish haqi to'lash, davlat dasturlarini moliyalashtirish, qonuniylik va tartibni saqlash, shuningdek, uzluksiz mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shish imkonini beradi.

---

<sup>62</sup> Власенкова Е.А. Налог на доходы физических лиц и его роль в формировании доходной базы местных бюджетов // Финансы и кредит. 2012. № 8 (488).

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda avvalambor jismoniy shaxslarga tushuncha berib o'tishimiz lozim. Soliq qonunchiligiga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi<sup>63</sup>. Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir<sup>64</sup>.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi, soliq subyektlari nuqtai nazaridan 3 asosiy turkumga ajratiladi. Ular asosan jismoniy shaxslarni (rezident) soliqqa tortish tizimi va yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi hamda norezident jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi hisoblanadi. Jismoniy shaxslar olgan daromadlari, mulklaridan va iste'molidan soliq to'laydilar. Ular tomonidan to'langan soliqlar davlat byudjetini shakllantirishdagi ulushi yuqoridir. Ayniqsa jismoniy shaxslar daromadlaridan to'lanadigan soliqning davlat byudjetidagi ulushi yuqoridir. Shuningdek, jismoniy shaxslardan undirilgan soliqlar mahalliy byudjetlarning daromadlarida sezilarli ulushga egadir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar aslida tegishli soliqdir. Ushbu soliq milliy soliq hisoblanadi va tartibga soluvchi soliq sifatida ishlatiladi. Jismoniy shaxslarga soliqlar qo'yilganda aholining ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy adolat tamoyillari hisobga olinadi, ya'ni ushbu soliq soliqqa tortish tizimi daromad miqdoriga qarab bosqichma-bosqich undiriladi. Shuning uchun ham ushbu soliqlar bo'yicha belgilangan stavkalar progressiv stavka hisoblanib, hozirgi soliqqa tortish tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bir pag'onali soliq stavkasi orqali amal qiladi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining salmog'i ancha yuqoridir. Davlat byudjetining daromadlar qismidagi ulushi yuqori bo'lgani sababli ham, bu soliq turi soliq tizimida muhim o'rinlardan birini egallab kelmoqda.

## 2.1-jadval

### **Davlat byudjeti daromadlar tarkibini 2017-2021-yillarda o'sish dinamikasi<sup>65</sup>** (mlrd.so'mda)

<sup>63</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси (16-модда)


<sup>64</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси (17-модда)

<sup>65</sup> Muallif ishlanmasi.

<b>DAROMADLAR</b>	<b>2017-yil</b>	<b>2018-yil</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>
Davlat byudjeti solikli daromadlari (mlrd.so‘m), shu jumladan:	49 681,0	62 229,5	102 627,6	158 960,1	191 781,6
Respublika byudjeti (mln.so‘m)	29 659,5	34 163,9	57 060,9	98 186,1	120 231,7
Davlat byudjetiga nisbatan salmog‘i (%da)	59,7	54,9	55,6	61,7	62,5
Mahalliy byudjetlar (mln.so‘m)	20 021,4	28 065,5	45 156,1	30 273,9	29 774,7
Davlat byudjetiga nisbatan salmog‘i (%da)	40,3	45,1	44,4	38,3	37,5

Yuqorida keltirilgan 2.1-jadvalda mahalliy byudjet daromadlari salmog‘i 2017-yildan 2019-yilgacha oshishiga erishildi. Keyinchalik 2021-yilga kelib hissasi 45,1 foizdan 37,5 foizga kamayib ketgan. Buning asosiy sabablaridan biri pandemiya sharoitida jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda engilliklar berilgan va shuning ta‘sirida daromadlarni asta-sekinlik bilan pandemiyaning iqtisodiyotga salbiy ta‘sirini yumshatishga va uni yaxshilashga yordam berish uchun keng ko‘lamli tezkor choralarni ko‘rish natijasida aholining real daromadlari oshishiga erishildi. Bundan tashqari xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholiga soliq imtiyozlarini oshirib borilishiga, bevosita soliq turi hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalarini pasaytirilishiga qaramay amalga oshirilgan izchil soliq siyosatining samarasi o‘laroq, davlat byudjeti daromadlaridagi soliqlar hajmining oshib borishiga erishildi. 3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mahalliy byudjetlarning daromadlar tushumi 2017-yildan 2021-yilgacha 20 021,4 mlrd. so‘mdan 45 156,1 mlrd. so‘mgacha oshdi.

O‘z navbatida mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi salmog‘i ham oshdi, ya‘ni 2017-yil mahalliy byudjetlarning davlat byudjetiga nisbatan salmog‘i 40,3 % bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 45,2 %ni tashkil etdi. Albatta bu sezilarli ko‘rsatkich emas. Shunga qaramasdan mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushining ortib borishi ijobiy holat hisoblanib, mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlanishiga olib keladi.



## 2.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetida soliqlarning salmog‘i<sup>66</sup>

Mazkur 2.1-rasmdagi tahlil qilinayotgan davrning yakunlariga ko‘ra, 2021-yilda davlat byudjetining daromadlar qismida to‘g‘ri soliqlar 29 125,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i 15 980,0 mlrd. so‘m, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi 1 192,1 mlrd. so‘m, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi 538,5 mlrd. so‘m, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 11 367,4 mlrd. so‘m, yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatini ayrim turlari bo‘yicha olinadigan qat‘iy belgilangan soliq 586,0 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Eng barqaror soliqning o‘shish dinamikasi butun soliq tizimi bo‘yicha soliqlarning o‘shishiga mos keladi. Soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatdi va ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bunda, iqtisodiy faollikning tiklanishi, tegishincha, ish haqining o‘shishi - o‘rtacha ish haqi 2018-yildan buyon 177,7 %ga oshdi. Byudjet sektorida ish haqining eng kam miqdorini oshirish. Masalan, 2021-yilda 2020-yildagiga nisbatan o‘rtacha 12,8 %ga, 2021-yil boshidan byudjet tashkilotlarida 2020-yilda vaqtincha to‘xtatilgan moddiy rag‘batlantirish to‘lovlari qisman tiklandi. Asosan qat‘iy belgilangan miqdorda soliq to‘lovchi yakka

<sup>66</sup> Manba: O‘zR Prezidentining byudjet parametrlari to‘g‘risidagi qarorlaridan olindi.

tartibdagi tadbirkorlardan tushumlarning o‘sishi – 2021-yilda 396,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi, bu 2020-yildagiga nisbatan 110,4 mlrd. so‘mga ko‘pdir. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bevosita (to‘g‘ri) soliqlar tarkibida katta ulushni tashkil etayotganligini 2.1-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin («2.1-rasmga qarang»).

Ushbu soliq davlat byudjeti daromadlarida sezilarli ulushga ega. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 2021-yilda 11,7 %ni tashkil qilgan. Soliq stavkalarining izchil pasaytirib borilishi natijasida soliq yuki pasaygan. Agar bevosita soliqlar 2019-yilda jami byudjet daromadlarini 26,1 %ini tashkil qilgan bo‘lsa, uning 11,7 %i jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha tushumlarga to‘g‘ri kelgan. Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilaridir.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga asosan jismoniy shaxslarning - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga Soliq kodeksida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda va stavkalar bo‘yicha soliq solinadi<sup>67</sup>. Jismoniy shaxslarning daromadlari soliq solish obyektlariga<sup>68</sup> O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari va O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari kiradi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, ushbu Kodeksning 58-bobiga muvofiq qat’iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish obyekti bo‘lmaydi.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi<sup>69</sup>. Jismoniy

<sup>67</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 182-модда.

<sup>68</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 181-модда

<sup>69</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 179-180-моддалар.



shaxslarning jami daromadiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlar kiradi. Yuridik shaxslar amalga oshiradigan xarajat turlari mavjud bo'lib, jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi ya'ni, mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari ham kiradi<sup>70</sup>.

Bundan tashqari kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari hamda diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchi transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek, yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar tarkibi ham soliqqa tortilmaydigan daromadlarga kiritiladi<sup>71</sup>.

Jismoniy shaxs maqomidagi soliq to'lovchilar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida jismoniy shaxslar qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, ijtimoiy soliq soliqlarni to'lovchi hisoblanadi<sup>72</sup>. O'zbekiston Respublikasi hududida yig'imlar belgilanishi mumkin va yig'imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksida hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilanadi. Chet davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imni hamda alkohol

---

<sup>70</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 184-модда

<sup>71</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 185-модда

<sup>72</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни тахририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi<sup>73</sup>.

Umumiy soliqlardan tashqari maxsus soliq rejimlari mavjud bo'lib Soliq kodeksiga asosan soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida aylanmadan olinadigan soliq, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi, O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi va maxsus soliq rejimlari orqali belgilanadi<sup>74</sup>. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonunchilikda yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin bo'lib, soliq kodeksiga asosan yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli bo'lib, jismoniy shaxsning soliq majburiyati uning vafot etishi va uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi hollarida tugatiladi<sup>75</sup>. Umumiy tartib soliq to'lovchilarni tahlil qilganimizda Respublika bo'yicha soliq turlari kesimida o'tgan yillarga nisbatan o'sishga erishilgan. Bu o'z navbatida soliq islohatlarni izchil amalga oshirilishi va zamonaviy

---

<sup>73</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 184-модда

<sup>74</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 сентябрдаги ЎРҚ-714-сонли Қонуни тахририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.09.2021 й., 03/21/714/0874-сон

<sup>75</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 18-модда

texnologiyalar bilan soliq bazasini kengayishiga oid chora-tadbirlari hisobiga soliq to'lovchilarni soni oshishiga erishilgan (2.2-jadvalda soliq to'lovchilarni yillar bo'yicha o'sish dinamikasi keltirilgan).

## 2.2-jadval

### Jismoniy shaxs maqomidagi soliq to'lovchilar dinamikasi<sup>76</sup>

№	Soliq turlari nomi	2017-yil soni	2018-yil soni	2019-yil soni	2020-yil soni	2021-yil soni
1	Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	4 128 826	4 281 732	4 686 237	4 839 512	4 789 110
	shundan, qat'iy soliq	279 656	360 123	315 839	358 431	376 772
2	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i	5 337 923	5 994 421	6 106 088	6 978 872	7 443 782
3	Jismoniy shaxslar yer solig'i	4 655 377	5 170 969	6 982 703	7 255 539	6 549 291
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 350	12 583	52 800	52 800	154 731


Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning soliq turlari bo'yicha eng ko'p mol-mulk soliq to'lovchilar hisoblanib, bu o'tgan yilga nisbatan 2,0 mln. taga oshgan. Bugungi kunda mamlakatimizda asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar bilan bir qatorda kadastr sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda. Bunda zamon talablariga muvofiq va byurokratiyaga chek qo'yish maqsadida ortiqcha hujjatlar talab etilmasligi, xizmat ko'rsatish muddatlarini qisqartirishga erishildi. Shuningdek, kadastr xizmatlaridan foydalanish uchun onlayn, ya'ni idoraga to'g'ridan-to'g'ri kelmasdan murojaat qilish uchun qulayliklar yaratildi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni miqdori jihatdan ko'rib chiqadigan bo'lsak, soliq islohatlarini amalga oshirilishda soliq to'lovchilarni yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasida ayrim yillarda soliq to'lovchilar o'sishga ayrim yillarda esa kamayish ko'rsatkichlarini bermoqda. Bunda jismoniy shaxslarni soliq to'lash tanloviga qarab o'zgarmoqda. Muhim jihati jismoniy shaxslar soliq siyosatini amalga oshirishda ularni qamrovini ya'ni soliq bazasini kengaytirish va byudjetga undirish choralari alohida e'tibor berilmoqda.

Mazkur 2.2-rasmda birgina jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilarini tahlil qilganimizda 2017-yilda jami soliq to'lovchilar soni 4,1 mln. tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 4,7 mln. tani tashkil

<sup>76</sup> Muallif ishlanmasi.

etmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan soliq to'lovchilarning o'sish dinamikasi o'rtacha 10 foizga oshishiga erishilgan.



**2.2-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni to'lovchilar salmog'i<sup>77</sup>**

Bu asosan soliq tizimida olib borilayotgan islohatlar natijasi hisoblanib, unda O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining<sup>78</sup> qabul qilinishi bilan bog'liq. Uning asosiy yo'nalishlari Soliq kodeksiga<sup>79</sup> va boshqa normativ hujjatlar, shu jumladan, har yillik "byudjetga oid" qarorga<sup>80</sup> implementatsiya qilingan va u 2019-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan va bir qator zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, hali hanuzgacha soliqqa oid islohat shu bilan yakuniga etgani yo'q. Uning davomi «Yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha choralar doirasida rejalashtirilgan. Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitalarining ma'lumotlari asosida 2017-2021-yillarda Respublika byudjetiga jismoniy shaxslardan hisoblangan va tushgan soliq tushumlari ko'rsatkichlari ko'rsatilgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda byudjet daromadlarining ijobiy ko'rsatkichlar dinamikasi, xususan, jismoniy shaxslardan hisoblangan soliqlar bilan ta'minlandi. Respublika bo'yicha jami hisoblangan soliqlar 2017-yilga nisbatan 2021-yilda 91,2

<sup>77</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>78</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.06.2018 йилдаги ПФ-5468-сон Фармон билан тасдиқланган концепция

<sup>79</sup> Ўзбекистон Республикасининг 24.12.2018 йилдаги ЎРҚ-508-сон Қонун.

<sup>80</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.12.2018 йилдаги ПҚ-4086-сон қарор

trln. soʻmga (3,3 barobarga oʻsish) oshishiga erishilgan. Bu oʻsish asosan, qoʻshilgan qiymat soligʻi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi, mol-mulk soligʻiga toʻgʻri kelmoqda.

**2.3-jadval**

**2017-2021-yillarda davlat byudjetida jismoniy shaxslardan hisoblangan soliqlar oʻsish dinamikasi<sup>81</sup>**

mlrd.soʻm.

№	Soliq turlari nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
	<b>Respublika boʻyicha</b>	<b>38 746,7</b>	<b>55 431,3</b>	<b>84 945,9</b>	<b>105 899,9</b>	<b>129 967,5</b>
	Shu jumladan (ayrim soliq turlari):					
1	Jismoniy shaxslarning daromad soligʻi	5 937,5	7 459,2	13 470,9	14 415,2	19 518,3
	shundan, qatʻiy soliq	1 026,6	1 004,2	661,1	294,1	398,4
2	Jismoniy shaxslar mol-mulk soligʻi	575,5	708,3	806,7	843,8	881,1
3	Jismoniy shaxslar yer soligʻi	529,8	663,2	905,4	1 246,0	1 420,2
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	176,0	132,1	319,3	649,3	652,5
5	Boshqa soliqsiz tushumlar	3 865,1	4 261,0	3 094,4	5 630,7	7 549,0

Xususan, hisoblangan soliq: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi – 13,5 trln. soʻm (+ 3,2 barobarga), jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi -305,6 mlrd. soʻm (+ 1,5 barobarga) oʻsishga erishilgan. Xuddi shuningdek, 2017-2021-yillarda Respublika byudjetiga jismoniy shaxslardan tushgan soliq tushumlari koʻrsatkichlari koʻrsatilgan.

**2.4-jadval**

**2017-2021-yillarda davlat byudjetida jismoniy shaxslardan undirilgan soliqlarni oʻsish dinamikasi tahlili<sup>82</sup>**

mlrd.soʻm.

№	Soliq turlari nomi	2017-yil soni	2018-yil soni	2019-yil soni	2020-yil soni	2021-yil soni
	<b>Respublika boʻyicha</b>	<b>37 750,9</b>	<b>54 202,8</b>	<b>83 323,9</b>	<b>103 561,7</b>	<b>127 867,2</b>
	Shu jumladan (ayrim soliq turlari):					
1	Jismoniy shaxslarning daromad soligʻi	5 895,9	7 421,9	13 322,7	15 140,8	18 917,7
	shundan, qatʻiy soliq	1 019,4	999,2	653,8	286,3	396,7
2	Jismoniy shaxslarning mol-mulk soligʻi	575,5	708,3	806,7	733,4	881,2

<sup>81</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>82</sup> Muallif ishlanmasi.

3	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	529,8	663,2	905,4	1 079,9	1 420,3
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	171,8	128,4	314,5	478,8	684,4
5	Boshqa soliqsiz tushumlar	3 865,1	4 261,0	3 094,4	5 582,6	7 549,3

Ko'rib chiqilayotgan davrda byudjet daromadlarining ijobiy ko'rsatkichlar dinamikasi, xususan, quyidagi jismoniy shaxslardan undirilgan soliqlar bilan ta'minlandi. Respublika bo'yicha jami hisoblangan soliqlar 2017-yilga nisbatan 2021-yilda 90,1 trln. so'mga (3,4 barobarga o'sish) oshishiga erishilgan. Bu o'sish asosan, qo'shilgan qiymat solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, mol-mulk solig'iga to'g'ri kelmoqda. Xususan hisoblangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – 13,6 trln. so'm (+ 3,2 barobarga), jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i -307,6 mlrd. so'm (+ 1,1 barobarga) o'sishiga erishilgan. Taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, umuman olganda, 2017-2021-yillar davomida jismoniy shaxslardan hisoblangan soliqlar nisbiy jihatdan jami soliq tushumlaridagi hissasi 18 %ga oshgan va 16,2 trln. so'mni tashkil qilgan.

Bugungi kunda jismoniy shaxslarning soliq qarzlarini surunkali undirmaslik soliq va yig'implardan byudjet daromadlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Zamon talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq qarzlarini qisqartirishning eng zamonaviy usuli bu soliqlarning yig'uvchanlik darajasini oshirishga borib taqaladi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hisoblangan soliqlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq to'lovchilar, jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va majburiy to'lovlarni o'z muddatida va to'liq hajmda to'lamasliklari natijasida qarzdorlik yuzaga keladi. Soliqlar va yig'implar bo'yicha qarzdorlikni kamaytirish va ushbu qarzdorliklar yuzaga kelishini oldini olish uchun davlat soliq xizmati idoralari hamda bank muassasasi xodimlaridan etarli darajada oqilona ish tashkil etilishi, bu boradagi mexanizmlarni ilg'or xorij tajribasiga tayangan holda takomillashtirib borish zarurati talab etiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan kelib chiqib, O'zbekistonda jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lanishini rag'batlantirish, soliq qarzlari yuzaga kelishini oldini olish, mavjud soliq qarzlarini kam xarajat qilib to'liq

undirib olish orqali byudjetga tushumlar tushishini ta'minlash hamda soliqlarni yig'iluvchanlik darajasini oshirish dolzarb mavzusi sifatida e'tirof etiladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq qarzdorligini tahlil qilganimizda ayrim soliq turlari bo'yicha soliq qarzdorligi oshishiga olib kelishi soliq rejimlarining o'zgarganligi sababli soliq qarz sifatida undirilmadan qolib ketilmoqda. Quyidagi 2.5-jadvalda soliq qarzdorligi dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

## 2.5-jadval

### Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq qarzdorligi dinamikasi tahlili<sup>83</sup>

mlrd.so'm.

№	Soliq turlari nomi	2017-yil soni	2018-yil soni	2019-yil soni	2020-yil soni	2021-yil soni
	<b>Respublika bo'yicha jami soliq qarzdorligi</b>	<b>2 054,8</b>	<b>2 127,5</b>	<b>3 468,5</b>	<b>5 027,2</b>	<b>6 697,0</b>
	Shu jumladan (ayrim soliq turlari):					
1	Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	112,1	191,0	258,8	270,6	380,1
	shundan, qat'iy soliq	157,2	75,0	88,2	108,0	120,3
2	Jismoniy shaxslarni mol-mulk solig'i	219,5	313,5	446,1	595,0	1 076,8
3	Jismoniy shaxslarni yer solig'i	258,0	334,8	502,7	756,8	1 664,0
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	142,1	156,7	186,3	191,6	162,5
5	Boshqa soliqsiz tushumlar	70,7	76,0	28,1	20,9	16,5

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarning ahamiyati beqiyos darajada katta bo'lib, uning yordamida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish uchun zamin yaratiladi. Qayd etilishicha, 2017-yilda respublikamizda 31 trln. so'm soliq tushumi bo'lgan bo'lsa, 2021-yil 128 trln. so'm tushum bilan yakunlangan. Shunga qaramasdan hali hanuzgacha soliq qarzdorligini jismoniy shaxslardan olinadigan

<sup>83</sup> Muallif ishlanmasi.

soliq turlari bo'yicha oshishi 6-jadvalda kuzatilyapti. 2017-yil davomida 112,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2021-yilga kelib 380,1 trln. so'm bo'lmoqda.

**2.6-jadval**

**Jismoniy shaxslarning ortiqcha to'langan soliq dinamikasi tahlili<sup>84</sup>**

mlrd.so'm.

№	Soliq turlari nomi	2017-yil soni	2018-yil soni	2019-yil soni	2020-yil soni	2021-yil soni
	<b>Respublika bo'yicha jami soliq qarzdorligi</b>	<b>2 054,8</b>	<b>2 127,5</b>	<b>3 468,5</b>	<b>5 027,2</b>	<b>6 697,0</b>
	Shu jumladan (ayrim soliq turlari):					
1	Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	112,1	191,0	258,8	270,6	380,1
	shundan, qat'iy soliq	157,2	75,0	88,2	108,0	120,3
2	Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i	219,5	313,5	446,1	595,0	1 076,8
3	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	258,0	334,8	502,7	756,8	1 664,0
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	142,1	156,7	186,3	191,6	162,5
5	Boshqa soliqsiz tushumlar	70,7	76,0	28,1	20,9	16,5


Ushbu 2.6-jadvalda ko'rinib turibdiki, yillar kesimida tahlil qilganimizda, ortiqcha to'lovlar jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha 110, 0 mlrd. so'mga o'sishi kuzatilgan. Buning asosiy sabablaridan soliqlarni hisobga olmaslik natijasida, shuningdek, kartoteka 2 bo'yicha ham inkassa topshiriqnomalari orqali ham soliq qarzdorligini undirib olish natijasida ortiqcha to'lovlar hosil bo'ladi. Bundan tashqari soliq hisobotlarini topshirmasdan soliq to'lovchilari tomonidan to'lovlarni amalga oshirib qo'yilishi hamda jismoniy shaxslardan mol-mulk va yer solig'idan hisoblangan soliqlarni 1 yoki 2 yilga oldindan ixtiyoriy ravishda to'lab qo'yish sababli amalga oshirilishi mumkin.

Soliq to'lovchining qarzi bo'lmagan taqdirda, alohida soliq to'lovchilar tomonidan ortiqcha to'langan soliq summasi soliq to'lovchiga qaytarilishi yoki ushbu soliqning kelgusi to'lovlarida hisobga olinishi kerak. Shuningdek, agar soliq to'lovchining soliq qarzi bo'lsa, ushbu qarzni 2.3-rasmda ko'rsatilgan ketma-

<sup>84</sup> Muallif ishlanmasi.



ketlikda hisobdan chiqarish uchun ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha yig‘ilgan soliq miqdorini hisobga olish kerak.



### 2.3-rasm. Soliq qarzini uzish ketma-ketligi tartibi

Ortiqcha to‘langan soliq summasi soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliq to‘lovchiga to‘liq yoki qisman qaytarilishi mumkin. Soliq kodeksining 104 va 105-modda<sup>85</sup>lariga asosan belgilangan tartibda ortiqcha to‘langan va undirilgan mablag‘larni hisobga olish yoki qaytarish belgilab qo‘yilgan. Soliqlarning ortiqcha to‘langani ehtimolidan dalolat beruvchi faktlar aniqlangan taqdirda, soliq organining yoki soliq to‘lovchining taklifiga ko‘ra soliqlar, penyalar va jarimalar bo‘yicha hisob-kitoblarni birgalikda o‘zaro solishtirish o‘tkazilishi mumkinligi belgilangan. Soliqning ortiqcha to‘langan summalarini hamda hisoblangan foizlarini hisobga olish yoki qaytarish milliy valyutada amalga oshiriladi va Soliq kodeksining 12-bobida belgilangan qoidalar ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan bo‘nak va joriy to‘lovlar, yig‘imlar, penyalar va jarimalarning summalarini hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham qo‘llaniladi. Mazkur tartib bilan belgilangan qoidalar ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan yig‘imlar, penyalar va jarimalar summalarini boshqa vakolatli organlar tomonidan hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham, shuningdek, belgilangan qoidalar soliq organining qaroriga ko‘ra o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham belgilanadi<sup>86</sup>.

<sup>85</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси

<sup>86</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси

Belgilangan qoidalar noto‘g‘ri to‘langan soliq summasini, shuningdek, penyalar va jarimalarni hisobga olishga yoki qaytarishga nisbatan ham qo‘llaniladi. Soliq turlari bo‘yicha alohida tahlil qiladigan bo‘lsak, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqining obyektlaridan biri sifatida er keltirilgan. Yer mulk huquqining obyektini sifatida e‘tirof etilgan bo‘lsada, mulk huquqining barcha subyektlari ham mulkiy munosabatlarda yerning mulkdori sifatida ishtirok eta olmaydi. Yer davlat mulki - umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo‘yilmaydi. Jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin. Ya‘ni, erga nisbatan mutlaq mulkdor sifatida faqat davlat e‘tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra yerlar respublika mulki hisoblanadi<sup>87</sup>. Shu bilan birga fuqarolar va yuridik shaxslar mulkiy munosabatlarga kirishishda er huquqi bilan deyarli barcha holatlarda duch keladi, ularning o‘z mulkiga egalik qilishi yerdan foydalanish bilan bog‘liq tarzda amalga oshiriladi. Chunki ushbu shaxslar egalik qilayotgan mulk yer uchastkasida joylashgan bo‘ladi, amalga oshiradigan tadbirkorlik yoki boshqa xo‘jalik faoliyati er bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Holbuki, mulkka egalik qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar yer bilan bog‘liq holda kechar ekan, qonun ham yerga nisbatan muayyan xususiyatlarni inobatga olgan holda egalik huquqini e‘tirof etadi. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari dehqon xo‘jaligini yuritishga va yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirishga hamda jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligi faoliyatini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yer uchastkasi olish huquqiga egadirlar<sup>88</sup>.

Oilali va qishloq joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga, shuningdek, tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari

---

<sup>87</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. 214-модда

<sup>88</sup> Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Деҳқон хўжалиги тўғрисида. 604-І-сон, 1998 йил 30 апрель

kengashining hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuman (shahar) kengashi bilan birgalikda berilgan tavsiyasiga ega bo‘lgan yosh fuqarolarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yer uchastkasi sug‘oriladigan erlarda 0,35 gektargacha va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sug‘orilmaydigan yaylovlardan 1 gektargacha o‘lchamda beriladi<sup>89</sup>. Qishloq joylarda kamida uch yil yashab turganlik to‘g‘risidagi talab yangi sug‘oriladigan yer massivlari uchun qo‘llanilmaydi. Bunda dehqon xo‘jaligini yuritish uchun beriladigan yer uchastkasining o‘lchami yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkasini hisobga olgan holda aniqlanadi<sup>90</sup>.

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalari imoratlar va inshootlar qurish huquqisiz beriladi. Mazkur qoida yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkalariga tatbiq etilmaydi. Fuqarolarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun 0,06 gektar doirasida yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi kimoshdi savdosi asosida realizatsiya qilinishi mumkin<sup>91</sup>. Yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini realizatsiya qilish «E-IJRO AUKSION» yagona savdo maydonchasida elektron auktsionlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi<sup>92</sup>.


---

<sup>89</sup> Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Деҳқон хўжалиги тўғрисида. 604-І-сон, 1998 йил 30 апрель.

<sup>90</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон

<sup>91</sup> Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Деҳқон хўжалиги тўғрисида. 604-І-сон, 1998 йил 30 апрель.

<sup>92</sup> Якка тартибда уй-жой қуриш учун ер участкалари бериш ва ер участкаларига мерос қилиб қолдириладиган умрбод эгалик қилиш ҳуқуқини реализация қилиш тартиби тўғрисида НИЗОМ. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 28 январдаги 63-сон қарори билан тасдиқланган.



#### **2.4-rasm. Alohida toifadagi fuqarolarga auktsionsiz beriladigan yer uchastkalari tarkibi**

Yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,04 gektargacha va ushbu hajm doirasidagi yer uchastkalari 2.4-rasmdagi holatlar yuzasidan alohida toifadagi fuqarolarga ularning arizalari asosida auktsionsiz beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan yer uchastkasini berish bo'yicha imtiyozlar bir oilaga bir marta (mulkdorning nomiga) beriladi va oilaning boshqa a'zolariga tatbiq etilmaydi va shaharlar va posyolkalarda<sup>93</sup>, shuningdek qishloq aholi punktlarida yashovchi, dehqon xo'jaligini yuritish uchun tomorqa yer uchastkalariga ega bo'lmagan fuqarolarga korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning iltimosnomasiga binoan jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi faoliyatini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yoki jamoa polizchiligi uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkasi tuman hokimi tomonidan beriladi<sup>94</sup>.

Jamoa polizchiligi uchun berilgan yer uchastkalaridan sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari etishtirishda foydalaniladi. Ulardan uy-joy binolari va boshqa kapital inshootlar qurish uchun foydalanish taqiqlanadi. Bunday uchastkalarda umumiy foydalanishdagi muvaqqat imoratlar va inshootlarni qurishga yer uchastkalarini bergan tuman hokimi ruxsat berishi mumkin. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi uchun beriladigan yer uchastkalari ko'chalar ochish, jamoat imoratlari va inshootlari qurish zarurligi hisobga olingan holda bog'dorchilik-uzumchilik shirkatining har bir a'zosiga 0,06 gektargacha va polizchilik shirkatining har bir

<sup>93</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 28 январдаги 63-сон қарори

<sup>94</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. 56-модда.

a'zosiga 0,08 gektargacha o'lchamda belgilanadi. Bog'dorchilik va uzumchilik uchun yer uchastkalari shaharlarning ko'kalamzor zonasidan yoki boshqa aholi punktlari chegarasidan tashqarida aholi punktlari hududining kengayish istiqbollari e'tiborga olib, suv resurslari hamda ularga limitlar ajratish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda zaxira yerlardan va o'rmon fondining daraxtzorga aylantirish mo'ljallanmagan yerlaridan ajratib beriladi. Jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun yaroqli zaxira yerlar hamda o'rmon fondi yerlari bo'lmagan taqdirda, qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yordamchi qishloq xo'jaligi yerlari istisno tariqasida berilishi mumkin<sup>95</sup>.

Jamoa polizchiligi uchun vaqtincha foydalanishga yer uchastkalari suv resurslari hamda ularga limit ajratish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda aholi punktlarining yerlaridan, yaqin yillar ichida boshqa maqsadlarda foydalanishga mo'ljallanmagan zaxira yerlardan va o'rmon fondi yerlaridan beriladi. Jamoa polizchiligi uchun noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining vaqtincha foydalanilmayotgan yerlari, bunday yerlar bo'lmagan taqdirda esa - qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari hamda tashkilotlarining unumdorligi past yerlari berilishi mumkin<sup>96</sup>.

Jismoniy shaxsning mol-mulk va yer soliqlarini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan har yili 1-martdan kechiktirmay to'lovchiga imzolatgan holda yoki buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi, jo'natilgandan so'ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi<sup>97</sup>. Soliq to'lovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda to'lashi lozim bo'lgan pul summasi penyadir<sup>98</sup>. Tegishli penyalarni summasi to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalaridan tashqari va soliqni to'lash bo'yicha majburiyatning bajarilishini ta'minlashga doir boshqa choralar, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

---

<sup>95</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон

<sup>96</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. 56-модда.

<sup>97</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси 19-модда.

<sup>98</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси 110-модда.

choralari qo'llanilishidan qat'iy nazar to'lanadi. Penylar, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqni to'lash kundan keyingi kundan boshlab soliqni to'lash bo'yicha majburiyatni bajarish kechiktirilgan har kalendar kun uchun hisoblanadi<sup>99</sup>.

Soliqni hisoblash va to'lash tartibi haqida yoki soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashga doir boshqa masalalar bo'yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o'z vakolatlari doirasida soliq to'lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlari bajarishi natijasida soliq to'lovchida hosil bo'lgan soliq bo'yicha qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Soliqni hisoblash va to'lash tartibi haqida yoki soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashga doir boshqa masalalar bo'yicha moliya yoki soliq organi (uning mansabdor shaxsi) tomonidan o'z vakolatlari doirasida soliq to'lovchiga yoki nomuayyan doiradagi shaxslarga berilgan yozma tushuntirishlarni bajarishi natijasida soliq to'lovchida hosil bo'lgan soliq bo'yicha qarz summasiga hisoblanmaydi va bu holatlar, shu organning mohiyati va mazmuniga ko'ra soliq qarzi hosil bo'lgan soliq (hisobot) davrlariga taalluqli tegishli hujjat mavjud bo'lgan taqdirda, shunday hujjat qabul qilingan sanadan qat'iy nazar, aniqlanadi<sup>100</sup>.

Kechiktirilgan har bir kun uchun jarimalar to'lanmagan soliq summasining foizi sifatida belgilanadi. Penyaning foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ushbu davrda amal qiladigan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan bir qismiga teng deb hisoblanadi. Masalan: 2022-yil 18-martdan boshlab yuzaga kelgan soliq qarzi bo'yicha penyani hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

**Har bir kun uchun  $17 / 300 + 0,0566$  foiz stavkasida penya to'ladilar(1)<sup>101</sup>.**

Penylar tegishli soliq to'lanadigan byudjetga (davlat maqsadli jamg'armasiga) to'lanadi. Penylar soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari

---

<sup>99</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси 19-модда.

<sup>100</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон

<sup>101</sup> Муаллиф томонидан тайёрланди. 2022 йил 18 мартдан бошлаб Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкаси 17 фоиз этиб белгиланган.

hisobidan, shuningdek, soliq to'lovchining boshqa mol-mulki hisobidan Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda majburiy ravishda undirilishi mumkin. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan penyani majburiy ravishda undirish soliq qarzini bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobidan va soliq qarzini boshqa mol-mulk hisobidan undirish nazarda tutilgan tartibda, boshqa jismoniy shaxslardan esa - yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxsning soliq qarzini undirish nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi<sup>102</sup>. Soliq to'lovchining yoki boshqa shaxsning soliq qarzi uning bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari hisobidan undirish imkoni bo'lmagan qismida boshqa shaxslardan undirilishi va agar soliq to'lovchining tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan oladigan tushumi yoki boshqa daromadlari boshqa shaxslarning bankdagi hisobvaraqlariga kelib tushgan bo'lsa, soliq to'lovchining soliq qarzi shu shaxslardan undirilishi mumkin bo'lgan hollarda yakka tartibdagi tadbirkorlardan penyani majburiy ravishda undirish sud tartibida amalga oshiriladi. Soliq kodeksida nazarda tutilgan qoidalar soliq agentlariga ham tatbiq etiladi<sup>103</sup>.

Soliq xizmati organlari mas'ul xodimlari birinchi holatda soliq qarzdorlarini o'rganishda quyidagilarga ya'ni haqiqiy qarzdorning (merosxo'rlarning) to'liq FISH, ish joyi yoki daromad manbasini va turmush sharoiti va yashash holatini hamda haqiqatda to'lanmaganligini (ko'p vaziyatlarda soliq to'lovchi tomonidan soliqlar to'langan bo'lsada uning puli ma'lumotlar bazasida shakllanmagan bo'lishiga) alohida e'tibor qaratishlari lozim. Agar yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxs soliq to'lash bo'yicha majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmagan bo'lsa, soliq organi soliq qarzini ushbu jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli. Undirish to'g'risidagi arizaga soliq organining talabnomani ta'minlash tartibida javobgarning mol-mulkini xatlash haqidagi iltimosnomasi ilova qilinishi mumkin. Undirish to'g'risidagi arizaning nusxasi u sudga berilgan kundan kechiktirmay soliq organi tomonidan soliq qarzi undirilayotgan jismoniy shaxsga yuboriladi. Agar jismoniy

---

<sup>102</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 15-боб

<sup>103</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 110-моддаси.

shaxsning soliq qarzi umumiy summasi bir million soʻmdan oshsa, undirish toʻgʻrisidagi ariza soliq organi tomonidan sudga beriladi<sup>104</sup>.

Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish toʻgʻrisidagi ishlar qonun hujjatlariga muvofiq koʻrib chiqiladi. Qonuniy kuchga kirgan sud qarori asosida soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish ushbu moddada nazarda tutilgan oʻziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Soliq qarzini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish bank hisobvaraqlaridagi pul mablagʻlariga, naqd pul mablagʻlariga, boshqa shaxslarga shartnoma boʻyicha egalik qilishga, foydalanishga, tasarruf etishga berilgan mol-mulkka, ushbu mol-mulkka doir mulk huquqi ularga oʻtmagan holda, agar soliq majburiyati ijrosini taʼminlash uchun bunday shartnomalar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan boʻlsa va

boshqa mol-mulkka, bundan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan jismoniy shaxsning yoki uning oila aʼzolarining kundalik shaxsiy foydalanishi uchun moʻljallangan mol-mulk mustasno tariqasida ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi. Bunda soliq qarzi jismoniy shaxsning pul mablagʻlari koʻrinishida boʻlmagan mol-mulki hisobidan undirilgan taqdirda, soliq qarzi bunday mol-mulk realizatsiya qilingan va undan kelib tushgan summalar hisobidan toʻlangan paytdan eʼtiboran toʻlangan deb hisoblanadi<sup>105</sup>.

**Umumiy xulosa qilganimizda,** Oʻzbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslarning soliq qarzдорligini undirilishi ketma-ketligida birinchi navbatda soliq toʻlovchini xabardor qilish va ularga soliqchi-koʻmakchi tamoyili asosida yondashuvni amalga oshirish undan keyin ham toʻlov amalga oshirilmagan taqdirda talabnoma va hisobvaraqlariga inkassa topshiriqnomalari orqali, shuningdek, majburiy undirish jarayonlari amalga oshirilishi belgilangan. Bu majburiy undirishda sud qarori orqali undirish choralari koʻrilishi va soliq toʻlovchilarni yanada tadbirkorligini tiklash yoki davom etishlari uchun soliq rejimlarini tanlashda koʻmak berilishi muhim hisoblanmoqda.

---

<sup>104</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси (www.soliq.uz), 31.12.2019 й., Солиқ кодекси

<sup>105</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 110-моддаси



## **2.2-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlarining amaldagi holati tahlili**

Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga soladi. Ushbu ta'sir darajasi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, tadbirkorlikka qiziqishni va mulk saqlanadigan davlatni belgilaydi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo'lsa, daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo'lgan qiziqishlar birmuncha so'nadi, aksincha, soliq yuki kam bo'lsa, aks holat yuz beradi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i etti pog'onali shkalada va eng yuqori stavkasi 60 foiz miqdorida undirilgan.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ish haqi fondiga soliq yukini kamaytirish masalasi birinchi asosiy yo'nalish sifatida belgilanishi natijasida 2019-yildan boshlab esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining 4 pog'onali stavkalari o'rniga oylik maosh miqdoridan qat'iy nazar yagona 12 foizlik stavka joriy etildi. Bundan tashqari fuqarolarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlaridan Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan 8 foizli sug'urta badali bekor qilindi. Natijada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilar soni 2018-yilda 3921609 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, 780831 nafarga ko'paygan holda 4702440 nafarni tashkil etgan. Shunga mos ravishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi ham 2018-yilda 6423 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, 197 foizga oshgani holda 12668 mlrd. so'mni tashkil etgan<sup>106</sup>.

Yangi soliq siyosati doirasida 2019-yilda ish haqiga soliq yuki 1,5 barobarga kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8 apreldagi PF-101-sonli farmoni bilan 2022-yil 1-maydan boshlab norezident

---

<sup>79</sup> Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. 125-модда. Lex.uz-Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2022 йил. www.soliq.uz

jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan oladigan daromadlari (dividendlar, foizlar va fraxtdan olinadigan daromadlardan tashqari) bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi 12 foiz miqdorida (avval 20 foiz edi) belgilanishi hisobiga qariyb 196 ta korxonada ixtiyorida qo'shimcha 34,4 mlrd. so'mga yaqin mablag' qolishiga erishildi.

Hozirda aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash orqali ular turmush sharoitini yaxshilashni soliq mexanizmi orqali rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda aholiga jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha turli shakldagi ko'plab soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Prezident farmon va qarorlari, hukumat qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan joriy etilmoqda. Bugungi kunda aholining daromadlari tarkibi va uni tashkil etish manbai tahlil qilinganda, aholi daromadlarining asosiy manbai, qariyb 70 foizi oylik ish haqi, 15 foizga yaqini esa tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarga to'g'ri kelmoqda<sup>107</sup>. Shunga ko'ra, jismoniy shaxslarga daromad solig'idan berilayotgan imtiyozlarning asosiy qismi ish beruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni soliq agentlari tomonidan qo'llanilmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qo'llanilayotgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning huquqiy asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'pi, ya'ni 85-90 foiz imtiyoz Soliq kodeksi asosida foydalanilayotgan imtiyozlar hisoblanadi. Chunki soliqqa tortish amaliyotida daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar, Soliq kodeksi asosida soliq subyektlari (soliq to'lovchilar)ga nisbatan ayrim toifadagi jismoniy shaxslarni soliq solishdan to'liq ozod qilish yoki soliq solishdan qisman (ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun daromadlari qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari yoki 3 baravari miqdoridagi daromadlari bo'yicha) ozod qilish tarzida qo'llaniladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i obyektlariga nisbatan esa soliq imtiyozlari soliq

---

<sup>107</sup> [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

solinmaydigan yoki qisman soliq solinmaydigan (soliq davrida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdordagi moddiy yordam, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi sovg‘alar) daromadlar shaklida qo‘llaniladi<sup>108</sup>.

Shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mazkur soliq bo‘yicha ham O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida maxsus soliq stavkalari qo‘llanilishi, ayrim hollarda va alohida sharoitlarda (masalan, pandemiya davrida) vaqtinchalik soliq imtiyozlari Prezidentning tegishli farmon va qarorlari bilan ham joriy etilishi mumkin. Jumladan, Soliq kodeksining 480<sup>2</sup>-moddasida O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida daromad solig‘ining 1 foizlik stavkasi qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan. Soliq kodeksining 75-moddasida soliq imtiyozlari Soliq kodeksi bilan taqdim etilishi, ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari Soliq kodeksi qoidalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkinligi ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda Soliq kodeksida nazarda tutilgan ayrim maqsadli imtiyozlarga doir nizom yoki tartiblarning mavjud emasligi, ularning Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, ayrim hollarda Prezident farmon va qarorlarida belgilab qo‘yilgan imtiyozlar bo‘yicha Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarning o‘z vaqtida kiritilmasligi soliq agentlari tomonidan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llashda yoki soliq organlari tomonidan imtiyoz chegirmalarini taqdim etishda muammo (turli xil talqin qilish, tushunmovchilik)larni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, Soliq kodeksida nazarda tutilgan maqsadli imtiyozlar, jumladan, 378-moddaning birinchi qismi 16-bandi birinchi xatboshisida soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olish (o‘zining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta‘lim olishi) uchun yo‘naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan ish

---

<sup>108</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон

haqi va boshqa daromadlariga soliq solinmasligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomda<sup>109</sup> esa jismoniy shaxslarga soliq chegirmasi o'qish uchun to'lov: o'z mablag'lari; jismoniy shaxsga tijorat banklari tomonidan berilgan ta'lim kreditlari (foizlari bilan); yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga qaytarish sharti bilan berilgan mablag'lari (ssudalar) hisobidan amalga oshirilganda, taqdim etilishi nazarda tutilgan.

Shunga ko'ra, yuqorida nazarda tutilgan imtiyoz soliq to'lovchining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta'lim kreditlariga (foizlari bilan) qoplashga yo'naltirilgan daromadlariga nisbatan ham qo'llanilishiga doir norma 2022-yil 1-yanvardan Soliq kodeksiga ham kiritildi<sup>110</sup>. Ammo soliq chegirmasi o'qish uchun to'lov yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga qaytarish sharti bilan berilgan mablag'lari (ssudalar) hisobidan amalga oshirilganda ham taqdim etilishi Soliq kodeksiga kiritilmagan. Natijada soliq qonun hujjatlaridagi nomuvofiqlik evaziga soliq imtiyozini qo'llash yoki soliq chegirmalarini qaytarishda tushunmovchilikka olib keladi. Shuningdek, Prezident farmonlari bilan belgilangan ayrim imtiyozlardan kelib chiqib, Soliq kodeksiga tegishli qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'ladi. Masalan, Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida Prezident farmoni bilan 2022-yil 1-apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan to'lovlari daromad solig'idan ozod etilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur farmonda ham ushbu imtiyozdan kelib chiqqan holda Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish vazifasi belgilab qo'yilgan. Ammo Soliq kodeksiga ushbu imtiyozlarga doir qo'shimchalarning o'z vaqtida kiritilmaslik holatlari imtiyozlarni soliq agentlari tomonidan qo'llashda muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.


---

<sup>109</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/CK/4256-сон

<sup>110</sup> Qonun hujжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/CK/4256-сон

Yuqoridagilarga ko‘ra, soliq to‘lovchilar, jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish borasida mavjud imtiyozlarni doimiy ravishda inventarizatsiya qilib borish, ularning ijrosini kuzatib borish, aholi va jamiyat uchun foydaliligini baholash, muayyan soliq imtiyozlarini joriy etishda belgilangan maqsadlarga erishish darajasining tahlil qilinishi zarur bo‘ladi. Bu borada Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qonunchilik hujjatlari bilan berilgan soliq imtiyozlari hisobini yuritish hamda ulardan tadbirkorlik subyektlari tomonidan maqsadli foydalanishini ta‘minlash maqsadida joriy yilda soliq imtiyozlari hisobini avtomatik tarzda yuritish imkonini beruvchi “E-imtiyoz” avtomatlashtirilgan axborot tizimi amaliyotga joriy qilindi. Soliq to‘lovchilar uchun soliq imtiyozlaridan foydalanishida yanada qulaylik yaratish, maqsadlarga qo‘shimcha soliq yuki tushishini anglatadi. Ko‘p hollarda kam daromad oluvchi uy xo‘jaliklarini himoya qilish maqsadida imtiyozlar beriladi. Biroq ko‘p mamlakatlardagi amaliyot tahlili buning aksini ko‘rsatadi. Imtiyozlarni taqdim etish natijasida narxlar pasaysa ham, aksariyat hollarda yuqori daromad oluvchi uy xo‘jaliklarida asosiy mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning iste‘moli ortadi.

Hukumatimiz tomonidan so‘nggi yillarda berilgan imtiyozlarini xatlovdan o‘tkazish, ularning samarasizlarini bekor qilish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun berilgan imtiyozlarni bir xillashtirish zarurligi to‘g‘risida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va bu borada soliq imtiyozlari tarkibini o‘rgangan holda oqilona qaror qabul qilishni taqozo etmoqda.



### 2.5-rasm. Soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi<sup>111</sup>

Taqdim etilgan imtiyozlardan, asosan, aynan soliq to'lovchilar naf ko'radigan holatlarni tahlil qilishimiz kerak. Binobarin, soliq bazasidan chiqarib tashlangan soliqning progressivligi emas, balki regressivligi oshishini kuzatish lozim. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, daromadlarni soliqqa tortishda imtiyozlar tarkibi va ularning samaradorligi tahlil qilinganda, 2.5-rasmdagi masalalarga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Mazkur 2.5-rasmda joriy etilgan soliq imtiyozlarini qo'llash (yoki foydalanish) tartibining aniqligi va ishlash mexanizmining mavjudligi jismoniy shaxslarni faoliyatiga alohida e'tibor qaratish hisoblanib, ayniqsa yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq imtiyozlari muhim ahamiyatni kasb etadi. Mazkur muhim yakka tartibdagi tadbirkorlarni miqdori oshishga va vaqtinchalik o'z faoliyatini to'xtatgan tadbirkorlar o'z faoliyatlarini tiklab, daromad olish manbasini oshirishga erishdilar.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga<sup>112</sup> muvofiq, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq imtiyozlari hamda preferentsiyalar, jumladan, individual imtiyozlar berilgan subyektlar, ularning yakuniy benefitsiar

<sup>111</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>112</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16-июндаги ПФ-6247-сон Фармони

jismoniy shaxslari, to‘lagan soliqlari va moliyaviy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi axborotlar ochiq e‘lon qilib kelinmoqda<sup>113</sup>. Buning natijasida soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar o‘zlari imtiyozlarni qo‘llashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarini to‘g‘ri tushungan holda imtiyozlardan samarali foydalanish usullarini o‘z tajribalaridan kelib chiqib qo‘llamoqdalar.

Soliq imtiyozlari soliq Kodeksi bilan taqdim etiladi ammo ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari davlatimiz rahbari qarorlari bilan uch yil muddatgacha faqat belgilangan soliq stavkasini ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida berilishi mumkin. Bundan tashqari soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emas. Imtiyozlar hisobini yuritish maqsadida qo‘mita tomonidan “imtiyoz.soliq.uz” dasturi yaratilgan bo‘lib har bir soliq imtiyoziga ID-kod berilgan. Bugungi kunda ushbu dasturga jami 4015 ta soliq imtiyozlari kiritilgan bo‘lib shundan 1421 tasi amalda, qolgan 2594 tasining amal qilish muddatlari tugagan yoki bekor qilingan imtiyozlarga to‘g‘ri keladi. Imtiyozlarni sohalar kesimida aytadigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun foyda soliq stavkasi 0 foiz va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va saqlash uchun, shuningdek, ipak qurti etishtirish uchun foydalaniladigan mol-mulk solig‘idan ozod etiladi hamda yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan erlar besh yil muddatga yer solig‘i to‘lashdan ozod etiladi.

Baliqchilikni rivojlantirish maqsadida 2023-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatda lichinka, baliq chavoqlari va baliq etishtirishdan, baliqchilik mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashdan olingan daromadlar bo‘yicha aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan ozod etilgan. Baliqlarni yetishtirish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan mol-mulklar bo‘yicha mol-mulk solig‘idan ozod qilingan. Baliqchilikni intensivlashtirish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va texnologiyalar hamda qayta ishlash uskunalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan, biroq daromadining 80 foizidan ortig‘ini ushbu uskunalarni ishlab chiqarishdan oladigan subyektlar uchun 2025-yil 1-yanvarga qadar foyda solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan

---

<sup>113</sup> [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50 foizga kamaytiriladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishni tahlil qilganimizda chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 2025-yil 1-yanvarga qadar 1 foiz etib belgilandi.

Soliq imtiyozlariga hududlar kesimida ahamiyat beradigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston Respublikasining har bir shahar va tumani uchun "o'sish nuqtasi" deb belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, Taxtako'pir, Bo'zatov va Shumanay tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlarida, tog'li hududlarida va er maydonlari sho'rlangan hududlarida joylashgan, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik hamda sanoat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari (bundan klasterlar mustasno) - 2024-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan muddatda mol-mulk solig'ini, yer solig'ini, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod qilinadi, ushbu soliq to'lovchilar foyda solig'ini va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilangan soliq stavkasidan 50 foiz pasaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'laydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan aniqlangan ro'yxat bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan va og'ir sharoitlardagi 45 ta mahalla va ovullarda joylashgan, yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari - 2026-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan muddatga. Tadbirkorlik subyektlarining mazkur toifasi foyda solig'idan ham ozod qilinadi. Farg'ona viloyatining So'x tumani, Rishton tumanining Cho'ng'ara mahallasi, Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa – 2 ko'chasi uchun soliq stavkalari foyda va daromad solig'i bo'yicha – 1 foiz,



tadbirkorlar uchun har chorakda 25 ming so‘m, ijtimoiy soliq bo‘yicha – yuridik shaxslar uchun – 1 foiz, YaTTlar yiliga BHMning kamida 1 baravari, aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha – 1 foiz miqdorlarda belgilandi.

Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlari bo‘yicha soliqni to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga, basharti uning moliyaviy ahvoli ushbu soliqni belgilangan muddatda to‘lash imkonini bermasa, biroq ko‘rsatilgan shaxsda bunday soliqni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash uchun berilgan muddat mobaynida to‘lash imkoniyati yuzaga keladi deb taxmin qilish uchun etarlicha asoslar mavjud bo‘lsa berilishi mumkin. Soliq to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati manfaatdor shaxsga yoki shaxsga nisbatan tabiiy ofat, texnologik falokat yoki boshqa bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar natijasida zarar etkazilganligi, shaxsni byudjetdan (davlat maqsadli jamg‘armalaridan) moliyalashtirish kechiktirilganligi yoki ushbu shaxs tomonidan bajarilgan davlat buyurtmasi, davlat ehtiyojlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining ehtiyojlari uchun bajarilgan ishlar va (yoki) ko‘rsatilgan xizmatlar haqini to‘lash kechiktirilganligi, manfaatdor shaxs soliqni bir yo‘la to‘lashi oqibatida uning nochorligi (bankrotligi) alomatlari paydo bo‘lishi xavfi yuzaga kelganligi, manfaatdor shaxs faoliyatni uch yildan ortiq vaqtdan buyon amalga oshirayotganligi hamda hisoblangan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab kelganligi, ammo moliyaviy ahvoriga ko‘ra soliq qarzini belgilangan muddatlarda to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmaganligi, agar manfaatdor shaxs (tadbirkorlik subyekti) ushbu Kodeks 101-moddasining birinchi qismiga binoan soliq to‘lashni kechiktirish huquqi to‘g‘risidagi xabarnomani yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran uch oy ichida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tganligining qayd raqamini va sanasini ko‘rsatgan holda soliq organlariga yuborgan bo‘lsa, shuningdek, jismoniy shaxsning mulkiy holati (qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk hisobga olinmaganda) soliqni bir yo‘la to‘lash imkoniyatini istisno etishi,

manfaatdor shaxs tomonidan tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish mavsumiy xususiyatga ega ekanligi, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tilishi munosabati bilan bojxona to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish uchun asoslardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda berilishi mumkin.

Soliqlarni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan bo'lsa, kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davrida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda foizlar hisoblanadi. Joriy yil boshidan 48 ta soliq to'lovchining jami 227,1 milliard so'mlik soliq qarzdorligini to'lash muddati kechiktirilgan. Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida 84 ta faoliyat turi bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tib ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin (Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-sonli qarori). Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovar aylanmasi yuz million so'mgacha qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i, yuz million so'mdan bir milliard so'mgacha aylanmadan olinadigan soliq, bir milliard so'mdan oshganda umumbelgilangan tartibda foyda va QQS to'laydi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliqlar soliq Kodeksi bilan belgilanadi. Misol uchun: oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish, Toshkent shahri 750 000 so'm, Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar 600 000 so'm, boshqa shaharlar 300 000 so'm, boshqa aholi punktlari 200 000 so'mni tashkil etadi. Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari uchun yuk ko'tarish quvvatiga qarab respublika bo'yicha bir hil stavka belgilangan 3 tonnagacha 150 000 so'm, 3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 225 000 so'm belgilangan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullanganida, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'laydi, faoliyat bilan ikki va undan ortiq aholi punktlarida shug'ullanganida esa, ushbu aholi punktlari uchun o'rnatilgan yuqori stavkada soliq to'lanadi. I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxs

hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat'iy nazar, oyiga qat'iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydi, "Hunarmand" uyushmasi a'zosi bo'lgan va hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lashdan ozod etiladi, xalq deputatlari tumanlar va shaharlar kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek, faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyligiga qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida, faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda, oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida to'laydilar.

Qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan "Hunarmand" uyushmasi a'zosi bo'lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarida, tashkilotlarda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, ishlamaydigan eri (xotini) uchun soliq to'lovini amalga oshiruvchi ishlayotgan fuqarolar tomonidan

yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda, quyidagi soliq to'lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to'lanadi. "Hunarmand" uyushmasining a'zosi bo'lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari, "Usta-shogird" maktablari o'quvchilari - ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrda, dehqon xo'jaliklari, shuningdek, maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan soliqni to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oyda amalga oshiriladi. Respublika tumanlarida (bundan Toshkent shahri mustasno) faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 1-yanvarga qadar bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida qo'llaniladi. O'zini-o'zi band qilish bo'yicha, aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar o'zini o'zi band qilgan holda 68 ta faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkin. O'zini-o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish xabar berish tartibida o'zini-o'zi band qilgan sifatida ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) bergan holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi.

Joriy yilning 1-iyun holatiga jami 1 720 423 nafar fuqaro o'zini-o'zi band qilgan. Ularning 565 843 nafari joriy yilda o'zini-o'zi band qilgan shaxs maqomiga ega bo'lgan. Joriy yil boshidan buyon 159,4 ming nafar o'zini-o'zi band qilgan shaxs tomonidan jami 40,7 mlrd. so'm ijtimoiy soliq to'langan. O'zini-o'zi band qilgan

shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi. Mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda to‘laydi.

Yer solig‘i stavkasini hisoblab chiqarish tartibi yuzasidan, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda soliq Kodeksi bilan belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi. Tuman va shaharlar xalq deputatlari kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida belgilaydi va belgilangan tartibda aniqlanadi.

Misol uchun Xorazm viloyatining Tuproqqal’a tumani Sarimoy MFYga viloyat hamda tuman XDK tomonidan 0,7 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llanilishi natijasida soliq stavkasi 29,0 mln. so‘mdan 14,4 mln.so‘mga kamaytirilgan. Faoliyat ko‘rsatmayotgan soliq to‘lovchilarni qayta tiklash bo‘yicha soliq to‘lovchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan to‘qqiz oy davomida moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan (bank hisob raqamlari orqali pul aylanmasini amalga oshirmayotgan) soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat soliq organlariga elektron tarzda berib boriladi va soliq to‘lovchining holati “faoliyat ko‘rsatmayotgan soliq to‘lovchilar” reestriga kiritiladi. Soliq to‘lovchining faoliyatini qayta tiklash uchun soliq to‘lovchilar bank hisobraqamlari orqali pul aylanmasini amalga oshirishlari va davlat xizmatlari markaziga faoliyati qayta tiklanganligi to‘g‘risida murojaat qilishlari lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, jismoniy shaxslarga beriladigan soliq imtiyozlari asosan ularni boshlang‘ich ish faoliyatlarini kengaytirishga, shuningdek,

solliq rejimlaridan to'g'ri va oqilona foydalangan holda aylanma mablag'larini ko'proq investitsiya shaklida foydalangan holda o'z tadbirkorligini kengaytirishga undamoqda. Imtiyozlarni belgilangan maqsadlar sari qo'llanilishi ularni daromad manbaini ko'paytirishga va tadbirkorlarni va ularni xodimlarini mas'uliyatini yanada oshirishga imkoniyat yaratadi. Tadbirkorlik faoliyatida solliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish hujjatlarni elektron aylanishi va inson omilisiz avtomatik ravishda qarorlar qabul qilish tizimini yaratishga, shuningdek, solliqqa tortishning adolatli printsiplar yanada mustahkamlashni taqozo etmoqda.

### **2.3-§. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida solliqlarni hisoblash va undirishning amaldagi holati tahlili**


Iqtisodiy islohotlarga mos ravishda mamlakatimiz solliq tizimida chuqur o'ylangan chora-tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini solliqqa tortishda qator samarali hamda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlat solliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiy tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, solliq yuki ham yuqori bo'lsa daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo'lgan qiziqishlar bir muncha so'nadi, aksincha, solliq yuki kam bo'lsa aks holat yuz beradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning daromadlarini to'liq hisobini yuritish va ijtimoiy ahamiyatga ega solliq chegirmalarini qo'llashda daromadlarni deklaratsiyalash usuli yuqori samara beradi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va daromad topishga erkinlik yaratish bilan birgalikda ushbu daromadlarning qonuniyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda deklaratsiyalash tizimi orqali fuqarolar daromadlarining hisobga olinishi va adolatli solliqqa tortilishi ta'minlanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solliq stavkalarini pasaytirish va hisobga olish, daromadlarning qonuniyligini ta'minlash va solliqlarni to'liq to'langanligini nazorat qilish

mexanizmini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib, bu daromadlarni deklaratsiyalash tizimini joriy etish va uni to'liq kompyuterlashtirishni taqozo etadi.

Deklaratsiya jismoniy shaxslarning soliq organlariga hisobot davridagi daromadlari va o'zlariga bevosita daxldor bo'lgan soliq imtiyozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishni anglatadi. Soliq deklaratsiyasi va soliq stavkalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliqni Davlat soliq xizmati organlari nazorat qiladilar. Yillik jami daromad haqidagi soliq deklaratsiyasini, odatda, asosiy ish joyidan tashqarida daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek hisobot yilida asosiy ish joyiga ega bo'lmagan va qonunchilik doirasida boshqa manbalardan daromad olgan barcha toifadagi jismoniy shaxslar taqdim etishlari shart hisoblanadi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining 16-rasmda keltirilgan daromadlari kiradi.



## 2.6-rasm. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar tarkibi tahlili

Mazkur 2.6-rasmda agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs, mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlari qoidalaridan qat’iy nazar, soliq Kodeksining 192-moddasida<sup>114</sup> nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etadi.

«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2002-yil 5-sentabrdagi «Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3127-sonli farmoni hamda Adliya vazirligida 2008-yil 21-yanvarda 1760-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining «Soliq deklaratsiyasining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2012-yil 11-fevraldagi 64-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan. «Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarning asosiy va asosiy bo‘lmagan ish joylaridan olgan daromadlari haqidagi ma’lumotlarni kompyuter bazasiga kiritish, qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan natijalarni shaxsiy hisobvaraqlariga o‘tkazish, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalarini, shuningdek, barcha zaruriy hujjatlarni chop etish uchun mo‘ljallangan. Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatishning maqsadi va vazifalariga Davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslardan soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va uni dasturiy mahsulga kiritishning asosiy maqsadi va vazifasi soliq to‘lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ma’lumotlarning elektron ko‘rinishda saqlash va soliq to‘lovchilar ustidan vertikal nazoratni o‘rnatish hamda tahlil qilishni soddalashtirish va qulaylashtirish hamda soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsul orqali qabul qilish sarf xarajatlarini kamaytirishga va davlat soliq xizmati hamda deklarantlarning vaqtini tejash, shuningdek, soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan axborot xizmatlar sifatini oshirish, soliq to‘lovchi hamda soliq organlarining o‘zaro munosabatlarida

---

<sup>114</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,(www.lex.uz), 31.12.2019 й. Солиқ кодекси



subyektiv aralashuvlarga chek qo'yish. Dasturiy mahsul texnik soz holatda bo'lishini ta'minlash axborot tizimi sho'basi xodimlari hamda soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va mazkur ma'lumotlarni dasturga kiritish va ularning tahlilini olib borish va dasturiy mahsulga kiritilgan ma'lumotlarni DSQning yagona ma'lumotlar bazasiga yuklash jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2019-2022-yillar davomida deklaratsiya topshirgan fuqarolarni soni dinamikasi tahlili<sup>115</sup>**

<b>№</b>	<b>Hududlar</b>	<b>2018-yilda deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni</b>	<b>2019-yilda deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni</b>	<b>2020-yilda deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni</b>	<b>2021-yilda deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni</b>	<b>2022-yil 1 dekabr holatiga deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni</b>
1	Andijon viloyati	30 203	45 373	43 073	20 306	16 091
2	Buxoro viloyati	34 300	42 200	28 139	22 972	24 934
3	Jizzax viloyati	14 499	15 948	13 908	19 584	23 911
4	Qashqadaryo viloyati	23 904	35 140	26 848	26 661	33 385
5	Navoiy viloyati	31 627	35 329	27 720	18 866	20 786
6	Namangan viloyati	19 291	28 706	22 623	26 875	32 160
7	Samarqand viloyati	42 716	44 106	37 524	64 639	52 866
8	Surxondaryo viloyati	20 933	50 131	29 515	42 839	30 127
9	Sirdaryo viloyati	14 813	15 051	12 679	16 023	20 666
10	Toshkent shahri	149 791	165 183	138 555	111 754	151 770
11	Toshkent viloyati	57 931	54 237	51 845	55 727	60 010
12	Farg‘ona viloyati	24 776	29 902	28 493	54 850	40 831
13	Xorazm viloyati	11 538	15 375	12 064	30 830	22 632
14	Qoraqalpog‘iston Resublikasi	13 283	18 901	18 265	25 873	25 302
	<b>Jami</b>	<b>489 605</b>	<b>595 582</b>	<b>491 251</b>	<b>537 799</b>	<b>555 471</b>

<sup>115</sup> Muallif ishlanmasi

Soliq deklaratsiyasini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash xizmatining mazmuniga soliq organlari tomonidan soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, ro'yxatga olish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash, elektron hujjat ko'rinishida soliq deklaratsiyalarini yuborgan soliq to'lovchilarga, ularni qabul qilinganligi yuzasidan tasdiqnoma yuborish, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan hisobotlar yuzasidan yozma bildirishni jo'natish, soliq to'lovchi tomonidan, yozma bildirish olingandan so'ng, belgilanmagan shaklda taqdim etilgan soliq deklaratsiyalarini qaytadan to'g'ri shakllantirish va o'rnatilgan tartibda soliq idoralariga taqdim etilishini nazoratga olish va dasturiy mahsulga belgilangan tartibda kiritish, taqdim etilgan deklaratsiyani amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlar davomida saqlash, soliq deklaratsiyasini qabul qilish, dasturiy mahsulga kiritish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar Davlat soliq qo'mitasining rasmiy web - portali orqali amalga oshiriladi. Respublika bo'yicha jami daromadlarni deklaratsiyalash tizimini tahlil qilganimizda asosan deklaratsiya topshirgan fuqarolar va ularga hisoblangan soliqlar, shuningdek, ularni undirish protsesslariga alohida e'tiborni qaratdik. Buni 2.7-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

9-jadvalning tahliliy ma'lumotlarida 2022-yil 11 oy davomida o'tgan yillarga nisbatan o'rtacha 104,0 foizga ko'p fuqarolar soliq oganlariga deklaratsiya topshirgan. Birgina 2020-yilga e'tibor qaratadigan bo'lsak, fuqarolarni deklaratsiya topshirish ko'rsatkichlari kamayib ketgan. Buning asosiy sabablaridan ijara shartnomalari bo'yicha dastlabki deklaratsiya asosida soliqqa tortish davomida ko'chmas mulklarni ijrası bo'yicha tekinga foydalanish huquqi asosida soliq organlaridan ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritganlar. 2022-yilga kelib 11 oy davomida fuqarolarni deklaratsiya topshirish ko'rsatkichlarini birdaniga oshib ketish sabablari 2022-yil 2-apreldagi 150-sonli qaror bilan ijara shartnomalarni majburiy tartibda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish tartibi belgilab berildi.

Yuqorida keltirilgan fuqarolarni deklaratsiya asosida soliqqa tortish natijasida ularga hisoblangan va to'langan soliqlarni tahlil qilinganda 2017-2022-yillar davomida hisoblangan soliq summasi va shu bilan mutanosib ravishda soliq tushumlari ham kamayib ketgan.

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2019-2022-yillar davomida deklaratsiya topshirgan fuqarolarga hisoblangan va to‘langan daromad solig‘i dinamikasi tahlili<sup>116</sup>**

№	Xududlar	2018-yil		2019-yil		2020-yil		2021-yil		2022-yil	
		Hisoblangan	Undirilgan	Hisoblangan	Undirilgan	Hisoblangan	Undirilgan	Hisoblangan	Undirilgan	Hisoblangan	Undirilgan
1	Andijon viloyati	5 636,0	4 570,6	13 266,1	9 506,1	11 164,4	4 395,1	8 246,9	3 786,7	8 406,5	6 285,2
2	Buxoro viloyati	6 884,3	6 371,6	8 224,2	7 972,4	8 380,1	5 106,3	9 164,5	6 847,5	10 597,5	8 412,2
3	Jizzax viloyati	2 754,2	3 144,8	3 533,7	3 087,5	3 065,9	2 061,0	4 647,0	3 186,9	7 516,4	4 058,1
4	Qashqadaryo viloyati	4 172,9	3 527,3	7 617,0	7 457,4	6 364,9	5 411,8	8 520,1	5 341,7	14 596,4	10 764,2
5	Navoiy viloyati	5 352,4	4 928,6	5 668,2	5 580,7	4 891,6	5 205,0	5 380,8	5 820,7	8 310,5	9 907,8
6	Namangan viloyati	4 484,4	4 949,4	6 697,2	5 326,4	5 074,0	2 699,2	8 846,1	4 740,5	11 141,2	5 372,5
7	Samarqand viloyati	6 344,6	6 948,4	9 546,4	8 505,1	8 988,8	6 306,2	18 005,5	8 700,7	20 329,0	9 420,3
8	Surxondaryo viloyat	5 911,0	5 344,7	11 250,2	7 979,7	7 311,5	3 938,4	8 110,2	5 311,6	11 425,8	7 289,8
9	Sirdaryo viloyati	3 642,4	3 987,1	4 169,0	3 974,6	3 230,0	2 156,6	3 479,3	2 603,2	5 368,3	3 502,8
10	Toshkent shahri	57 544,9	66 894,4	114 232,6	105 653,9	81 678,2	115 296,5	119 603,0	116 157,1	135 063,2	144 393,9
11	Toshkent viloyati	9 532,8	9 124,3	13 800,2	13 020,3	11 056,6	10 543,0	21 062,7	16 080,0	24 856,0	20 930,3
12	Farg‘ona viloyati	4 896,2	5 150,9	7 619,2	6 657,0	8 599,8	4 590,6	13 777,8	7 848,4	16 423,8	10 517,9
13	Xorazm viloyati	2 763,5	3 197,1	4 474,9	4 018,3	3 542,2	2 440,2	6 034,8	5 812,4	10 617,4	8 895,8
14	Qoraqalpog‘iston Resublikasi	3 026,8	3 133,6	5 555,8	5 230,1	4 420,3	2 733,1	5 793,8	4 873,6	8 884,9	7 556,0
	<b>Jami</b>	<b>122 946,4</b>	<b>131 272,8</b>	<b>215 654,6</b>	<b>193 969,4</b>	<b>167 768,2</b>	<b>172 883,0</b>	<b>240 672,3</b>	<b>197 111,0</b>	<b>293 536,9</b>	<b>257 306,7</b>

<sup>116</sup> Muallif ishlanmasi

Buning asosiy sabablaridan biri 2019-yil yakuni va 2020-yillar davomida Soliq qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib aholining real daromadlarini oshirish maqsadida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining progressiv stavkasidan voz kechilib, yagona 12 foiz stavka belgilab qo'yildi. Soliq stavkalarining pasaytirilishiga qaramay, ishchilar sonini legallashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratilishi hisobiga davlat byudjetida daromad solig'i o'ziga xos salmoqqa ega bo'lmoqda. Barcha soliqlar qatorida aholidan olinadigan daromad solig'ining qonuniy asoslari ham Soliq kodeksida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i sifatida aks ettirildi. Keyinchalik 2007-yilda hamda 2019-yilda Soliq kodeksining yangi tahrirlari qabul qilindi. Natijada jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tizimi ham takomillashib bordi (2.8-jadval).

Xuddi shuningdek, hududlar kesimida tahlil qilganimizda Toshkent shahrida ham deklaratsiya asosida soliqqa tortish soliq islohatlaridan keyin yanada soliq tushumlarida va ularga hisoblangan soliqlar takomillashib bordi (2.9-jadval).

## 2.9-jadval

### Toshkent shahri bo'yicha 2020-2022-yillar davomida deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni dinamikasi tahlili<sup>117</sup>

№	Hududlar nomi	Deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni 31.12.2020-yil	Deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni 31.12.2021-yil	Deklaratsiya topshirgan fuqarolar soni 01.12.2022-yil
1	Mirobod	11 033	8 008	9 032
2	Mirzo-Ulug'bek	19 173	14 372	19 769
3	Yunusobod	18 221	12 746	10 111
4	Yakkasaroy	8 242	6 644	9 209
5	Shayxontoxur	12 028	9 152	11 162
6	Chilonzor	17 147	13 326	9 867
7	Sirgali	11 677	9 008	5 991
8	Yashnobod	16 845	15 561	17 050
9	Olmazor	9 987	7 967	4 106
10	Uchtepa	12 029	9 078	10 111
11	Bektemir	2 451	2 229	3 062
12	Yangihayot	0	3 663	4 007
<b>Toshkent shahri</b>		<b>138 833</b>	<b>111 754</b>	<b>113 477</b>

<sup>117</sup> Muallif ishlanmasi

Toshkent shahrida jismoniy shaxslarni daromadlarini deklaratsiyalash 2022-yil 11 oy davomida 2020-yilga nisbatan fuqarolarni deklaratsiya topshirganlar soni kamayib ketgan. Bu o‘z nafaqatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini-o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori qabul qilinishi va 2021-yildan fuqarolar o‘zini-o‘z band qilgan shaxslar toifasiga o‘tganligi sababli hisoblangan va undirilgan soliqlar ham kamayib ketgan (2.9-jadval).

### 2.10-jadval

#### Toshkent shahri bo‘yicha 2020-2022-yillar davomida deklaratsiya topshirgan fuqarolarga hisoblangan va to‘langan daromad solig‘i dinamikasi tahlili<sup>118</sup>

№	Hududlar	2018-yil		2019-yil		2020-yil	
		Hisoblangan daromad solig‘i	Undirilgan daromad solig‘i	Hisoblangan daromad solig‘i	Undirilgan daromad solig‘i	Hisoblangan daromad solig‘i	Undirilgan daromad solig‘i
1	Andijon viloyati	5 636,0	4 570,6	13 266,1	9 506,1	11 164,4	4 395,1
2	Buxoro viloyati	6 884,3	6 371,6	8 224,2	7 972,4	8 380,1	5 106,3
3	Jizzax viloyati	2 754,2	3 144,8	3 533,7	3 087,5	3 065,9	2 061,0
4	Qashqadaryo viloyati	4 172,9	3 527,3	7 617,0	7 457,4	6 364,9	5 411,8
5	Navoiy viloyati	5 352,4	4 928,6	5 668,2	5 580,7	4 891,6	5 205,0
6	Namangan viloyati	4 484,4	4 949,4	6 697,2	5 326,4	5 074,0	2 699,2
7	Samarqand viloyati	6 344,6	6 948,4	9 546,4	8 505,1	8 988,8	6 306,2
8	Surxondaryo viloyat	5 911,0	5 344,7	11 250,2	7 979,7	7 311,5	3 938,4
9	Sirdaryo viloyati	3 642,4	3 987,1	4 169,0	3 974,6	3 230,0	2 156,6
10	Toshkent shahri	57 544,9	66 894,4	114 232,6	105 653,9	81 678,2	115 296,5
11	Toshkent viloyati	9 532,8	9 124,3	13 800,2	13 020,3	11 056,6	10 543,0
12	Farg‘ona viloyati	4 896,2	5 150,9	7 619,2	6 657,0	8 599,8	4 590,6
13	Xorazm viloyati	2 763,5	3 197,1	4 474,9	4 018,3	3 542,2	2 440,2
14	Qoraqalpog‘iston Resublikasi	3 026,8	3 133,6	5 555,8	5 230,1	4 420,3	2 733,1
	<b>Jami</b>	<b>122 946,4</b>	<b>131 272,8</b>	<b>215 654,6</b>	<b>193 969,4</b>	<b>167 768,2</b>	<b>172 883,0</b>

<sup>118</sup> Muallif ishlanmasi

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish borasida dastlabki huquqiy asos sifatida Prezident Farmoni e‘lon qilingan<sup>119</sup>. Boshqa tomondan, fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun gonorardan daromad oladigan jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar kabi faoliyatni davlat ro‘yxatidan o‘tkazmasdan amalga oshirish huquqiga ega.


Ushbu daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini davlat soliq xizmati organining yozma xabarnomasi asosida to‘laydi. Fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs daromad olish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda ijodiy faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak<sup>120</sup>. Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan materiallarni, shuningdek, faqat fan, adabiyot va san‘at asarlarini yaratish, nashr etish, ijro etish yoki boshqa maqsadlarda foydalaniladigan binolar va mulklarni sotib olish xarajatlari kiradi ijara xarajatlari hisoblanadi. Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya soliq to‘lovchining olingan yillik daromadi to‘g‘risidagi yozma arizasidan iborat bo‘ladi. Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo‘yicha to‘langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingani summalari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma‘lumotnoma ilova qilinadi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va

---

<sup>119</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.09.2002 йилдаги ПФ-3127-сон. [www.https://lex.uz/ru/docs/157476](https://lex.uz/ru/docs/157476)

<sup>120</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 393-моддаси.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda 2.7-rasmda keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak<sup>121</sup>.



**2.7-rasm. Jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya shaklidagi ma’lumotlar**

Jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. Jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya pochta orqali ro‘yxatdan o‘tgan xat shaklida, shuningdek, elektron ma’lumot shaklida ham topshirilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalari soliq to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi. Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o‘zgarishlar kiritishi shart. Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi Soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod

<sup>121</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 57-боб.



qilinadi. Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning etishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi<sup>122</sup>.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organidan taqdim etilgan jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi deklaratsiyasida aniqlangan xato to'g'risida xabarnoma olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xato aniqlangan kun hisoblanadi. Jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining yillik daromadi to'g'risida yozma guvohnomadan iborat. Jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin<sup>123</sup>. Jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya pochta orqali ro'yxatdan o'tgan xat shaklida bo'ladi, shuningdek, elektron ma'lumot shaklida ham topshirilishi mumkin. Jismoniy shaxsning yillik jami daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya shakllari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati tomonidan bepul taqdim etiladi. Agar jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi deklaratsiyasida xatolar aniqlansa, bu to'langan shaxsiy daromad solig'i miqdorining pasayishiga olib keladi, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgartirishlar kiritishi shart.

Jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani shaxsiy daromad solig'ini to'lash muddati tugagunga qadar o'zgartirish to'g'risida ariza bergan taqdirda, soliq to'lovchi soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi. Jismoniy shaxsning daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, lekin davlat soliq xizmati tomonidan xatolar aniqlangunga qadar jismoniy shaxsning umumiy yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish

---

<sup>122</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 349-модда

<sup>123</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 350-модда

to'g'risida ariza bergan taqdirda, soliq to'lovchi javobgarlikdan ozod qilinadi va etishmayotgan soliq summasini va tegishli soliq to'lovini to'laydilar.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi<sup>124</sup>. Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, o'sib kelayotgan yosh avlodni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish, aholining ish bilan bandligini ta'minlash hamda oilalar daromadlilik darajasini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Soliq kodeksining 311 va 375-moddalariga kiritilgan qo'shimchalarda yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyektining oila a'zolari uchun qat'iy belgilangan soliqni va sug'urta badallarini to'lash ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab (yoki shu o'tgan oy uchun imtiyozga ega) amalga oshirilishi belgilandi.

Xulosa sifatida, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqqa tortish mexanizmidagi muammolardan ko'ra, aholi daromadlarini oshirish va ularni qonuniyligini ta'minlashga doir muammolar ko'proq. Chunki, haqiqiy erishilgan va qonuniy asosiga ega bo'lgan daromadlarni soliqqa tortish mexanizmi davr talabiga mos ravishda shakllantirilgan. Bu bilan jismoniy shaxslarning olayotgan barcha daromadlari soliqqa tortilayapti, deb bo'lmaydi. Fikrimizcha, soliq deklaratsiyasiga "bu soliq to'lovchilar tomonidan o'zlarining olgan daromad manbalari va miqdorlari haqida tizimlashgan axborotlarni tegishli davlat organlariga taqdim etish shakli va vositasi" deb ta'rif berish lozim. Shu jihatdan olganda soliq deklaratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Soliqlarning muhim xususiyati soliq manbalari va obyektlarini aniqlash va uni ko'paytirishning muhim vositasi ekanligidir. Bu xususiyati soliq xizmati organlari qo'shimcha soliq manbalari haqida ma'lumotga ega bo'lib, ulardan xabardorligi oshadi. Soliq deklaratsiyasining keyingi muhim xususiyati u soliq to'lovchilarga o'zlari olgan daromadlarining

---

<sup>124</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 351-модда

soliqqa tortilish darajasini o‘lchab beradi. Ya’ni soliqqa tortilmay qolgan qismi yoki ortiqcha to‘langan soliqlar xususida axborotga ega bo‘ladi. Uning yana bir xususiyati soliq to‘lovchilarning soliq savodxonligini oshirishga xizmat qilishi hamda soliqlar yig‘iluvchanligi darajasini oshirishga xizmat qilishidir.

### **Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa**

Ushbu bobda soliqqa tortish va soliq ma’murchiligida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishni amaldagi holati tahlili orqali soliq bazasini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo‘nalishlariga alohida urg‘i berilib, unda davlat byudjeti daromadlari bazasini kengaytirishda ko‘chmas mulklarning iqtisodiy ahamiyati, ko‘chmas mulkka soliq solish mulkning raqobatbardoshligini oshirib, mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha soliq solish bazasini belgilashdagi muhim o‘ringa ega ekanligi haqidagi qarashlar tahliliy asoslanib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish uchun tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Soliq ma’murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirishda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun berilgan soliq imtiyozlari, norasmiy faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar faoliyatini legallashtirish, o‘zini-o‘zi band qiish orqali aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Bundan tashqari jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llanilishi tartib tahlili yoritilgan bo‘lib, unda soliq imtiyozlarni samarali qo‘llanilishi va samarasiz imtiyozlarni qisqartirish orqali soliqqa tortish adolatlilik printsiplaridan foydalanish usullarini qo‘llash tartibi yoritilgan. Jismoniy shaxslar daromadlarining tarkibi, jismoniy shaxslarning mehnat haqi va unga tenglashtirilgan shaklda oladigan daromadlari, moddiy naf tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar – fuqarolarga mulk huquqida tegishli bo‘lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan daromadlar ekanligi, mulkiy daromadlarning tarkibiy tuzilishi o‘rganib chiqilgan. Yillik daromad haqidagi deklaratsiyani taqdim etuvchi jismoniy shaxslar toifasi, deklaratsiya taqdim etuvchi chet el fuqarolari, yillik umumiy daromad tarkibiga kiritiluvchi daromadlar, soliqqa tortiluvchi daromaddan chegirmalar va jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq bo‘yicha

imtiyozlar jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishning mohiyati va zarurligi o'rganib chiqilgan.

Ushbu bobda yakka tartibdagi tadbirkorlik, jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va majburiyatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda talab qilinadigan hujjatlar, yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga belgilangan muddatlar va uni rad etish tartibi yoritilgan.

### **III BOB. JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQLARINI UNDIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**


#### **3.1-§. O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning soliqlarini undirishda mavjud muammolar**

Soliq idoralarida soliq siyosatini amalga oshirilishi, soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlik va mavjud byurokratik to‘siqlar, sohadagi mavjud tizimli muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha soliq xizmati organlari va huquqini muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha asosiy muammolardan kadastr muammosi hisoblanadi. Har bir fuqaro o‘zi yashab turgan turar joy binosini kadastr qilish uchun bir nafar fuqaro davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun o‘rtacha 500,0 ming so‘m, pasportini tayyorlatish uchun o‘rtacha 1000,0 ming so‘m jami 1500,0 ming so‘m sarflaydi. O‘zbekistonda juda ko‘p fuqarolar oylik 1500,0 ming so‘mdan 2000,0 ming so‘mgacha ish haqi oladi. Shunga asosan kadastr hujjatini tayyorlashda to‘lovlarni keskin kamaytirish kerak. Natijada to‘liq kadastr qilishga erishiladi va bu bilan soliq solish obyektlari ko‘payadi va tartibga keladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha soliq qarzdorligi yuqorligicha qolmaqda. Bu mol-mulk va yer soliqlarini undirishni amaldagi holatida faqat soliq organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarini ishtiroki asosida soliq qarzdorligini undirish choralari ko‘rilmogda. Mazkur jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini qisqartirishda mahalliy hokimiyat va o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini ham jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki hozirgi kunda har bir mahallaga Vazirlar Mahkamasining qarori<sup>125</sup> bilan hokim yordamchilari tayinlangan. Hokim yordamchilari bu masalada hamkorlikda ishlash uchun qulay va samarali natija beradigan yordamchi davlat tashkilot sifatida ishtiroki ta‘minlanishi lozim («17-rasmga qarang»).

---

<sup>125</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 03.12.2021 йилдаги ПҚ-31-сон.



**3.1-rasm. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk va yer soliqlarining mahallalar tomonidan undirilishi sxemasi**

Mazkur 3.1-rasmda kadastr palatasi soliq xizmati organlariga ko‘chmas mulk va er obyekti ma’lumotini taqdim etadi va soliq xizmati organlari mahalla fuqarolar yig‘inlariga mol-mulk va yer solig‘i ro‘yxatlarini taqdim etadi. Mahalla fuqarolar yig‘ini soliqlarni fuqarolardan undiradi hamda (sayt qurilmasi orqali) yangi obyektlarni aniqlaydi va Kadastr palatasiga taqdim qiladi. Shuningdek, to‘lanmagan soliqlarni sud tartibida undirishni soliq xizmati organlari amalga oshiradi. Hozirigi kunda 2020-yilda yangi aniqlangan obyektlarga 394,5 mlrd. so‘m mol-mulk va yer solig‘i hisoblangan, ushbu summaning 40 foizi 157,8 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Hisoblangan penyaning 14,3 mlrd. so‘mi soliq organlarini rivojlantirish jamg‘armasiga undirilgan. Respublika bo‘yicha mavjud 9 213 mahallalar soniga yuqorida qayd etilgan summalar bo‘linganda bir yilda bitta mahallaga o‘rtacha 18,7 mln. so‘m, bir oyda 1,6 mln. so‘mni tashkil etadi. Xuddi shunday, 2021-yilning 6 oyi davomida yangi aniqlangan obyektlarga 207,0 mlrd. so‘m hisoblangan bo‘lib, ushbu summaning 40 foizi 82,8 mlrd. so‘mni tashkil etadi, hisoblangan penyaning 6,8 mlrd. so‘mi undirilgan. Mahallalar soniga bo‘linganda 6-oyga 9,7 mln. so‘m, 1-oyga 1,6 mln. so‘mni tashkil etadi. Bugungi kunda soliq organlarini rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha 148,7 mlrd. so‘m qarzdorlik mavjud. Shuni alohida ta’kidlash

lozimki mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan undiriladigan soliq organlarini rivojlantirish jamg'armasi to'lig'icha mahalla fuqarolar yig'inlarni moddiy ta'minotiga yo'naltiriladi, shuningdek, yangi aniqlangan obyektlarga hisoblangan mol-mulk va yer solig'ining 40 foizi ham mahalla fuqarolar yig'inlari ixtiyorida qoladi.

Xuddi shuningdek, egaligida bog'dorchilik va sabzavotchilik yo'nalishi bo'yicha bog'i (dehqon xo'jaligi) mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarning yer solig'i 2021-yil uchun dasturda hisoblanmasdan qolmoqda. Jumladan: 2021-yil uchun Namangan viloyat bo'yicha 21773 ta obyektga nisbatan 7 mlrd. 568 mln. 406 ming so'm yer solig'i hisoblanmagan (hisoblanmagan summa 2020-yilda hisoblangan yer solig'iga nisbatan olindi). Buni yer solig'ini hisoblash uchun qishloq xo'jaligi vazirligidan er maydonining normativ qiymatini olish va olingan normativ qiymat bo'yicha yer solig'ini hisoblash uchun dasturga kiritish kerak. Kadastr qilinmagan obyektlar bo'yicha - davlat ro'yxatidan o'tmagan turar joy hamda noturar obyektlarni davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlar bazasida soliqqa tortish bo'yicha o'zgartirishlar kiritish kerak hamda jismoniy shaxslar egaligidagi hovli joy hamda noturar obyektlar ma'lumotlar bazasida mol-mulk va yer soliqlari hisoblashda bir qator kamchiliklar mavjud. Misol uchun erga egalik qilish bo'yicha qaror 2018-yilda vujudga kelgan bo'lib, mulk qiymati 2020-yilda kadastr ro'yxati tayyorlangan. Hozirgi kunda ushbu er hamda mulk soliqlari bir xil sanadan hisoblanib qolmoqda. Ushbu er va mulk solig'ini hisoblashda kadastr tomonidan alohida ma'lumotlar jo'natilishida dasturga o'zgartirish kiritish kerak.

Yangi ruyxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasida integrallashmaganligi sababli oylik qat'iy soliqlari hisoblanmasdan qolmoqda. Yangi ruyxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlarni Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasida integrallashtirish kerak. Ya'ni soliq dasturi bilan davlat xizmatlari markazi dasturi bilan bog'lash kerak. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq organi bazasi bilan ulansa qat'iy soliq to'liq undirilishi ta'minlanadi. Yangi hisobraqam ochgan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlar bazasiga birlashtirish

imkoni mavjud emas. Agarda ushbu yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobraqamlari davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlar bazasiga biriktirilsa xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov topshiriqnomasi qo'yishda qulaylikka erishiladi hamda davlat byudjetiga ortiqcha mablag' tushishiga erishiladi. Yangi hisob raqami ochgan yuridik shaxslar singari yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobraqamlari ma'lumotlari ham davlat soliq inspeksiyalariga taqdim qilinishi bo'yicha o'zgartirish kiritish lozim. Bu esa inkassa talabnomasini qo'yish imkoniyatini yaratadi.

Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llashda, ortiqcha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibidan chiqarish. Bugungi kun amaliyotida, agar huquqbuzar soliq idorasiga kelmasa, undan tushuntirishni, fuqarolik pasporti yoki boshqa taalluqli hujjatlarini olishni imkoni bo'lmaydi. Huquqbuzarlik fakti aniq bo'lsa ham huquqbuzardan tushuntirish xati olinmasa, sud idoralari tomonidan yuritilgan ma'muriy ishni qaytarilishi yoki ko'rib chiqmasligi mumkin. Natijada, huquqbuzarlarga nisbatan barvaqt jazoga tortilishiga va jarimalarni o'z vaqtida Davlat byujetiga undirilishiga olib kelish bilan birga, huquqbuzar soliq idorasiga qayta kelmasligi va ovoragarchilikka chek qo'yilishiga omil bo'ladi. Muammoni bartaraf etish bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llashda soliq organing ichki va tashqi ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda ish yuritish va shu ma'lumotlar bilan ishni yuritishda inobatga olish. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish kiritish lozim. Bu o'z navbatida Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tezkorlik bilan jazo qo'llaniladi. Qo'llanilgan ma'muriy jarima davlat byujetiga o'z vaqtida tushushini ta'minlaydi. Soliq organi xodimlarining ortiqcha vaqt sarflashi oldi olinadi.

Soliq to'lovchi tomonidan byudjetga va maqsadli jamg'armalariga soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini xizmat ko'rsatayotgan bankka taqdim etmagan yoki o'z vaqtida taqdim etmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslariga ma'muriy ish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun chaqiruv xatlari yuborilganda, korxonada mansabdor shaxslari



soliq organiga kelmaganligi sababli, bayonnoma rasmiylashtirish imkoni mavjud emas. Buning oqibatida ba'zi korxonalar mansabdor shaxslariga nisbatan bayonnoma rasmiylashtirilib, ba'zi korxonalar mansabdor shaxslariga nisbatan bayonnoma rasmiylashtirilmagan qolmoqda. Soliq kodeksiga asosan soliq xizmati organlari qarorlarini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan qaysi qoidabuzarliklar uchun jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari ma'muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lsa, soliq organi tomonidan aniqlangan shunday qoidabuzarliklar yuzasidan soliq organining sayyor soliq tekshiruvini yoki soliq auditini o'tkazgan vakolatli mansabdor shaxsi o'z vakolatlari doirasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadi<sup>126</sup>.

Mazkur Soliq kodeksining 162-moddasidagi "sayyor soliq tekshiruvini yoki soliq auditini" degan so'zlarni "soliq tekshiruvlarini" so'zlari bilan almashtirish lozim. Mazkur moddaga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlardan asosiy maqsad, bugungi kunda kameral soliq tekshiruvi davomida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari aniqlangan taqdirda, aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritish Soliq kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shuningdek, kameral soliq tekshiruvi davomida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilish faktlari aniqlanganda, soliqqa oid huquqbuzarlik dalolatnomasi tuziladi. Ya'ni, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligi ta'minlanmasdan qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 280-moddasiga muvofiq, buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va (yoki) nazorat qilish qonun hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan tegishli organning vakolatli mansabdor shaxsi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning tuzilishi belgilangan. Qayd etilganlardan kelib chiqib, Soliq kodeksiga bildirilgan takliflar inobatga olinsa, aniqlanayotgan soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur huquqbuzarlikni aniqlash inson omilisiz ya'ni elektron axborot tizimlaridagi dastur orqali aniqlanadi. Soliq to'lovchi tomonidan byudjetga va maqsadli

---

<sup>126</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 162-модда

jamg'armalariga soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini xizmat ko'rsatayotgan bankka taqdim etmagan yoki o'z vaqtida taqdim etmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy jarimaga tortish haqida elektron qaror chiqarish. Bu holatda ham ishni ko'rib chiqish vakolatini suddan soliq organiga o'tkazib berish. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish kiritish lozim. Buning natijasida barcha huquqbuzarlik sodir etgan korxonalar mansabdor shaxslarini bir xil javobgarlikka tortish imkoni bo'ladi. Soliq to'lovchilar bilan bevosita muloqotni oldi olinadi, ularning vaqti tejaladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 282-moddasiga asosan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriladi deb ko'rsatilgan. Kodeksga o'zgartirish kiritish lozim, chunki bunda bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir oylik muddatdan kechiktirmay ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuborish. Ushbu kodeksning 164-moddasi 3-qismi, 165-moddasi, 165-1-modda, 166-modda, 176-modda, 185-1-modda, 184-2-modda, 186-modda, 186-1-modda bo'yicha aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan ekspertiza o'tkazish, iste'molga yaroqliligi to'g'risida xulosa olish, tekshirish davomida olingan ashyoviy dalillarni qayta narxlash to'g'risida ma'lumotlarni olish ma'lum muddatni talab qiladi. Protsessual muddatlarning buzilishi oldi olinadi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishda IT texnologiyalarni davlat soliq xizmati organlariga izchil joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi lozim. O'tgan davr mobaynida soliq ma'murchiligining biznes jarayonlari qayta ko'rib chiqilishi natijasida davlat soliq xizmati organlarida mavjud axborot tizimlari muntazam

ravishda takomillashtirildi va mazkur loyihalar Jahon banki va Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati texnik ko‘magida hayotga tatbiq etildi. Ayni jarayonda Janubiy Koreya, Ozarbayjon, Xitoy mutaxassisleri bilan hamkorlikda muhokama qilinib, kelgusidagi harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi.

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan bugungi kunda 45 turdagi interaktiv va elektron soliq xizmatlari portali joriy qilingan. Ushbu xizmatlar 2019-yil davomida soliq to‘lovchilar tomonidan jami 400 mln. marotabadan ortiq foydalanildi. Soliq to‘lovchilarga qulay sharoitlar yaratish, ularni ortiqcha soliq yukidan ozod qilish soliq organlari uchun ustuvor vazifa sanaladi. Shu ma’nodan, 2019-yil 1-sentyabrdan davlat soliq qo‘mitasi rasmiy veb-saytining yangi talqini ishga tushirildi. Sayt orqali soliq idoralari faoliyatiga doir eng dolzarb va yangi ma’lumotlar bilan tanishish, elektron xizmatlarning barcha turidan foydalanishi mumkin. Davlat soliq xizmati organlarida mehnat qilayotgan 10 mingdan ortiq xodimlar mavjud axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlaridan samarali foydalanmoqdalar. Davlat soliq qo‘mitasi 50 dan ortiq vazirlik va idoralar bilan axborot almashuv tizimlarini yo‘lga qo‘ygan va bu orqali shakllangan ma’lumotlarni qayta ishlash orqali soliq solish bazasi kengaytirilmoqda.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan soliq ma’muriyatchiligiga zamonaviy IT texnologiyalarini joriy etish hisobiga soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, tadbirkorlarga engilliklar yaratish, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish va soliqlarning yig‘uvchanligini oshirish davlat soliq xizmati organlarining dolzarb vazifalari etib belgilanmoqda. Shu munosabat bilan o‘tgan yil davomida soliq organlari tomonidan rasmiy veb saytining yangi talqini, elektron hisobvara-fakturalar, onlayn nazorat kassa mashinalari, tadbirkorlik subyektlarining soliqqa oid huquqbuzarliklari to‘g‘risida xabardor qilish imkonini beruvchi veb-portal va soliq to‘lovchilar uchun bir qator elektron davlat xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda ma’lumotlarni qayta ishlash markazini modernizatsiyalash, tarmoq tezligini oshirish, kompyuter va printerlar parkini yangilash, tizimli dasturiy ta’minotlarni kengaytirish, soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lgan xizmatlar sonini ko‘paytirish va ularni mobil versiyaga o‘tkazish,

zamonaviy biznes tahlil BI – Business Intelligence tizimidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish loyihalarini amalga oshirmoqdamiz.

Bundan tashqari, Davlat soliq xizmati organlarining yangi “Elektron soliq xizmatlari” portali ishga tushirilgan. «Elektron davlat xizmatlar» portali «Soliq» axborot tizimlari kompleksini soliq solish sohasida interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish uchun integratsiya qilish loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi – davlat soliq xizmati organlari tomonidan aholi va biznesga ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlarini optimallashtirish, ularning sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va natijada soliq to‘lovchilarning xizmatlardan foydalanish darajasini oshirishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda 562-II-sonli «Elektron rakamli imzo to‘g‘risida»gi qonuni asosida elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilab qo‘yilgan.

Elektron raqamli imzo bu yopiq kalitni qo‘llagan holda axborotning kriptografik o‘zgarishi natijasida olingan va imzoning shakllanish vaqtidan boshlab elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlovchi hamda imzo kaliti sertifikatini imzo egasiga taalluqligini tekshiruvchi elektron hujjatning rekviziti hisoblanadi. Elektron raqamli imzo kalit sertifikatini <https://e-imzo.uz> internet manzilidagi shaxsiy kabinet orqali elektron raqamli imzo kalit sertifikatining amal qilish muddati tugagunga qadar uzaytirib olish mumkin. Elektron raqamli imzo kalitidan foydalanish kengligi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O‘RQ-445-sonli “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuniga asosan elektron raqamli imzo elektron hujjatni imzolagan shaxsni identifikatsiyalash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qo‘lda qo‘yilgan imzoning to‘kis analogi hisoblanadi hamda elektron hujjatda aks ettirilgan axborotning o‘zgartirilmasligi va avtorlikni tasdiqlash uchun qo‘llaniladi. Shuningdek, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi.

Muhim muammolardan hozirigi kunda aholining ayrim qatlamlari elektron hujjat aylanishi bilan ishlash tizimidan haligacha foydalanish tartibini bilmaydi. Elektron raqamli imzoni ishlatish uchun kalitni qanday olish mumkin, bunda elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatga olish va elektron raqamli imzo kaliti sertifikatlarini berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi 348-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi tomonidan Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshiriladi.

Elektron raqamli imzo kaliti sertifikatlarini olish uchun belgilangan tartibda so'rovnoma to'ldiriladi. So'rovnomani Davlat xizmatlari markazlari yoki <https://e-imzo.uz> sayti orqali to'ldirish mumkin. Arizani ko'rib chiqish va elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini olish uzog'i bilan 40 daqiqa ichida amalga oshiriladi. Elektron raqamli imzo kalit sertifikatini davlat xizmatlari markaziga taqdim etilgan USB flesh xotiraga yuklab olinadi. Elektron raqamli imzo yopiq kalitining paroli vakolatli organ tomonidan so'rovnomada ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar shaklida yuboriladi. Elektron raqamli imzo yopiq kaliti egasining Davlat xizmatlari markaziga bevosita qilgan arizasi orqali so'rovnomada ko'rsatilgan mobil telefon raqami o'zgartirilishi mumkin. Elektron raqamli imzo yopiq kalitining parolini <https://e-imzo.uz> sayti arizada ko'rsatilgan telefon raqami orqali qayta olish mumkin. Elektron raqamli imzo kaliti uchun to'lov shakllari majud bo'lib unda arizani ko'rib chiqishning ijobiy natijasidan so'ng to'lov amalga oshirilishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar ham xuddi jismoniy shaxslardek to'lov tizimlari yoki bank kassalari orqali to'lovni amalga oshirishlari mumkin. Elektron raqamli imzo kaliti Davlat byudjet tashkilotlariga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi 348-sonli "Davlat xizmatlari markazlari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro'yxatga olish va elektron raqamli imzo kaliti sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o'quvchilariga hamda 2019-yil 8-apreldagi 284-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar

loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlariga va mas'ul shaxslariga bepul beriladi:

Elektron raqamli imzo kalitini olish elektron raqamli imzo kalit egasi shaxsini tasdiqlovchi xujjatning asl nusxasi bilan birga USB flesh xotira taqdim etishi lozim. Jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar shaxsini tasdiqlovchi guvohnomani nusxasi (pasport, harbiy bilet, haydovchilik guvohnomasi yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat) va elektron raqamli imzo kalitini ro'yxatdan o'tkazish va sertifikatni berish uchun imzolangan ariza.

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan davlat soliq xizmati organlarining elektron xizmatlari ro'yxati ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatiladi. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha arizalarni qabul qilish tartibi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qabul qilish davlat xizmati reglamenti asosida ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, soliqlar va yig'imlar davlat soliq inspeksiylarining tegishli hisobvaraqlariga tijorat banklari filiallariga to'g'ridan-to'g'ri tashrif buyurish yo'li bilan hamda elektron shaklda naqd va naqdsiz shaklda o'tkaziladi va belgilangan tartibda avtomatik tarzda soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarida aks ettiriladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash uchun davlat soliq inspeksiylarining tegishli hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat soliq xizmatining hududiy organlari tomonidan taqdim etiladi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun to'lov kvitantsiyalari va buyurtma shakllarini berish va davlat soliq inspeksiylarining tegishli hisobvaraqlariga to'lovlarni qabul qilish tijorat banklarining filiallari tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanishda xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslari belgilanadi. Unda, O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni (29.08.1997-yildagi №474-I-sonli), O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi

Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2013-yil 6-iyunda №2465-son bilan ro‘yxatga olingan «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizomga alohida e‘tibor qaratiladi. Ushbu xizmatdan barcha toifadagi soliq to‘lovchilar foydalanadi. Ularga yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslar kiradi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq majburiyati belgilangan muddatlarda bajarilishi kerak. Bunda, soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, chorak, oy, o‘n kunlik, xaftalik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi. Muddatning o‘tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo‘yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so‘nggi kuni soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi kerak. Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi. Shuningdek, soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirmagan holda hosil bo‘lgan soliq qarzini davlat soliq xizmati organlari tomonidan Soliq kodeksining 59-66-moddalariga asosan undiruv choralari ko‘riladi<sup>127</sup>.

Soliq to‘lovchilar soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni tijorat banklarida soliq turlari buyicha ko‘rsatilgan hisobraqamlarida amalga oshiriladi. Tijorat banklari soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlarni amaliyot kunining ochiq holatida qabul qiladi hamda to‘lov hujjati tushgan kunda ijro etiladi. Agar to‘lov hujjati amaliyot kuni tugagandan keyin tushgan holda, to‘lovlar keyingi bank ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Dam olish kunlari yoki bayram kunlarida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amalga oshirilgan to‘lovlar keyingi bank ish kunidan boshlab qabul qilinadi. Soliq to‘lovchilar to‘lovlarni dam olish

---

<sup>127</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 36-модда.

kunlaridan tashqari istalgan paytda amalga oshirishi mumkin, elektron tarzda amalga oshirilgan to'lovlar bundan mustasno<sup>128</sup>.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq majburiyati yuzasidan amalga oshirilgan to'lovlari ularning shaxsiy kartochkalarida aks ettirilgan holatlarda hududiy davlat soliq inspeksiyalari soliq to'lovchilarning so'rovlariga ko'ra 1 ish kunida shaxsiy kartochkalaridan solishtirma dalolatnoma taqdim etiladi. Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan foydalanuvchiga xizmat ko'rsatuvchi organning joylashgan joyi, ish tartibi, murojaatlarni ko'rib chiqish shartlari va tartibi, xizmatdan foydalanish uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati, ariza blankasini to'ldirish tartibi, xizmatdan foydalanish muddatlari to'g'risidagi ma'lumot taqdim etiladi<sup>129</sup>.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish yuzasidan batafsil ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) orqali olish imkoniyati mavjud. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish to'g'risida ma'lumot davlat soliq inspeksiyada hamda Davlat soliq qo'mitasining rasmiy [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) veb saytida taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 2013-yil 6-iyunda №2465-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizom» bilan tasdiqlangan ilova-blankalardan foydalaniladi. Elektron davlat xizmatidan foydalanuvchilar kunning istalgan vaqtida, doimiy ravishda foydalanishlari mumkin. Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha to'lovlar ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi hamda to'lovlar elektron tarzda amalga oshirilganda kutish shartlari ko'zda tutilmaydi<sup>130</sup>.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun hujjatning sanasi, soliq to'lovchining nomi, soliq to'lovchining hisobvarag'ining raqami, soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqami (STIR), soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi bankning kodi (MFO), mablag'larni oluvchining nomi, mablag'larni oluvchi hisobvarag'ining raqami, mablag'larni

---

<sup>128</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 59-60-моддалари.

<sup>129</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 62-модда

<sup>130</sup> [www.my.soliq.uz](http://www.my.soliq.uz)



oluvchi bankning nomi, mablag'larni oluvchi bankning kodi (MFO), soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning nomi, soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisob raqami, soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning summasi, soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lov maqsadi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan to'lov topshiriqnomasi shakllantiriladi. Onlayn rejimda to'lovlarni amalga oshirishlari uchun elektron raqamli imzo bo'lishi shart. Unda jismoniy shaxslar uchun soliq to'lovchining nomi, soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqami (STIR), mablag'larni oluvchining nomi, mablag'larni oluvchi hisobvarag'ining raqami, mablag'larni oluvchi bankning nomi, mablag'larni oluvchi bankning kodi (MFO), soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning nomi, soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning summasi, va soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lov maqsadi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan to'lov kvitantsiyasi shakllantiriladi<sup>131</sup>.

Onlayn to'lovlarni amalga oshirish uchun soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (yoki kadastr kodi), soliq to'lovchining familiyasi, ismi va otasining ismi, tegishli hisob raqami, to'lov maqsadi, to'lov miqdori kabi ma'lumotlar ko'rsatiladi. DSK rasmiy veb-saytidagi soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i orqali onlayn to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron imzo talab qilinadi. Soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq o'z vakolatlari doirasida davlat soliq xizmatining hududiy organlari tomonidan bepul taqdim etiladi. Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliq majburiyati bo'lmagan taqdirda va agar ular tegishli hisobvaraqlarga to'lanmagan bo'lsa, ushbu to'lovlar ularning shaxsiy kartasida aks ettirilmaydi. Shuningdek, soliq imtiyozlariga ega

---

<sup>131</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 07.01.2011 йилдаги 6-сон қарори.

bo‘lmagan jismoniy shaxslarning to‘lovlari ularning shaxsiy kartalarida aks ettirilmaydi va yuqoridagi holatlar rad etish uchun asosdir.

Ko‘rsatilgan xizmatning sifati reglamentda belgilangan muddatlarga rioya qilinishi bilan hamda ushbu xizmat yuzasidan murojaatlarning asossiz qanoatlantirilmaganligi darajasi (yillik jami shikoyatlardan asosiz qanoatlantirilmagan arizalar soni 5 %dan ko‘p bo‘lgan holatda) bilan belgilanadi. Xizmatdan foydalanuvchi davlat soliq xizmati organlari tomonidan sifatsiz ko‘rsatilgan xizmat, xizmat ko‘rsatish jarayonlariga rioya qilmaslik holatlari bo‘yicha, mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berish uchun davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega<sup>132</sup>. Hisob-kitoblar haqidagi ma‘lumotlarni onlayn rejimda uzatishni ta‘minlovchi onlayn nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash bo‘yicha pilot loyihasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining qo‘shma qarori imzolandi hamda 2018-yil 1-avgustdan boshlab bu borada pilot loyihasini amalga oshirishga kirishildi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni bankka bormasdan “click” va “payme” to‘lov tizimlari yordamida mobil telefon yoki internet orqali onlayn rejimida to‘lash imkoniyati mavjudligini yana bir bora eslatib o‘tmoqchimiz. Ushbu to‘lov tizimlaridan foydalanish fuqarolar uchun bepul va amalga oshirilgan to‘lovlar uchun komission to‘lov olinmaydi. Shuningdek, to‘langan soliqlar haqidagi ma‘lumotlar soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalariga avtomatik ravishda qayd qilinadi. O‘zbekiston Respublikasidagi barcha tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan Online-Uzcard plastik kartalarini saqlovchilar kartaga xizmat ko‘rsatuvchi bankda yoki xohlagan

---

<sup>132</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 124-модда

bankomat hamda infokioskada Uzcard SMS-xabarnoma xizmatini o‘z mobil telefonizga ulashingiz lozim.

Soliq to‘lovchilar “click” va “payme” to‘lov tizimlarining internetdagi sayti yoki mobil ilovasi yordamida mol-mulk, er, daromad (deklaratsiya) soliqlarini, hisoblangan penyalar, jarimalar hamda sug‘urta badallarini to‘lash mumkin. Yuridik shaxslarga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida, «Elektron soliq xizmatlari» portalida joylashgan “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabinet” orqali soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash tizimi markaziy bank bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan. Soliqlarni shaxsiy kabinet orqali to‘lash tizimining afzalligi shundagi soliq to‘lovchilar soliq hisobotlarini tayyorlab, jo‘natganidan so‘ng, hosil bo‘lgan soliq majburiyati summasini to‘lashga rozilik berishi bilan to‘lov topshiriqnomasi avtomatik ravishda shakllanib, soliq to‘lovchining hisob-raqamidan xizmat qiluvchi tijorat bankiga etkaziladi. Agar hisob-raqamda pul miqdori etarli bo‘lsa to‘lov shu zahotiyoq amalga oshirilib, soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasiga qayd etiladi, aks holda to‘lov topshiriqnomasi 2-sonli kartotekaga olinib, bu haqida Davlat soliq qo‘mitasiga elektron xabarnoma yuboriladi.

Soliq to‘lovchining to‘lov topshiriqnomasini qo‘yganligi to‘g‘risida ma’lumotnomani davlat soliq xizmati inspeksiyasiga olib kelib ko‘rsatishiga ehtiyoj qolmaydi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning mol-mulk va yer soliqlaridan bo‘lgan qarzdorligi yoki joriy yil uchun hisoblangan mahalliy soliqlarini shaxsiy kabinet orqali onlayn to‘lash imkoniyati ham yaratilgan. Bunda egaligidagi mulki yoki eridan soliq qarzdorligi bo‘lgan (jumladan, joriy soliqlari to‘lanmagan) xodimlar ro‘yxati avtomatik tarzda korxonalarining shaxsiy kabinetida shakllanib turadi. Ish beruvchi o‘z xodimining arizasiga muvofiq, mahalliy soliqlarni bitta tugmani bosish orqali byudjetga o‘tkazib berishi mumkin. To‘lovlar avtomatik ravishda xodimning shaxsiy kartochkasiga yoziladi hamda qarzdor xodimlarning reestrini qog‘oz shaklida soliq idorasiga taqdim etishga ehtiyoj qolmaydi. Muhimi, ushbu to‘lov tizimlaridan foydalanish mutlaqo bepul.

Bugungi kunda ushbu to‘lov tizimlaridan joriy yil boshidan bugungi kunga qadar “click” va “payme” to‘lov tizimlari orqali 10 mingdan ortiq soliq to‘lovchi

jismoniy shaxslardan mahalliy soliqlar elektron shaklda to‘landi. Jismoniy shaxslar tomonidan 120 mingdan ortiq holatlar shaxsiy kabinet orqali xodimlarni mol-mulk va yer solig‘ini to‘lash elektron davlat xizmati foydalanishgan. Umuman, elektron davlat xizmatlaridan foydalanish tizimining rivojlanayotgani aholining ham vaqti, ham naqdi tejaliishiga, ish unumining ortishi va turmush farovonligiga xizmat qilmoqda. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi elektron davlat xizmatlari joriy yilning iyul oyida davlat soliq xizmati organlari tomonidan yangi elektron davlat xizmatlari hamda qo‘shimcha imkoniyatlarini taqdim etadigan amaldagi elektron davlat xizmatlar tarkibidagi yangi elektron servislari amaliyotga joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining virtual qabulxonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasi raisining «Virtual qabulxonasi»ni tashkil etildi. Mazkur «Virtual qabulxona» hududiy davlat soliq xizmati organlarida hal etilmagan masalalar/muammolar, ariza, shikoyat yoki takliflarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisiga murojaat yuborish, «Elektron hujjat aylanish» tizimi (EDO) orqali mas’ul xodim ushbu murojaatni qabul qilishi, uni rad etishi yoki javob xati biriktirib murojaatni yopish, hisobini yuritish hamda ijrosini nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi. Elektron xizmat tajribaviy sinovga joriy etilgan davr davomida Davlat soliq qo‘mitasi raisining «Virtual qabulxonasi»ga 194 ta elektron murojaatlar qabul qilindi. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish» elektron davlat xizmati tarkibida joriy etilgan.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk, er va daromad soliqlarini hisoblab chiqish va to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomalarini taqdim etish amaldagi qonunchilikka muvofiq (Soliq kodeksining 263, 277 va 293-moddalari) jismoniy shaxslarga mol-mulk va yer soliqlarini to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasini soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabinetiga taqdim etish imkoniyati yaratildi. Soliq

kodeksiga yangi “Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti” 221-modda kiritilganligini inobatga olib, ushbu to‘lov xabarnomalari soliq to‘lovchilarga elektron ko‘rinishda soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga taqdim etish imkoniyati yaratilmoqda. Interaktiv davlat xizmati tajribaviy sinovga joriy etilgan davr davomida 4 876 ta ariza va ma‘lumotnoma hisob-kitoblar elektron shaklda qabul qilindi. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan to‘langan sug‘urta badallari to‘g‘risida ma‘lumotnoma berish yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun pensiya jamg‘armasiga to‘langan sug‘urta badallari to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani elektron shaklda olish imkoniyati yaratildi. Avval bu ma‘lumotnomani olish uchun davlat soliq inspeksiyasiga borgan holda murojaat qilish kerak edi. Shakllantirilgan ma‘lumotnomani chop etish hamda uning haqiqiylikini ma‘lumotnomaning unikal tartib raqami orqali tekshirish imkoniyati yaratildi. Elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish elektron raqamli imzolarni olish uchun arizani elektron ko‘rinishda soliq idoralariga yuborish imkoniyati yaratildi. Interaktiv xizmat yordamida yuborilgan arizalar asosida elektron raqamli imzo yaratiladi va fuqaro tayyor imzoni o‘z shaxsini tasdiqlagan holda olib ketadi. Ortiqcha vaqt va xarajatlarning oldi olinadi. Interaktiv davlat xizmat tajribaviy sinovga joriy etilgan davr davomida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron raqamli imzolarni olish uchun 2 895 ta elektron arizalar yuborildi. Mazkur soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilgan soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar muammolarni qisman bo‘lsa bartaraf etish muhim omillar echimi bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Xulosa o‘rnida,** jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha muammolarni aks ettirishda mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha kadastr to‘lovlari juda yuqori shu sababli aksariyat fuqarolar kadastr qilishni xohlashmaydi. Shu sababli kadastr to‘lovlarini kamaytirish yuzasidan qaror loyihasini tayyorlab Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish lozim. Bundan tashqari soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar uchun soliqlarni to‘lashda to‘lov intizomini tartibga solish va soliqqa tortish ma‘muriyatchiligini takomillashtirish muhim hisoblanib, unda

zamonaviy elektron hujjatlarni tegishli tashkilotlar bilan integratsiya jarayonlarini yo'lga qo'yish kerak. Bunda majud muammolar ushbu tashkilotlarning interaktiv xzmatlari orqali tez va oson o'z echimini topishi mumkin.

### **3.2-§. Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari**


So'ngi yillarda byudjet daromadlari byudjet xarajatlariga nisbatan doimiy ravishda kamni tashkil etmoqda. Ayniqsa so'ngi yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya'ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'sirchan soliq mexanizmini qo'llash natijasida hosil bo'lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to'g'risida Farmoni<sup>133</sup> qabul qilindi. Mazkur Farmon joriy yilning 22- avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini kamaytirish maqsadida qabul qilingan.

Farmonda 2022-yil 1-iyuldan bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish obyektlariga (foydalanilmayotgan obyektlar) hamda ushbu obyektlar bilan band bo'lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'i va yer solig'ining oshirilgan stavkalarini qo'llash, soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning amal qilishini to'xtatish tartibi (ta'sirchan soliq mexanizmi) bekor qilinganligi qabul qilingan. Bundan tashqari, foydalanilmayotgan obyektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo'lgan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha mavjud soliq qarzi hisobdan chiqarilishi, soliq qarzini undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlari tugatilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga asosan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh

---

<sup>133</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 9 сентябрдаги "Таъсирчан солиқ механизмини қўллаш натижасида ҳосил бўлган солиқ қарзини ҳисобдан чиқариш тўғрисида"ги ПФ-218-сонли Фармони

prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byuroси organlarining davlat ijrochilari tomonidan amalga oshirilmoqda. Jismoniy shaxslar bo'yicha jami 2 177 nafar soliq to'lovchilarning qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizm bo'yicha 502,3 mlrd. so'mlik soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish to'g'risidagi sud va soliq organlari qarorlari Majburiy ijro byuroси ish yurituviga olingan.



**3.2-rasm. Jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishni tashkil qilish choralari tarkibi**


Jismoniy shaxslarning soliq qarzlari majburiy undirish 3.2-rasmdagi sxemaga asosan soliq to'lovchi jismoniy shaxs soliq qardorligi bo'yicha soliq organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasida soliq qarzi hosil bo'ladi va soliq organlarida soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo'limi tomonidan soliq qarzi 1 mln. so'mdan yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar ro'yxati shakllantiriladi. Soliq to'lovchiga berilgan to'lov xabarnomasi koreshogini taqdim etish to'g'risidagi bildirishnoma beriladi va soliq organida jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan to'lov xabarnomasi koreshogi taqdim etiladi. Soliq qarzini undirish yuzasidan arizani fuqarolik sudiga hamda nusxasi soliq to'lovchiga taqdim etiladi. Fuqarolik sudidan qabul qilingan ariza o'rganib chiqilib sud buyrug'i chiqariladi. Agar arizada kamchiliklar aniqlansa kamchiliklar ko'rsatilgan holda ariza rad etiladi. Rad etilgan ariza soliq organlari tomonidan

kamchiliklar bartaraf etilib ariza qayta tayyorlanadi va qaytadan fuqarolik sudiga kiritiladi. Sud buyrug‘i soliq organlari orqali Majburiy ijro byurosiga ijro uchun yuboriladi. Sud qarori va ijro varaqasini Majburiy ijroga yuboriladi. Majburiy ijro byurosi undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi.

Hozirgi kunda soliq qarzi paydo bo‘lgandan keyin uch kundan kechiktirilmay soliq organlari tomonidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnoma yuboriladi, agar mustaqil to‘lov topshiriqnomasi bankka taqdim etilmagan bo‘lsa, inkasso topshiriqnomasi qo‘yiladi. Soliq organining talabnomasiga berilgan sanadan boshlab o‘n kalendar kun ichida yuridik shaxs o‘z e‘tirozlarini bildirishi lozim. E‘tiroz bildirilmagan taqdirda tan olingan soliq qarzi sifatida e‘tirof etilib, o‘n besh kalendar kun ichida soliq qarzi to‘lanmagan taqdirda soliq organining qarori bilan qarzdorning mol-mulki xatlovga olinadi. Mazkur jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha soliq qarzdorligini undirish yuzasidan 19-rasmda keltirilgan sxema asosida amalga oshiriladi. Ushbu choralar qo‘llanilgandan keyin ham soliq qarzi o‘ttiz kalendar kun ichida to‘lanmagan taqdirda, soliq organi qarzdorning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risida qaror qabul qilib, qaror ijrosini ta‘minlash uchun Majburiy ijro byurosiga yuboradi hamda majburiy undiruv ishlari Majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu muajburiy ijroga qaratish bo‘yicha 19-rasmda keltirilgan shaklda amaldagi normativ-huquqiy hujjat asosida joriy etilgan. Soliq organlari qarorlari ijrosi Majburiy ijro byurosi tomonidan ikki oy davomida ijrosi ta‘minlanishi zarur.



Qarzdorning mol-mulki va boshqa aktivlari mavjud emasligi sababli soliq qarzini undirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli Majburiy ijro byurosi tomonidan soliq organlari qarorlari qaytarilganda, soliq organi tomonidan qarzdorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘g‘risida sudga ariza kiritiladi. Sud qarori bilan qarzdorga tugatish boshqaruvchisi tayinlanib, qarzdorni tugatish ishlari olib boriladi. Ushbu sudga da’vo arizalarini berish tartibi 3.3-rasmda keltirib o‘tilgan.



**3.3-rasm. Jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishda sud organlariga hujjatlar taqdim etish chorolari**

Soliq to‘lovchilarni tugatish jarayonida qarzdorning barcha majburiyatlari jamlanib, mol-mulk va daromadlarni aniqlash ishlari olib boriladi. Soliq qarzi va boshqa majburiyatlarni uzishga qarzdorning mol-mulkari va boshqa aktivlari etarli bo‘lmasa, to‘lanmasdan qolgan soliq qarzi umidsiz deb topiladi hamda sud qarori bilan qarzdor faoliyati tugatiladi va soliq qarzi hisobdan chiqariladi. Yuridik shaxsning mol-mulkari soliq qarzini qoplashga etarli bo‘lmagan taqdirda, soliq organi qoplanmagan soliq qarzini korxonaning rahbari, ta’sischi (muassis)lari shaxsiy mulkidan undirish yuzasidan sudga ariza kiritiladi. Shundan so‘ng, sud qarori asosida korxonaning soliq qarzini rahbari, ta’sischi (muassis)lari shaxsiy mulkidan undirish ishlari Majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Ijro

harakatlarini olib borish davrida rahbar, ta'sischi (muassis)larning ish haqi daromadlariga qaratish, ularning O'zbekiston Respublikasi hududidan chetga chiqishiga taqiq solish kabi majburiy undiruv choralari qo'llanilishi mumkin. Soliq organlari tomonidan joriy yil davomida soliq qarzi undirilishini tashkil etish yuzasidan soliq qarzini uzish to'g'risida talabnomalar yuboriladi, yuborilgan talabnomalar asosida qarzdordan soliq qarzi qisqartiriladi, soliq organlari qarzdorning soliq qarzini undirish yuzasidan mol-mulkni xatlash to'g'risida qarori asosida mol-mulklar xatlovga olinadi, soliq organlari tomonidan qarzdorlarning bank hisobvaraqlariga inkasso topshiriqnomalari qo'yiladi va inkasso topshiriqnomalari bilan qarzdorlarning soliq qarzi undiriladi, qarzdorning xorijiy valyuta mablag'lari hisobvaraqlari banklariga taqdimnomalar yuboriladi, soliq organlari qarzdorning soliq qarzi undiruvini mol-mulkiga qaratish haqida qarorlari qabul qilinib, Majburiy ijro organlariga yuboriladi, soliq organlari qarori asosida Majburiy ijro organlari tomonidan soliq qarzi undiriladi, majburiy ijro organlari tomonidan qarzdorning soliq qarzini undirish imkoniyati yo'qligi sababli soliq organlari qarori ijrosiz qaytariladi, soliq organlari tomonidan qarzdorning soliq qarzini to'lovga qobiliyatsizlik deb topish to'g'risida sudlarga arizalar kiritiladi, sud qarorlari asosida qarzdorning soliq qarzi soliq organlari qarorlari bilan hisobdan chiqariladi, tugatish jarayonida qarzdorning soliq qarzi undiriladi va subsidiya javobgarlik asosida qarzdorning soliq qarzini korxonalar rahbari, ta'sischi (muassis)larining shaxsiy mol-mulki hisobidan undirish to'g'risida sudlarga arizalar kiritiladi.

Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida 84 ta faoliyat turi bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tib ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin<sup>134</sup>. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tovar aylanmasi yuz million so'mgacha qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i, yuz million so'mdan bir milliard so'mgacha aylanmadan olinadigan soliq, bir milliard so'mdan oshganda umumbelgilangan tartibda foyda va QQS to'laydi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliqlar Soliq kodeksi bilan belgilanadi.

---

<sup>134</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 7 январдаги 6-сон қарори. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Misol uchun: oziq-ovqat tovarlari va noziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish Toshkent shahri 750 000 so‘m, Nukus shahri va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlar 600 000 so‘m, boshqa shaharlar 300 000 so‘m, boshqa aholi punktlari 200 000 so‘mni tashkil etadi. Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari uchun yuk ko‘tarish quvvatiga qarab respublika bo‘yicha bir hil stavka belgilangan 3 tonnagacha 150 000 so‘m, 3 tonnadan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 225 000 so‘m belgilangan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar bir nechta faoliyat turlarini amalga oshirganda, ular har bir faoliyat turi uchun belgilangan soliq miqdorini, ikki yoki undan ortiq joylarda faoliyatni amalga oshirishda esa ushbu joylar uchun belgilangan yuqori stavkada to‘laydilar.

Bunda I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanganida faoliyat turidan va uni amalga oshirish joyidan qat’iy nazar, oyiga qat’iy belgilangan miqdordagi soliqning 50 foizini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘laydi. "Hunarmand" uyushmasi a‘zosi bo‘lgan va hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni to‘lashdan ozod etiladi. Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek, faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyliqi qarab 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar belgilashga haqli<sup>135</sup>.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ijtimoiy soliqni kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat’iy nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida va faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a‘zolari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan oila a‘zosi tomonidan - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam

---

<sup>135</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 383-модда

bo‘lmagan miqdorda hamda oilaning boshqa a‘zolari tomonidan (bundan o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar mustasno) - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida, shuningdek, qishloq tumanlarida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan "Hunarmand" uyushmasi a‘zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari tomonidan o‘z faoliyatining dastlabki ikki yilida - oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida majburiy tartibda to‘lanadi<sup>136</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda, tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, ishlamaydigan eri (xotini) uchun soliq to‘lovini amalga oshiruvchi ishlayotgan fuqarolar tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda, "Hunarmand" uyushmasining a‘zosi bo‘lgan hunarmandchilik faoliyati subyektlari va "Usta-shogird" maktablari o‘quvchilari - ular yigirma besh yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrda, shuningdek, soliq to‘lovchilar tomonidan esa majburiy tartibda to‘lanadi. Dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo‘jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to‘laydi, boshqa a‘zolari va ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to‘laydi. Yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a‘zolari tomonidan soliqni to‘lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan e‘tiboran amalga oshiriladi<sup>137</sup>.

Respublika tumanlarida (bundan Toshkent shahri mustasno) faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 1-yanvarga qadar bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida qo‘llaniladi. Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish

---

<sup>136</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 384-модда

<sup>137</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 408-модда

va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shahslar o‘zini-o‘zi band qilgan holda 68 ta faoliyat turi bilan shug‘ullanishlari mumkin. O‘zini-o‘zi band qilgan shaxslarni ro‘yxatga olish xabar berish tartibida o‘zini-o‘zi band qilgan sifatida ro‘yxatdan o‘tganlikni tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) bergan holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetini orqali amalga oshiriladi. O‘zini-o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi. Mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy soliqni yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda to‘laydi.

Er solig‘i stavkasini hisoblab chiqarish tartibi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Soliq stavkalarining aniq miqdori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi va tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida belgilaydi<sup>138</sup> va ushbu tartibda aniqlanadi. Misol uchun Toshkent shahrining Yashnabod tumani Olmos MFYga tuman Xalq deputatlari kengashi tomonidan 0,7 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llanilishi natijasida soliq stavkasi 29,0 mln. so‘mdan 14,4 mln. so‘mga kamaytirilgan. 2019-yilgi soliq siyosati konsepsiyasida yakka tartibdagi tadbirkorlarning o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yillik yoki joriy yil davomidagi aylanmasi (yalpi tushumi), 100 mln. so‘mgacha bo‘lganda qat’iy belgilangan soliqni, 100 mln. so‘mdan 1 mlrd. so‘mgacha bo‘lganda yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini saqlab qolgan holda yagona soliq to‘lovini, 1 mlrd. so‘mdan oshganda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatib, yuridik shaxs sifatida

---

<sup>138</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.12.2019 й., 02/19/СК/4256-сон, 424-429-моддалар.

qayta ro'yxatdan o'tgan holda umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari nazarda tutilmoqda. 2019-yildan boshlab, 100 mln. so'mgacha tovar aylanmasini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun amaldagi qat'iy soliq stavkasi 20-35 foizgacha kamaytirilgan holda qat'iy summalarda qat'iy belgilangan soliq joriy etilmoqda. Masalan, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor 2018-yilda har oyda eng kam ish haqining 7 baravari miqdorida ya'ni 1 205,6 ming. so'm qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab, har oyda 800 ming. so'm miqdorida (33 foizga kamaygan) qat'iy summada qat'iy soliq to'lovini amalga oshirishi belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori<sup>139</sup>ga asosan yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik subyektlari 3 nafargacha doimiy ishchilarni yollashga, ular bilan mehnat shartnomasi tuzishga, shuningdek, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan boshqa yaqin qarindoshlarini, shu jumladan, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan bolalari va nevaralarining er-xotinlarini, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan aka-ukalari va opa-singillarini, ularning er-xotinlarini yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik subyekti ishtirokchilari sifatida jalb qilishga haqliligi belgilandi. O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yuzasidan soliq qarzini undirishda qo'llaniladigan usullar ko'lamini yanada kengaytirish va ularni axborot texnologiyalar yordamida tegishli tashkilotlar integratsiyalashuvni amalga oshirgan holda jarayonlarni elektron hujjat aylanmasi orqali tez va qulay dasturlar

---

<sup>139</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 июлдаги ПҚ-3856-сонли қарори

yordamida amalga oshirish belgilangan. Sud jarayonlarini ham sud organlari internet saytlarida sud jayonining borishi va u to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etib borilishi zarur.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Xulosa qilib yozadigan bo'lsak, qisqa davr ichida Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlarni qayta ishlash markazi asosida alohida infratuzilma, ma'lumotlar bazasi va ularni boshqarishda qo'llaniladigan dasturiy maxsulotlar yaratildi. Ushbu dasturiy mahsulotlar, tegishli tashkilotlar bilan integratsiyalashuv va bir qator soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar yordamida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan muammolarni akariyat qismi hal bo'lishga erishildi. Asosiy muammolardan bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha asosiy muammolardan kadastr muammosi hisoblanib, uni ko'proq elektronlashtirish lozim bo'ladi. Bunda inson omili aralashmagan holda ayrim qarorlarni axborotlashtirish orqali amalga oshirilsa vaqt va tejamkorlik tomonidan soliq to'lovchilarga qulay hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlarning amaldagi holati tahlili asosida soliq imtiyozlarini samarali foydalangan holda ularni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash. Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, soliq to'lovchi (yakka tartibdagi tadbirkor, oilaviy tadbirkorlar) soliq to'lashni kechiktirish huquqi yuzasidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi asosida hisob-kitoblarni takomillashtirish bo'yicha Soliq kodeksida soliq to'lovchi (yakka tartibdagi tadbirkor) soliq to'lashni kechiktirish huquqi yuzasidan hisob-kitob tartibini takomillashtirish bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash davrida amalda bo'lgan Markaziy bankning asosiy stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda, 50 foizi miqdorida foizlar hisoblanishi yuzasidan bergan takliflar ishlab chiqilgan.

Mazkur bobda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq qarzini undirishda soliq to'lovchiga berilgan to'lov xabarnomasi elektron shaklda berilishini inobatga olib, soliq qarzi yuzaga kelganlarga talabnoma berish tartibini berish, shuningdek, jismoniy shaxsning barcha obyektlari bo'yicha soliq qarzi 1 mln. so'mdan oshganda uning yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasida majburiy undirish chorasini ko'rish tartibini joriy etish. Soliq qarzini tan olgan jismoniy shaxslar bo'yicha sudga bermasdan majburiy undirish bo'yicha majburiy ijro buyurosiga hujjat yuborish tartibini joriy qilish hamda sudga beriladigan ariza shaklining ilova qismidan soliq to'lovchining yashash manzili to'g'risidagi ma'lumotnomani chiqarib tashlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish lozimligini asoslab berganmiz.



## XULOSA

Dissertatsiya mavzusiga doir amalga oshirilgan tadqiqot va ilg'or xorij tajribalar asosida quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirishga muvaffaq bo'lindi:

1. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkor va maslahatchi sifatida yangi imidjni yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarishni ta'minlashga erishishi O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimining takomillashtirishning yangi muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu asnoda, jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'muriyatchiligi munosabatlarning iqtisodiy mohiyatining yangicha talqini asoslagan holda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etishning nazariy va huquqiy jihatlari muhim hisoblanib, asosan jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari va ularning fikrlaridan kelib chiqib, "undiruv" va "jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish" tushunchalariga alohida mualliflik ta'rifi izohlab berilgan.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi sohasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining bosqichlari va ularni tarixi o'rganilib, unda dunyo mamlakatlari ayrim olimlarining fikrlari asosida qadimgi Misrdan tortib hozirgi davrgacha bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni rivojlanish bosqilarida soliq qanday tartibda nazariya va amaliyotda qo'llanib kelinayotganligi ilmiy ishlarda namoyon bo'lish tahlili keltirib o'tilgan. Bu bilan birgalikda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjet-soliq munosabatlarida muhim ahamiyatli tomonlarini ko'rsatib o'tganlar. Xususan, davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy shaxslarning

daromadlarini legallashtirishni, xususiyl tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi.

3. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirishda soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratish maqsadida soliq ma'murchiligida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni amaldagi holati tahlil qilinib, soliq imtiyozlardan samarali foydalangan holda, ularning maqsadli foydalanish ko'rsatkichlarini monitoring qilish, foydalanish statistikasini shakllantirish hamda vertikal nazorat olib borish uchun maxsus axborot tizimlari ishlab chiqilgan. Bunda asosan, davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning deklaratsiyalash usuli orqali axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini va mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni maqsadli imtiyozlarni qo'llagan holda aholini real daromadlarini oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratiladi.

4. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda jismoniy shaxslarning soliqlarni undirish muhim ahamiyat hisoblanib, u bevosita aholini real daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosatining bir bo'g'ini sifatida qaragan holda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmini takomillashtirish masalalariga ilmiy tadqiqotimizda alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yangiliklarni asoslangan takliflar bilan yoritib berildi.

5. Jismoniy shaxslarning soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari mavjud bo'lib, bunda soliqni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati manfaatdor shaxsga, uning moliyaviy ahvoli ushbu soliqni belgilangan muddatda to'lash imkonini bermasa, biroq ko'rsatilgan shaxsda bunday soliqni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash uchun berilgan muddat mobaynida to'lash imkoniyati yuzaga keladi deb taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo'lsa berilishi mumkinligini tahlil qilgan holda ilmiy tadqiqotning yangiligi sifatida takliflar berilgan.

6. Doimiy asosda soliq imtiyozi faqat soliqni to'liq to'lashga qodir bo'lmagan soliq to'lovchilarga beriladi. Boshqa barcha soliq to'lovchilarga imtiyoz muayyan maqsad va muddatlarga berilishi kerak va daromad solig'ining obyekt bo'yicha soliq imtiyozlarini berishda soliq to'lovchilar tomonidan undan foydalanishning aniq shartlari belgilanishi kerak. Aholi uchun daromad solig'i imtiyozlari samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqilishi va imtiyozlar samaradorligini sifatli tekshirish uchun mas'ul ijrochilar belgilanishi va shuning bilan birgalikda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan berilgan imtiyozlarga doir normativ-huquqiy hujjatlardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, ularni Soliq kodeksi normalariga muvofiqlashtirish, imtiyozlarni to'g'ri qo'llash va ularning samaradorligini oshirish lozim.

7. Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslarining jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida aniqlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ortiqcha to'langan (ushlab qolingan) summasi soliq to'lovchi bo'lgan jismoniy shaxsga, uning soliq hisobida turgan joyidan qat'iy nazar, uning soliq organiga taqdim etgan arizasi asosida qaytarilishi belgilab qo'yilgan. Ushbu engillik normasini normativ-huquqiy hujjatlar normalari bilan muvofiqlashtirilgan.

8. Soliq kodeksining belgilangan normalarga asosan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni, shuningdek, barcha soliqlar va yig'imlar bo'yicha jarimalar hamda penyalarni mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza yubormasdan, soliq organlarini xabardor qilgan holda foizlarni to'lamasdan, teng ulushlarda kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqi belgilangan bo'lib, soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soliq organlari bilan bevosita amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'ldilar.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi "Hisob-kitob tizimini takomillashtirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov intizomini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-sonli Farmonida yakka tartibdagi tadbirkorlarning to'lov intizomini yanada mustahkamlash maqsadida tijorat banklarida ochilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiq undiruvga yo'l qo'yilmaydigan maxsus maqsadli hisobvaraqlarini tugatish, bunda tugatilgan

maxsus maqsadli hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i ularning asosiy yoki ikkilamchi hisobvaraqlariga o'tkazish vakolatini Vazirlar Mahkamasining qarori asosida berilgan takliflari inobatga olingan.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi "Ta'sirchan soliq mexanizmini qo'llash natijasida hosil bo'lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to'g'risida"gi PF-218-son Farmonida foydalanilmayotgan obyektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo'llanilgan ta'sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo'lgan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha mavjud soliq qarzi hisobdan chiqarilishi hamda soliq qarzini undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlarini tugatish yuzasidan bergan takliflari kiritilgan.

Yuqorida shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning jismoniy shaxslariga sarmoyalarga bo'lgan imkoniyatlar hamda chet el investitsiyalarini investorlarni faoliyatini yanada rivojlantirishda va buning natijasida soliq bazasini kengayishiga hamda rezident va nerezidentlarga soliqqa oid huquqiy munosabatlarni va axborot texnologiyalar asosida soliq hisobini yuritish faolligini oshirishda va O'zbekistonning tashqi bozordagi mavqeini oshirishda soliqqa tortish tamoyillaridan samarali foydalanishda hamda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu asnoda shuni ta'kidlash lozimki, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini oshirish hamda mahalliy byudjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida hozirgi kunda mahalliy byudjetga birlashtirilgan daromadlar turlari shuningdek, qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq. Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'lmaganda 3-yilda bir marta o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa o'z navbatida mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga**

## **molik nashrlar.**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2015 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. –Т.: lex.uz-Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2022 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2020 йил январь.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Бюджет кодексини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қонуни, 2013 йил 16 декабрь.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Солиқ маслаҳати тўғрисида”ги Қонуни, -Т.: Халқ сўзи, 2006 йил, 21 сентябрь.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»ги Қонуни. -Т.: Халқ сўзи, 1997 йил, 29 август.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил, 7 феврал.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 6061-son Farmoni.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида”ги ПФ-5308-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 июндаги “Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органларининг ваколатларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5075-сонли фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 декабрдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг молиявий эркинлигини ошириш, маҳаллий бюджетларга тушумларнинг тўлиқлигини таъминлаш бўйича солиқ ва молия органлари жавобгарлигини кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2018 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги ПҚ-3454-сонли қарори.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 февралдаги “Солиқ қонунчилигини тубдан такомиллаштириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ф-5214-сонли фармойиши.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 31 майдаги “Имтиёзлар ва преференциялар бериш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори ПҚ-3756-сонли қарори.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июндаги

“Давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3802-сонли қарори.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги «Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида»ги ПФ-5468-сонли фармони.

17. Каримов И. Иқтисодий эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш энг муҳим вазифамиз.–Т.: «Ўзбекистон», 2004.–36 б.

18. Ш.Мирзиёев. Биз буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Т.: Ўзбекистон, 425 б.

19. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи. 2017 йил, 16 январь.

20. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис Палаталарининг Қўшма Мажлисидаги нутқи. – Тошкент, Халқ сўзи газетаси, 2016, 14 декабрь.

21. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –104 б.

22. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 32 б.

23. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз” – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 32 б.

24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 22 декабрь 2017 йил. Тошкент, Халқ сўзи газетаси.

25. Brian J. Arnold, Michael J. McIntyre, International Tax Primer, Second Edition, Kluwer Law International, The Hague/London/New York.

26. Погорлецкий А.И. Международное налогообложение, Учебник, Издательство Михайлова В.А., Санкт-Петербург, 2006.

27. Погорлецкий А.И. Принципы международного налогообложения и международного налогового планирования, Санкт-Петербург, 2005.

28. Дернберг Р. Международное налогообложение. – М., 1997.

29. Кучеров И.И. Налоговое право зарубежных стран, Курс лекций, Центр ЮрИнфоР, Москва, 2003

30. Завалишина И.А. Солиқ: назария ва амалиёт –Т. «Иқтисодий ва ҳуқуқ дунёси» нашриёти, 2005 й. 544 б.

31. Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Тошкент, «Академия», 2002. – 204 бет.

32. Юткина Т.Ф., Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: ИНФРА-М. 2001. – 576 с.

33. Черник Д.Г., Налоги, М., 1996.

34. Яхёев Қ,А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти(қайта ишланган). - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2003. - 247 б.
35. National Tax College of Japan, A Textbook on Japanese Tax Administration, 2004 Edition, p.373-377
36. Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) Model Treaty
37. Multilateral Tax Network OECD in Ankara, Taxation of Non-Residents, Seminar materials, 23-27 June, 2008, Turkey
38. United Nations Development Program, Taxation of Non-Residents in Uzbekistan and Issues in Applying Tax Treaties, Analytical Document, Tashkent, 2009
39. Martha R.S.J. The Jurisdiction to Tax in International Law: Theory and Practice of Legislative Fiscal Jurisdiction. – Deventer; Boston, 1989.
40. Raad K., Van. Nondiscrimination in International Tax Law. – Deventer, 1986.
41. Tanzi V. Taxation in a Integrating World. – Washington, 1995.
42. Ўзбекистон Иқтисодий Ахбортономаси тахлилий журнали, “Хорижий инвестициялар”, Т.Расулов, и.ф.д., 2010 йил 3-сони, 74-бет
43. Шахмамметьев А.А. Международное налоговое право: Учебно методический комплекс. М. 2009.
44. Майбуров И.А и др. Налоги и налогообложение. Учебник. Под ред. И.А.Майбурова. 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 487 с. – (Серия золотой фонд российских учебников)
45. Винокурова Г.П. Налоги и налогообложение в Российской Федерации: учебное пособие / Г.П. Винокурова. – Йошкар-Ола: МарГТУ, 2003. – 46 с.
46. Глинский Б.А. Моделирование как метод научного исследования. М., 1965. 56 с.
47. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. (<http://edulib.ru/>).
48. Жўраев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришининг самарали йўллари. – Т.: Фан, 2004. – 224 б.
49. Налоги и налогообложение. – 5-е изд. / Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. – СПб.: Питер, 2006. –С. 309.
50. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. "М" ҳарфи. Тошкент. 671 б.
51. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-311с.
52. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 2-е изд.,перераб. И доп. М.: ИНФРА-М, 2002, 124 с.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

1. Адиллов М.Қ. Тадбиркорлик фаолиятида солиқларни режалаштириш. Т.: “NORMA”, 2012.- 420 б.

2. Анисимов С.А., Погорелко И.А. Проблемы прогнозирования налоговых доходов. // Аудит и финансовый анализ. 2003, №1, 26-34 с.
3. Анчишкин А.И. Методология прогнозирования развития народного хозяйства // Вопросы экономики. 1980. № 1. 46-47 с.
4. Архипцева Л.М. Налоговый потенциал: теоретические и практические аспекты использования в планировании налоговых поступлений // «Налоги и налогообложение», 2008, №7, 5-12 с.
5. Астафьева Е. Среднесрочное прогнозирование налоговых поступлений с использованием структурных моделей / Е. Астафьева // Проблемы теории и практики управления. – 2007. - №3. –16-31 с.
6. Бирюков А.Г. К оценке бюджетной обеспеченности регионов. // Финансы. 2001. № 4. 19 с.
7. Богачева О.В. Налоговый потенциал и региональные счёта // Финансы. 2000. № 2 — 3с.
8. Едророва В.М. Прогнозирование налоговых поступлений в субъекте Российской Федерации // Финансы и кредит. – 2008. - №17 –51-54 с.
9. Мельник Д.Ю., Сосновский С.Н. Налоговое планирование: международные аспекты // Налоговый вестник, № 6 1998, 103 с.
10. Элмирзаев С.Э. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносабатларини самарали ташкил этиш масалалари. Монография. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017.-159 б.
11. Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқларнинг роли/ Монография.-Т.: Фан ва технология, 2008.-204 б.
12. Тошмуродова Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 128 б.
13. Яковлева И.А. О моделях прогнозирования налоговых поступлений // Фундаментальные исследования. – 2008. – № 3 – С. 123-124.

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

1. Мейлиев О.Р. Худудий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлашда солиқларнинг таъсирчанлигини ошириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. -Т.: ТМИ, 2018. -27 б.
2. Мусагалиев А.Ж. Юридик шахсларни солиққа тортишни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. -Т.: БМА, 2009. -23 б.
3. Попова Л.В. Моделирование планирования налоговых поступлений в федеральный бюджет Орловской области / Л.В.Попова // Экономические и гуманитарные науки . - 2012. - № 3. –76-80 с.
4. Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. -Т.: БМА, 2018. -65 б.



5. Шернаев А.А. Давлат бюджети солиқли даромадларининг ўрта муддатли истиқболлини белгилаш масалалари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: БМА, 2009. -20 б.

6. Эргашев И.О. Миллий бозорни ҳимоялашда акциз солиғини ҳисоблаш услубиётини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: БМА, 2011. -22 б.

7. Собиров Ш.М. Фойда солиғи ва унинг тадбиркорлик субъектлари иқтисодий фаолиятига таъсири. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: БМА, 2008. -20 б.

8. <http://www.soliq.uz> (Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси)

9. <http://www.gov.uz> (Ўзбекистон Республикаси Ҳукумат портали)

10. <http://www.lex.uz> (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги сайти)

11. <http://www.mf.uz> (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти)

12. <http://www.uza.uz> (Ўзбекистон Республикаси Миллий Ахборот Агентлиги)

13. <http://www.norma.uz> (Ахборот маркази)

14. <http://www.stat.uz> (Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси)

15. <http://www.glavbuh.net>

16. <http://www.soliqinfo.uz>

17. [www.cnfp.ru](http://www.cnfp.ru)

18. [www.ft.com](http://www.ft.com)

19. <http://www.ibfd.org>

20. <http://www.internationaltaxreview.com>